

AHMEDOVA GULNOZA MUXTOROVNA

**TA'LIM OLUVCILAR NUTQIY MULOQOT MADANIYATINI
RIVOJLANTIRISH**

MONOGRAFIYA

1. Кириш булимида факат мавзунинг долзарблиги янада кенгайтирган холда колдириш лозим, 2. хавола килинган адабиётлар охирги 10 йилни ташкил этиши, адабиётларга хаволаларни талаб буйича кўйиш тавсия этилади 3.. диссертациядан фарқланиши ва фойдаланувчига қизиқроқ бўлиши учун жадвалларни диаграмма билан алмаштириш, мисоллар келтириш тавсия этилади. кўрсатилган тавсияларни тўғирлаш лозим.

TOSHKENT- 2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT STOMATOLOGYIA INSTITUTI

G.M.AHMEDOVA

**TA’LIM OLUVCILAR NUTQIY MULOQOT MADANIYATINI
RIVOJLANTIRISH**

MONOGRAFIYA

TOSHKENT – 2025

УЎК: 372.881(072)
КБК 74.268.1Rus
A-98

Mazkur monografiya ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarning o'zbek tili darslarida o'quvchilarning nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirish, ushbu jarayondagi nutqiy qoliplarni o'rgatish metodikasi yoritilgan.

Monografiya o'zbek tili o'qituvchilari, pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari, tadqiqotchi izlanuvchilar uchun moljallangan.

УЎК: 372.881(072)
КБК 74.268.1 Rus

Mas'ul **R.Rasulov** – filologiya fanlari doktori, professor.
muharrir:

Taqrizchilar: **G.K.Kuramboyeva** – filologiya fanlari doktori, professor.

L.Yu.Akramova – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Monografiya Toshkent davlat stomatologiya instituti Kengashining
2025-yil 24-martdagi sonli qarori bilan nashr etildi.

Fan va texnologiya” nashriyoti, 2025.

KIRISH

Mamlakatimizda o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini oshirishga qaratilgan tizimli faoliyat olib borilmoqda. Shu maqsadda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘zbek tilini o‘qitish metodikasini yangilash va uning samaradorligini oshirish bo‘yicha Davlat Farmonlari va boshqa rasmiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Mamlakatimiz hududidagi alohida til siyosati uni o‘qitish tizimiga ham muhim dolzarb talablarni qo‘ygan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: “Har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiy” ekanligini o‘zbek tili ta’limi oldidagi, ayniqsa, ta’lim oluvchilarning nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirish borasidagi dolzarb vazifa tarzida belgilaydi”,– deb ta’kidaydilar.[4, 3-b.]

Ta’lim tizimida yosh avlodning o‘zbek tilida muloqot madaniyatini rivojlantirish, bu borada ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, lingvodidaktik va metodik asoslarni takomillashtirish dolzarb masalalar qatoriga kiradi. Ushbu yo‘nalishda muloqot odobi qoidalarini o‘rgatish, dialogik nutqni uning tarkibiy qismlariga ajratib o‘rganish, chet tili va ona tili muloqot madaniyati komponentlarini qiyoslash asosida innovatsion texnologiyalardan foydalanib mashqlar tizimini yaratish va uni amaliyotda qo‘llash bugungi kun ta’lim jarayonining ustuvor vazifasidir.

Bugungi kunda o‘zbek tilini o‘qitishda dars jarayonida ta’lim oluvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilishning ahamiyati juda katta. Nutqiy muloqot madaniyati odamlarning uzoq tarix davomida shakllangan muomala qoidalariga asoslanib, ijtimoiy munosabat va sharoitlardan kelib chiqib, suhbatdoshlarning shaxsiyati va jamiyatdagi mavqeini inobatga olgan holda, kommunikativlik tamoyiliga rioya qilib muloqot qilish mahoratini anglatadi.

Shu bilan birga, nutqiy muloqotda faqatgina to‘g‘ri so‘z tanlash yetarli emas.

Suhbatdoshlar o'z replikalarida ijtimoiy munosabatlarni aks ettirishi va ularni to'g'ri anglash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Bu esa muloqotning samaradorligini oshiradi va ijtimoiy munosabatlarning yuqori madaniyat darajasida amalga oshishiga xizmat qiladi.

Dunyo olimlari tomonidan til ta'limining rejali tashkil etilishi va boshqarilishi sohasida o'tkazgan ilmiy tadqiqotlar natijasida ta'lim tizimida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni tizimli tashkil etish va boshqarishning pedagogik tamoyillarini diagnostika qilish va yangilash asosida o'quvchilarning nutqiy muloqot jarayonida kreativ faolligini rivojlantirish, pedagogik tizimni modullashtirishda o'quvchilarning lingvistik sezgirligi malakasini shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, ta'lim tizimida pedagog va ta'lim oluvchining nutqiy muloqot texnologiyasini fanlararo tashhislash asosida nutqiy muomala odobini shakllantirish kabi pedagogik faoliyatlarni tashkil etish jarayonini yangilashga erishilgan. Til ta'limida o'quvchilarning kreativ nutqiy faoliyatini tashkil qilish jarayonida pedagog hamda o'quvchi o'zaro munosabatini rejalashtirish va boshqarilishini modellashtirish, ta'lim oluvchilarning nutqiy muloqot madaniyatidagi (xulq-atvoridagi) kognitiv faoliyatini shakllantirishga oid zamonaviy tamoyillar va xorijiy tajribalardan ijodiy foydalanish yondashuvlarini tatbiq etish, ularning erkin nutqiy muloqot yuritish faoliyatini tashkil etishni tizimli o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda. [18, 5-b.]

I BOB.

O‘ZBEK TILI DARSLARIDA RUSIYZABON O‘QUVCHILARGA NUTQIY MULOQOT MADANIYATINI O‘RGATISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

1.1-§. Nutqiy muloqot madaniyati tushunchasining mazmun-mohiyati, nutqiy muloqot turlari va omillari

Ilmiy tadqiqotimizning 1.1-paragrafi "Nutqiy muloqot madaniyati" tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berishga bag‘ishlanib, dialogik nutq, uning tuzilmasi, muloqot turlari va amaliy qo‘llash omillari talqinini qamrab oladi. Ushbu omillar haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lmasdan turib, mazkur yo‘nalishda ta’lim jarayonining bugungi holatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etish uchun lingvodidaktik, pedagogik va metodik asoslarni ishlab chiqish deyarli mumkin emas.

Hozirda o‘zbek tilini o‘qitishda dars jarayonida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilishning ahamiyati ortib bormoqda. Bu jarayon ta’lim maqsadlariga asoslanib rejalashtiriladi, chunki maqsad nima o‘qitilishi, qanday darajada va qanday usullar bilan amalga oshirilishi lozimligini belgilab beradi. Dialogik nutqni rivojlantirish deganda, o‘quvchilarga dialog shaklida fikr almashishni o‘rgatish tushuniladi. Dialogik muloqot ta’lim jarayonining asosiy tarkibiy qismidir. E.V. Korotayevaning ta’kidlashicha, bunday muloqot vaziyatga mosligi, oldingi so‘zlar bilan bog‘liqligi, tabiiy ravishda sodir bo‘lishi va kam rejalashtirilganligi kabi xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Dialogik nutqni rivojlantirish nafaqat gaplar tuzishni o‘rgatishni, balki tayyor qolip gaplardan foydalanishni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu qolip gaplar o‘quvchining o‘zlashtirish darajasiga mos ravishda mustaqil tuzilishi yoki yodlab olinishi mumkin. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasida bu borada ikki xil yondashuv mavjud:

- 1) tayyor replikalarni yod oldirish;

2) o'quvchilarda mustaqil gap tuzish ko'nikmasini shakllantirish.

Bizningcha, ikkinchi yondashuv o'quvchilarning erkin muloqotga o'tish imkoniyatini oshiradi. R.O. Nabiyevaning ta'kidlashicha, yodlab olingan gaplarni ishlatish hali o'quvchining o'z tili bilan fikr bildirishga qodirligini anglatmaydi. Shuning uchun dialogik nutqni rivojlantirishda muomala odobidan kelib chiqadigan talaffuz va muloqot qoidalarini ham o'zlashtirish muhimdir.


Metodist olimi N.I. Formanovskaya fikricha, har bir jamiyatda tildan foydalanish bilan bog'liq yozilmagan nutqiy xulq-atvor qoidalariga rioya qilish muhim o'rin tutadi. Shu sababli, dialogik nutqni rivojlantirishga doir mashq va topshiriqlarni rejalashtirishda nafaqat leksik va grammatik materiallar, balki muomala odobi qoidalari ham inobatga olinishi lozim.

"Nutqiy muloqot madaniyati" tushunchasi o'z ichiga muloqot, nutqiy muloqot, og'zaki nutqiy muloqot madaniyati, muomala madaniyati va nutqiy etiket kabi asosiy elementlarni qamrab oladi. Bu tushunchalar real hayotda muloqot jarayonining qanday amalga oshishini belgilaydi. G. Toirova va A. Zaripovanning ta'kidlashicha, muloqot – bu shaxslararo munosabatlarning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, uning yordamida odamlar axborot almashadi, bir-birlarini tushunadi va o'zaro ta'sir ko'rsatadi [182; 87-90].

Shunday qilib, nutqiy muloqot madaniyati odamlarning o'zbek xalqining uzoq tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan muomala odobi qoidalariga rioya qilgan holda, ijtimoiy sharoit va suhbatdoshlarning mavqeini inobatga olib, nutqning kommunikativ jihatlarini e'tiborga olgan holda muloqot qilish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, nutqiy muloqotda so'z tanlash va ishlatish qobiliyati bilan birga, ijtimoiy munosabatlarni ham hisobga olish zarur. "Nutqiy muloqot madaniyati"dagi "madaniyat" so'zi aynan shu omillarni o'zida aks ettiradi va yoshlarning muomala qoidalarini chuqur o'zlashtirishini talab etadi.

Mavjud adabiyotlarda muloqot turlari keng yoritilgan. Masalan, G.G. Vinokurning "Русский язык" nomli qo'llanmasida nutqiy muloqotning quyidagi turlari ajratib ko'rsatilgan: fatik, axborot bilan bog'liq, verbal va noverbal,

shaxslararo, guruhli, ommaviy, rasmiy, norasmiy, professional, maishiy, bevosita va bavoisita, ogʻzaki va yozma, dialogik va monologik muloqot. Ushbu tasnif nutqiy muloqot madaniyati tushunchasini yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi [81: 41] .



1.1-rasm. Nutqiy muloqot turlari.

Tasnifga ko'ra, muloqot turlarining aksariyati nutqiy faoliyat orqali amalga oshadi. Bular qatoriga fatik muloqot, axborot bilan bog'liq muloqot, shaxslararo, guruhli, ommaviy muloqot, shuningdek, kontakt va distant, rasmiy va norasmiy, professional (kasbiy) va maishiy muloqot, og'zaki va yozma, dialogik va monologik muloqot kiradi. Bu turdagi muloqotlarning barchasi asosan nutq vositasida sodir bo'lishi bilan ajralib turadi.

Tadqiqotimizda biz "qolip gap" atamasini bir xil shakldagi, tayyor iboralar yoki gaplar uchun ishlatamiz. Ushbu ishimizni og'zaki nutqiy muloqot bilan cheklash to'g'ri deb hisoblaymiz. Lingvistik adabiyotlarda muloqotning so'z orqali yoki imo-ishoralar yordamida amalga oshirilishi qayd etiladi. So'z orqali bo'ladigan muloqot nutqiy muloqot sanaladi, imo-ishora yoki boshqa vositalar orqali amalga oshadigan muloqot esa noverbal muloqot deb ataladi.

Muloqot turlari ichida eng keng tarqalgan va muhim bo'lgani fatik muloqotdir. Bu muloqot muloqotni boshlash, davom ettirish yoki to'xtatish uchun ishlatiladigan iboralar va replikalarni o'z ichiga oladi. Masalan, *“Xo'sh-xo'sh”*, *“Yana nima deysiz?”* kabi iboralar fatik muloqotga kiradi. Ushbu muloqot turi lingvistlar, sotsiolingvistlar va paralingvistlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, muloqot jarayonini tashkil etishning tashkiliy elementlari sifatida qoraladi.

Nutqiy muloqot asosan ikki turdagi gaplar asosida tashkil etiladi: mustaqil tuziladigan gaplar va qolip gaplar. Masalan, *“Assalomu alaykum”* yoki *“Xush kelibsiz!”* kabi qolip gaplar muloqotning tashkiliy elementlarini tashkil qiladi. Axborot bilan bog'liq replikalar esa asl muloqot mazmunini ifodalaydi. Bu turdagi muloqot maishiy yoki kasbiy sohada rasmiy va norasmiy shakllarda kechishi mumkin.

Muloqot kontakt yoki distant shaklda ham amalga oshadi. Yuzma-yuz so'zlashuv kontakt muloqot hisoblanadi, masofadan turib telefon yoki boshqa texnologiyalar yordamida bo'ladigan muloqot esa distant muloqot sanaladi. Masalan, xat yozish distant muloqotga misol bo'ladi, bunda muloqotning shaxsiy jihatlari ko'pincha xatning oxirida aks etadi.

Ijtimoiy psixologiyada ommaviy muloqot yoʻnalishiga koʻra uch turga boʻlinadi: imperativ, manipulyativ va dialogik. **Imperativ muloqot** buyruq yoki koʻrsatma berish kabi avtoritar tarzda kechadi, masalan, "boshliq-xodim" munosabatlari. **Manipulyativ muloqot** suhbatdoshga yashirin taʼsir koʻrsatib, uning qarorlariga bilvosita taʼsir qilishni anglatadi. Bu turdagi muloqot ishonchni yoʻqotish va ijtimoiy munosabatlarni buzishga olib kelishi mumkin. **Dialogik muloqot** esa teng huquqli ishtirokchilar oʻrtasidagi oʻzaro tushunishga asoslangan muloqotdir.

Shaxslararo muloqot ikki yoki undan ortiq suhbatdosh oʻrtasida boʻlib, har bir ishtirokchi muloqotning teng huquqli qatnashchisi hisoblanadi. **Guruhlararo muloqot** esa bir yoki bir nechta ishtirokchilar oʻrtasida sodir boʻlib, bunda har bir guruhda yetakchi boʻladi. Rolli muloqotda ishtirokchilar maʼlum rollarni ijro etishadi, masalan, *"xaridor-sotuvchi"* yoki *"oʻqituvchi-oʻquvchi"* rollari.

Ommaviy muloqot axborot vositalari, masalan, radio, televideniye va kompyuter yordamida amalga oshadi. Televideniyedagi jonli efir, gazeta tilidagi publitsistik uslub kabi holatlar ommaviy muloqotning turli koʻrinishlariga misoldir.

Xulosa qilib aytganda, oʻquvchilarda *"dialogik nutq oʻstirish"* tushunchasi maktab taʼlimida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma muloqot koʻnikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy munosabatlarni hisobga olgan holda, replika tanlash va qoʻllashga oʻrgatish zarurdir. Nutqiy muloqot madaniyatini egallash har qanday faoliyat sohasida zarur boʻlib, unda oʻquvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi asosiy oʻrin tutadi.

"Muloqot" tushunchasi *"gapirish"* yoki *"gaplashish"* kabi terminlardan kengroq maʼnoni qamrab oladi. Muloqot jarayonida suhbatdoshlar faqat soʻz bilan chegaralanib qolmay, balki imo-ishora va boshqa noverbal vositalardan ham foydalanadilar. Imo-ishoralar ham fikrni ifodalash va uzatishda muhim vosita sanaladi [115]. Shu sababli, muloqot ikki asosiy turga – nutqiy (verbal) va nutqiy boʻlmagan (noverbal) muloqotga boʻlinadi.

Tilshunos olim O‘.H. Islamov o‘z tadqiqotida Alisher Navoiy tomonidan nutq madaniyatiga yaqin fasohat tushunchasining qo‘llanganini qayd etadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da fasohat “Chiroyli va yoqimli so‘zlash qobiliyati, nutqning aniq va ravonligi” deb izohlanadi. Alisher Navoiy fasohatga uch xil nuqtai nazardan yondashgan: a) kundalik oddiy nutqiy faoliyat; b) badiiy til va adabiyot nutqi; v) notiqlik va notiqarning vazifalari sifatida. Bundan tashqari, Navoiy fasohatli nutqni yuzaga chiqarishda lisoniy va nolisoniy omillarning rolini ta’kidlaydi [165: 9-10].

Muloqot jarayonida har bir inson, xususan, musulmonlar, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning: “Qayerda bo‘lsang ham, odamlarga chiroyli xulq ila muomala qil” degan tavsiyalariga amal qilishi muhimdir. Har bir kishi suhbatga qo‘shilganda, noxush va ko‘ngilni xira qiladigan replikalarni aytishdan tiyilishi kerak. “Til yarasi bitar, dil yarasi bitmaydi” degan naql muloqot davomida ehtiyotkorlikning zarurligini eslatadi, chunki noto‘g‘ri so‘zlash natijasida o‘zaro munosabatlar jiddiy zarar ko‘rishi mumkin.

Hazrat Alisher Navoiy insonning nutqiy madaniyati masalalariga katta e’tibor qaratgan. Uning:

“Necha buyuk aylasang so‘zingni,

Ondin buyuk etgaysen o‘zingni”

degan hikmatli satrlari yaxshi so‘zning inson ruhiyatiga ijobiy ta’siri haqida so‘z yuritadi. Shuningdek, Navoiy qo‘pol va dag‘al so‘zlarning inson qalbini iztirobga solishi mumkinligini uqtiradi.

Qadimda buyuk allomalarimiz insoniylik madaniyatini yuksaltirishda so‘z va muomala madaniyatining ahamiyatiga alohida e’tibor qaratganlar. Alisher Navoiy shaxsiy nutq madaniyati va xushmuomalalikni insonning insoniy fazilatlarining asosi deb hisoblagan. Yusuf Xos Hojib esa o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida:

“Erkim so‘z vajidan taxtga egadir,

So‘z kim er boshini erga egadir”

deya, so‘zning ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o‘rni va ta’sirini ko‘rsatgan.

Muloqot faqatgina ilgaridan tanish mazmun va replikalardan iborat bo'lib qolmasligi kerak. Fikr almashish jarayoni suhbatdoshlarning o'z bilim va tajribalarini, hayotiy muammolarini bir-biri bilan o'rtoqlashishini, shuningdek, yangi bilimlarni o'rganishni ham o'z ichiga oladi. Shaxslar o'zlarining quvonchlari, qayg'ulari yoki his-tuyg'ularini ifoda qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan, ***“O, qanday yaxshi, men qanday omadliman-a!” yoki “Qoyil, bopladimmi sizni!?”*** kabi iboralar turli his-tuyg'ularni ifoda etadi.

Muloqotning yuzaga kelishi uchun shaxsda suhbatdoshga aytmoqchi bo'lgan fikr yoki his-tuyg'ular shakllanishi kerak. Shuningdek, suhbat mavzusini tanlash va suhbatdoshning fikrlari va tuyg'ulariga munosabat bildirishga bo'lgan qiziqish ham muhimdir. Bularning barchasi uchun, albatta, ishtirokchilar tilni ma'lum darajada egallagan bo'lishlari talab etiladi. E.A.A'zamxo'jayeva muloqot maqsadlarini quyidagi yo'nalishlarga ajratadi: o'zaro aloqa, axborot uzatish, undovchi, munosabatni muvofiqlashtiruvchi, hamkorlik faoliyati, emotiv, shaxslararo munosabat va o'zaro ta'sir o'tkazish maqsadlari [136; 9–10.].

Shunga ko'ra, muloqot, bir tomondan, suhbatdoshlar o'rtasida o'zaro fikr almashish, boshqa tomondan esa ijtimoiy munosabatlarning natijasi sifatida yuzaga chiqadi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli kechishi uchun shaxsiy axborot, tajriba, kommunikativ layoqat, nutqiy vaziyatni anglash va muomala odobi qoidalariga rioya qilish talab etiladi. N.B. Sheshko bu jarayonni “nutqiy etiket” deb ataydi va uni jamiyat tomonidan qabul qilingan belgilar tizimi sifatida talqin qiladi [115; 96-b.].

Musulmon ilmi olimlaridan Shayx Sodiq Muhammad Yusuf “Ruhiy tarbiya” kitobida insonning boshqalar bilan munosabatlarini isloh qilishni axloqiy yuksalishning asosiy maqsadlaridan biri sifatida ta'kidlaydi. Bu, xususan, ***kengbag'irlik, go'zal muomala, tavozu va kechirimlilik*** kabi sifatlarni o'zida mujassamlashtiradi [125; 24.].

Shu tariqa, ***“nutqiy muloqot madaniyati”*** tushunchasi shaxsning shaxsiy va ijtimoiy fazilatlarini namoyon qilishda muhim rol o'ynaydi. U o'z ichiga lisoniy va

nolisoniy elementlarni, muomala odobi qoidalarini hamda nutqiy vaziyatni mos ravishda qo'llashni oladi. Nutqiy muloqot madaniyati suhbatdoshlar o'rtasida nafaqat fikr almashish, balki ijobiy munosabatlarni o'rnatish va ularni saqlash uchun asosiy vosita hisoblanadi.

Nutqiy etiket masalasi tilshunoslik va kommunikatsiya sohalarida muhim o'rin egallaydi. Muallif ushbu tushunchani izohlar ekan, uni quyidagicha ta'riflaydi: "Nutqiy etiket deganda biz nutqiy xulq-atvorning jamiyat tomonidan yuzaga keltirilgan, jamiyat a'zolari uchun majburiy, milliy o'ziga xos, nutqiy formulalarda barqaror qaydlangan, ayni paytda tarixan o'zgaruvchan qoidalarini tushunamiz" [115; 4.]. Ushbu ta'rifdan anglashiladiki, nutqiy etiket – bu shunchaki so'zlashuv madaniyatini emas, balki jamiyatda shakllangan va vaqt o'tishi bilan rivojlanib borgan kommunikativ qoidalar majmuasini ifodalaydi.

Jamiyatda nutqiy etiket odob-axloq qoidalari bilan chambarchas bog'liqdir. Nutqiy etiketning asosiy maqsadi insonlar o'rtasida muloqotni muvofiqlashtirish va uni samarali tashkil etishdir. Bu qoidalar muloqotning rasmiy yoki norasmiy bo'lishidan qat'i nazar, suhbatdoshlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, til birliklarini tanlash, talaffuz usullari, so'zlashuv ohangiga doir an'anaviy mezonlarni tartibga solib turadi. Shu bois nutqiy etiket milliy madaniyatning bir qismi sifatida milliy o'ziga xoslikni ifoda etadi. Misol uchun, o'zbek milliy muloqot madaniyatida odatiy *"Assalomu alaykum"* yoki *"Rahmat, yaxshimisiz?"* kabi iboralar do'stona va xushmuomalalikni ifodalaydi, bu esa milliy o'ziga xos nutqiy etiketning namunasidir.

Nutqiy etiketning yana bir muhim jihati uning dinamik o'zgaruvchanligidir. Jamiyat rivojlanib, yangi madaniy va texnologik talablarga moslashgani sari, nutqiy xulq-atvor qoidalari ham o'zgaradi. Masalan, zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi bilan onlayn muloqotdagi nutqiy etiket me'yorlari shakllandi. Elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar yoki messenjerlardagi muloqot jarayonida *"Hurmat bilan"*, *"Iltimos, javob yozing"* kabi iboralar qo'llanilib, yangi vaziyatlarga moslashgan nutqiy xulq-atvorni namoyon qiladi. Bunday

o'zgarishlar jamiyatning madaniy va kommunikativ ehtiyojlarini aks ettiradi.


Nutqiy etiketning tarixan o'zgaruvchanligi muayyan davrning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga bog'liq. Misol uchun, qadimgi davrlarda podshohlar yoki amaldorlar bilan muloqot qilishda ishlatiladigan nutqiy formulalar hozirgi kundagi diplomatik muloqot me'yorlariga yaqin keladi. Shu bilan birga, xalq tilida sodda va samimiy iboralar ustuvorlik qiladi, bu esa nutqiy etiketning ijtimoiy tabaqalararo farqlanishini ham ko'rsatadi.

Nutqiy etiketning asosiy vazifalaridan biri suhbatdoshlarning muloqot chog'ida o'zaro hurmatini saqlashdir. Shu bois nutqiy etiketning mohiyatini tushunish va unga amal qilish muloqotning samaradorligini oshiradi. Jamiyat tomonidan qabul qilingan ushbu qoidalar muloqot jarayonida ishtirokchilarning shaxsiy munosabatlarini, maqomini va muloqotning maqsadini e'tiborga olgan holda ishlatiladi.

Xulosa qilib aytganda, nutqiy etiket jamiyatda o'rnatilgan va madaniyat orqali avloddan-avlodga o'tib kelayotgan muloqot qoidalari tizimidir. Bu tizim nafaqat shaxslararo muloqotning samaradorligini ta'minlaydi, balki milliy madaniyat va o'ziga xoslikning ham ko'zgusi sifatida xizmat qiladi. Shu sababli nutqiy etiketni chuqur o'rganish va uni amaliyotga tatbiq qilish bugungi kunda ham dolzarb masala hisoblanadi [115; 4.].

Tilshunos Q.A.Rasulovning nomzodlik ishida o'zbek muloqot xulqi sotsiolingvistika asosida keng talqin etilib, so'zlashuvchilarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei, turli kasb va faoliyat turlari, xususan, o'qituvchilik kasbi nuqtai nazaridan batafsil ko'rib chiqiladi. Muallifning fikricha, "Sotsiumning qaysi davrga, qaysi ijtimoiy sohaga oid ekanligi uning faqat nutqidan yoki qanday leksik birliklardan foydalanishi bilan emas, balki dunyoqarashi, o'zini tutishi (kinestika holati), tashqi ko'rinishi, nutqining shakli (ritmi), talaffuz me'yori (ton) kabi o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni ramziy ijtimoiy markerlari bilan ham ajralib turadi" [152; 18.]. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, nutqiy muloqotni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun so'zlashuvchilar faqat lingvistik bilimlargagina ega bo'lishi

yetarli emas. Ular shuningdek, murakkab ijtimoiy munosabatlarni ifoda etuvchi va jamiyat madaniyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan boshqa lisoniy jihatlarni ham o‘zlashtirishlari lozim.



1.2-rasm. Nutqiy muloqot madaniyatining mazmun-mohiyati

O‘zbek tilidagi dialogik nutqni o‘rganishda so‘roq olmoshlari, muomala odobiga oid so‘z va iboralar, yuklamalar, undovlar va kirish so‘zlarning keng qo‘llanilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Dialoglar ko‘pincha sodda gaplardan tashkil topadi, ular orasida bir tarkibli gaplar, to‘liqsiz gaplar va so‘z-gaplar faol qo‘llaniladi [18; 65-b.]. Ushbu lisoniy birliklarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish esa nafaqat lingvistik bilimlarni, balki lingvokulturologik ma’lumotlarni ham chuqur bilishni talab etadi. Bu jarayon nutq madaniyatining murakkabligi va turli madaniyatlar bilan o‘zaro bog‘liqligini anglatadi.

Dialogik muloqotning xilma-xilligi bo‘yicha O.G. Birdina tomonidan keltirilgan tasnif mazmunni yanada boyitadi. Muallif dialoglarni quyidagi turlarga ajratadi: ma’naviy dialog, refleksiv (nutqiy vaziyatga moslashgan) dialog, o‘z-o‘zini joriy etuvchi dialog, ish yuzasidan so‘zlashuv, intervyu, bahs-

munozara va polemika. [156, 22-24] Bunga qo'shimcha ravishda, biror mavzuni muhokama qilish yoki yangi bilim olishga qaratilgan dialoglar ham mavjud bo'lib, bu jarayonlar o'z navbatida kommunikatsiya strategiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

N.B. Sheshko nutqiy etiketning ijtimoiy mavqei teng bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi muloqotda qanday namoyon bo'lishiga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, bunday holatlarda nutqiy etiket qat'iy tus oladi va jamiyatning madaniy me'yorlari bilan mustahkamlanadi [115; 96.]. Sharqona muomala odobi qoidalari, masalan, o'qituvchi va o'quvchi yoki sinfdoshlar o'rtasidagi muloqotda oddiyroq shakllarda qo'llanilsa-da, ijtimoiy munosabatlar murakkablashgani sari, ushbu qoidalar ham murakkablashib boradi.

N.I. Formanovskaya nutqiy etiketni quyidagicha ta'riflaydi: "Etiket bizning xulq-atvorimizni belgilab beradi. Bu biz stolda yoki mehmondorchilikda rioya qiladigan qoidalargina emas, balki umuman bizning barcha o'zaro munosabatlarimiz me'yorlaridir" [113]. Bu ta'rifdan anglashiladiki, nutqiy etiket insonlarning kundalik hayotida, jamiyatdagi mavqeiga ko'ra belgilangan har bir so'zlashuv va xulq-atvorini boshqaruvchi tamoyillardir. Ushbu me'yorlar muloqot jarayonida ishtirokchilarning ijtimoiy vazifalarini va tilning kommunikativ funksiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi.

Muomala odobi qoidalari turli vaziyatlarda, masalan, salomlashish, tanishish, iltimos qilish, kechirim so'rash, tabriklashda o'z ifodasini topadi. Qolip gaplar, masalan, *"Assalomu alaykum"*, *"Kechirasiz"*, *"Iltimos"* kabi iboralar muayyan vaziyatlarga mos ravishda qo'llanadi. Bunday qolip gaplar jamiyatning ijtimoiy madaniy qirralarini aks ettirib, milliy o'ziga xoslikning ramzidir. Misol uchun, o'zbek xalqining salom berish odatlari turli shakllarda namoyon bo'ladi va unda xalqning tarixiy qadriyatlari aks etadi.

Mashhur tilshunos S.I. Ojegovning fikriga ko'ra, yuqori nutq madaniyati – bu fikrlarni aniq, ta'sirchan va uslubiy jihatdan mos tarzda ifoda etish san'atidir. U shunday deydi: "Yuksak nutq madaniyati uchun til me'yorlariga amal

qilish, fikrlarni aniq ifoda qilish yetarli emas, balki vaziyatga mos keluvchi eng maqbul nutq birliklarini tanlash ham muhimdir”[18]. Bu esa suhbatdoshlar o‘rtasidagi muloqotning nafaqat mazmuniy, balki emosional jihatdan ham uyg‘un kechishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, nutqiy muloqot madaniyati faqat til vositalarini egallashni emas, balki ijtimoiy munosabatlar, muomala odobi va kommunikativ etiketni chuqur anglashni talab etadi. Ushbu bilim va ko‘nikmalar yosh avlodning shaxs sifatida rivojlanishida, jamiyatdagi o‘rnini belgilashida va muloqot madaniyatini yuksaltirishda muhim rol o‘ynaydi. Bunday yondashuv orqali insonlar o‘zlarining nutqiy va madaniy qobiliyatlarini namoyish etish barobarida milliy qadriyatlarini ham keng targ‘ib qilish imkoniga ega bo‘ladilar.

Lingvistik va pragmatik tadqiqotlarda muloqot uchta asosiy turga ajratilib o‘rganiladi: **nutqiy hodisa**, **nutqiy vaziyat** va **diskurs**. Ushbu uch tushuncha muloqot jarayonining turli jihatlarini aks ettiradi va har biri o‘ziga xos talqin qilinadi. **Nutqiy hodisa** – bu muloqotning ma’lum bir vaqtda va joyda sodir bo‘lgan maxsus holatini, aniq bir voqeani tasvirlaydi. **Nutqiy vaziyat** esa muloqotning ijtimoiy va psixologik kontekstini, ya’ni uning qanday sharoitlarda yuz berayotganligini belgilaydi. Eng murakkab tushuncha **diskurs** esa, nafaqat muloqot matnini, balki uning **pragmatik, sotsiomadaniy va psixologik jihatlarini** ham o‘z ichiga oladi. Diskurs – bu muloqotda ishtirok etayotgan shaxslarning fikrlash qobiliyati va dunyoqarashi bilan uyg‘unlashgan holda yuzaga keluvchi matndir.

Diskursning o‘ziga xosligi uning pragmatik mohiyatida yotadi. Ya’ni, u matnning til birliklarigina emas, balki muloqot davomida matnning qanday maqsadga qaratilganligi, qanday usulda tashkil etilganligi va kimga mo‘ljallanganligini ko‘rsatadi. Masalan, psixologik jihatdan diskurs so‘zlovchining ichki holatini, uning motivatsiyasi va hissiy ehtiyojlarini aks ettirsa, sotsiomadaniy jihatdan u jamiyatda mavjud ijtimoiy qadriyatlar,

urf-odatlar va madaniy me'yorlar bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli diskurs muloqotning eng keng qamrovli va ko'p qirrali turi sifatida ko'riladi.

Yuqorida muhokama qilingan **“nutqiy muloqot madaniyati”** va **“og'zaki nutqiy muloqot madaniyati”** tushunchalariga berilgan izoh va ta'riflardan, shuningdek, keltirilgan dalillardan ma'lum bo'ladiki, **muloqot turlari** bu madaniyatning asosini tashkil etadi. Ushbu muloqot turlari faqatgina o'ziga xos funksiyalari va jihatlari bilan emas, balki ularning o'zaro munosabatlari, ya'ni o'zaro qanday uyg'unlikda ishlashi va biri boshqasiga qanday ta'sir ko'rsatishi bilan ham ajralib turadi.

Muloqotning har bir turi alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular birgalikda insonlar o'rtasidagi kommunikatsiya jarayonini yanada chuqurroq va samaraliroq amalga oshirish uchun xizmat qiladi. **Og'zaki nutqiy muloqot** bu jarayonda alohida o'rinni egallaydi, chunki u to'g'ridan-to'g'ri jonli suhbat jarayonida yuzaga keladi. Og'zaki muloqot o'zining spontanligi (beixtiyor sodir bo'lishi), vaziyatga bog'liqligi va hissiy ifodaviyligi bilan yozma muloqotdan sezilarli darajada farqlanadi. Shuning uchun ham og'zaki nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirish, uning komponentlarini o'rgatish va takomillashtirish bugungi ta'lim jarayonining eng muhim masalalaridan biridir.

Mazkur muammolarni hal qilish va talabalarning og'zaki muloqot madaniyatini rivojlantirish yo'nalishida o'quvchilarning **dialogik nutqini** o'stirish alohida e'tiborni talab qiladi. Bu jarayon, bir tomondan, o'quvchilarga so'zlashuv ko'nikmalarini shakllantirish va ularni muloqotning turli vaziyatlariga moslashishni o'rgatishni talab etsa, boshqa tomondan, ularning nutqiy kompetensiyasini kengaytirish uchun zaruriy lisoniy bilimlarni yetkazib berishni taqozo etadi.

Keltirilgan ma'lumotlar asosida endilikda **o'zbek tili darslarida dialogik nutqni o'stirish** jarayoni qay darajada samarali tashkil etilayotganini tahlil qilis h imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa, o'z navbatida, ushbu jarayonning zaif tomonlarini aniqlash va uni takomillashtirish uchun amaliy chora-tadbirlarni ishlab

chiqishga zamin yaratadi. Shu bilan birga, dialogik muloqot orqali o'quvchilar faqatgina til qoidalarini o'rganibgina qolmay, balki ularning fikrlash qobiliyatlari, his-tuyg'ularni ifodalash mahorati va muloqot jarayonidagi faol ishtiroki ham mustahkamlanadi. Bu esa, albatta, ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega [18; 18-b.].

1.2-§. O'zbek tili darslarida rusiyzabon o'quvchilarga nutqiy muloqot madaniyatini o'rgatishning hozirgi holati

Rusiyzabon o'quvchilarning o'zbek tilidagi dialogik nutqini o'stirishda hozirgi vaziyat o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi, mavjud ta'lim vositalari, shuningdek, davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va darsliklarning mazmuniga bevosita bog'liq. Bugungi kunda ushbu sohada bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular dialogik nutqni rivojlantirish jarayonini izchil va samarali tashkil etishga to'sqinlik qilmoqda.

Metodik qo'llanmalarning tanqisligi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Masalan, **“O'qituvchi” nashriyoti orqali nashr qilingan “O'zbek tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish (III–VIII sinflar)”** metodik qo'llanmasi atigi 5000 nusxada chiqarilgan [22]. Bundan tashqari, oz miqdorda chop etilgan bir nechta monografiyalar mavjud bo'lib, ular keng tarqatilmagan va tor doirada foydalaniladi [23], [24]. Natijada o'zbek tili o'qituvchilari uchun mavjud metodik materiallardan samarali foydalanish imkoniyatlari cheklangan. Bu vaziyat rusiyzabon o'quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirish jarayonida salmoqli qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

R.A.Yo'ldoshevning 2015-yilgi monografiyasining “1.4.O'quvchilarning o'zbekcha dialogik nutqini o'stirish” qismida [23; 64–83.] rusiyzabon o'quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirish bo'yicha muhim tavsiyalar berilgan. Muallif ta'kidlashicha, “O'zbek tili darslarida rusiyzabon o'quvchilarga dialogik shaklda o'zaro so'zlashishni o'rgatish tayyor savol-javoblarni yod oldirishdan iborat bo'lmasligi kerak” [24; 64]. Chunki bunday yodlangan olip gaplar o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga

xizmat qilmaydi. **Tayyor savol-javob asosida suhbatlashish bilan mustaqil ravishda gap tuzib suhbatlashish orasida katta farq bor.** Tayyor savol-javoblar suhbatda hissiyot va shaxsiy munosabatni ifodalash imkonini bermaydi, muloqotni bir xil va jonlanmagan holatda saqlaydi.

Muallif fikricha, suhbat jarayonining jonliligini oshirish uchun o'quvchilarni o'z suhbatdoshlariga qarab savol berishga, ismini aytib murojaat qilishga va mazmunli javoblar qaytarishga o'rgatish lozim [22; 72]. Shu tariqa, dialog jarayonida o'quvchilar nafaqat o'z fikrlarini ifoda etishga, balki suhbatdosh bilan o'zaro ta'sirni rivojlantirishga o'rganadilar.

Boshqa tomondan, **G.Toirova va A.Zaripovalarning “Xayrlashish – nutqiy muloqotning xotimasi”** nomli maqolasida nutqiy muloqotning bosqichlari, jumladan, salomlashishdan xayrlashishgacha bo'lgan jarayonlar, badiiy asarlar misolida yoritilgan. Biroq, ushbu tadqiqotda qolip gaplarni ajratib ko'rsatish masalasiga e'tibor qaratilmagan. Bu esa muloqotni o'rgatishda muhim bo'lgan standart iboralar, qolip gaplardan foydalanish masalasini to'liq yoritmaydi.

Davlat ta'lim standartlari ham rusiyzabon o'quvchilarning o'zbek tilidagi nutqini o'stirish bo'yicha umumiy talablarni belgilaydi. **“O'zbek tili” (Ta'lim boshqa tilida olib boriladigan maktablar uchun)** bo'limida, boshlang'ich ta'lim bosqichida, **“Ta'lim mazmunining majburiy minimumi”** qismida quyidagilar keltiriladi: “Milliy an'analar. Mehmon kutish. Kattalar bilan salomlashish odobi” [14; 252]. Bitiruvchilar uchun **“So'zlash (og'zaki nutq)”** bo'yicha qo'yiladigan talablar: “Kundalik muloqot doirasida 3-5 luqma bilan kerakli o'rinlarda qolip gaplardan foydalanib (dialogik nutq shaklida) o'zaro fikr almasha bilish” [14; 243].

Umumiy ta'lim darajasida esa “So'zlash (og'zaki nutq)” bo'yicha quyidagilar talab qilinadi: “O'rganilgan mavzu doirasida 7-10 luqma bilan kerakli o'rinlarda qolip gaplardan foydalanib, o'z fikrlarini asoslangan,

izohlangan, umumlashtirilgan tarzda turli nutqiy vaziyatlarda so‘zlasha bilish” [14; 260].

Shu tarzda davlat ta’lim standartlari umumiy yondashuvni belgilaydi, lekin ularning amaliy qo‘llanilishi va o‘qituvchilarning malakasi bu talablarni to‘liq amalga oshirish uchun yetarli emasligi kuzatilmoqda. Shu sababli, rusiyzabon o‘quvchilar uchun o‘zbek tili bo‘yicha metodik materiallar va resurslarni kengaytirish zarurati dolzarbligicha qolmoqda. Bu nafaqat dialogik nutqni rivojlantirish, balki o‘quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini kengaytirish va ularning nutqiy madaniyatini shakllantirish uchun muhim qadam bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zbek tilidan tasdiqlangan davlat ta’lim standartiga muvofiq, qolip gaplarni o‘rgatish ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida belgilangan. Bu talab 1999-yilda ta’lim boshqa tilida olib boriladigan maktablar uchun tasdiqlangan **“Umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturi”** asosida rasmiylashtirilgan bo‘lib, uning mazmunida nutqiy muloqot, muomala odobi va nutq etiketi bo‘yicha bilimlar berishga alohida urg‘u berilgan.

Mazkur dasturning “Uqtirish xati” bo‘limida nutqiy muloqot haqida quyida gicha bayon etilgan: ***Dasturda o‘zbekcha mulozamat va nutq etiketi bo‘yicha bilimlar berish, shuningdek, davlat tilida ish yuritish hamda bahs-munozara olib borishga o‘rgatish ham ko‘zda tutilgan***” (264-b). Bu talab 5-sinf uchun belgilangan nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish talablarida yanada yaqqolroq ifodalangan. Jumladan, **“Berilgan mavzu doirasida 5-6 ta gapdan iborat matnning mazmunini tushunib, o‘z fikrini og‘zaki bayon qilish, murojaat etish, iltimos qilish, iltimosga javob kabi muomala odobiga oid iboralarni qo‘llay olish”** talabi ifodalangan (265-b).

Mazkur talablarning mazmunidan anglashiladiki, o‘zbek tilini o‘qitishda muomala odobi qoidalari va qolip gaplarni o‘rgatish dastur asosida tartibga solingan. Bu yerda muomala odobi qoidalari nutq etiketi sifatida, qolip gaplar esa iboralar sifatida ta’riflangan. Shunisi e’tiborga loyiqki, o‘zbek tilshunosligida ibora

tushunchasi ko‘pincha frazeologizmlarni anglatadi. Nutq etiketi esa odob-axloq qoidalarini bildiradi.

Darsliklarni tahlil qilish asosida qolip gaplarning o‘rni

O‘qituvchilar darslarni tashkil qilishda, avvalo, **“O‘zbek tili” darsliklariga** tayanadilar. Shu sababli, mazkur darsliklarni mavzu nuqtai nazaridan tahlil qilish lozim bo‘ladi. Tahlilda quyidagi jihatlarga alohida e‘tibor qaratildi:

1. Qolip gaplarning berilishi va ular miqdori.
2. Muomala odobi qoidalarining ifodasi.
3. Dialogik nutqni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashq va topshiriqlar.
4. Qolip gaplarning rus tilidagi tarjimasi yoki izohi borligi.
5. Qolip gaplarni o‘quvchilarning yosh va bilim darajasiga mos ravishda o‘zlashtirish imkoniyati.
6. Muomala odobi qoidalarini mustahkamlash uchun berilgan topshiriqlar.

Qolip gaplarning ahamiyati: Qolip gaplar og‘zaki nutqiy muloqotning muhim qismi bo‘lib, ular dialogik nutqni rivojlantirishning lingvodidaktik asosini tashkil qiladi. Bular shunchaki so‘z birikmalar emas, balki o‘quvchilarning nutqiy muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Darsliklarda qolip gaplarning berilishi o‘quvchilarga ularni tegishli vaziyatlarda ishlatish, to‘g‘ri talaffuz qilish va o‘z nutqiy faoliyatlarida qo‘llash imkoniyatini yaratadi.

Darsliklardan olingan misollar

7. **R.Yo‘ldoshev va A.Saidniyozovalar muallifligidagi 5-sinf uchun “O‘zbek tili” darsligi [27]:** Ushbu darslikdagi **“Yangi yil bayramida”** nomli matnda so‘zlashuv nutqiga yaqin qolip gaplar keltirilgan. Bu sahna ko‘rinishidagi matnda Qorbobo, Qorqiz va boshqa obrazlar o‘rtasidagi so‘zlashuvda 10 ga yaqin faol ishlatiladigan qolip gaplar mavjud. 78-betda *“Прочитайте выразительно, используя в разговоре”* degan topshiriq orqali yana 10 dan ortiq qolip gaplar taqdim etilgan.
8. **6-sinf “O‘zbek tili” darsligi [26]:** Ushbu darslikda muloqotning tashkiliy omillarini ifoda etuvchi qolip gaplar rus tilidagi tarjimasi bilan

(lekin izohsiz) berilgan. Masalan, 77-mashqda berilgan “*O‘qing. O‘z nutqingizda foydalaning*” topshirig‘i orqali o‘quvchilarning nutqiy muloqot ko‘nikmalari rivojlantirilishi ko‘zda tutilgan.

9. **8-sinf “O‘zbek tili” darsligi [69]:** Bu darslikda muloqotning tashkiliy omillari bo‘lgan qolip gaplar deyarli uchramaydi. O‘quvchilar ushbu gaplar bilan faqat badiiy asarlardan keltirilgan parchalar orqali tanishadilar.

Qolip gaplarni darsliklarga kiritish va ularning o‘zlashtirilishi

Istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab o‘zbek tili bo‘yicha 2–11-sinflar uchun yangi darsliklar yaratildi. Bu jarayonda dastlab 1987-, 1990- va 1993-yillardagi o‘quv dasturlari asos qilib olindi. 2000-yilga qadar yaratilgan darsliklarda qolip gaplar soni nisbatan kam edi. Masalan, **2-sinf uchun yaratilgan “O‘zbek tili” darsligida** faqat birgina mashqda qolip gaplarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ular “*Составьте вопросы и ответы по образцу*” topshirig‘i orqali berilgan. Masalan: “*Marhamat*” *Пожалуйста*.

Xullas, darsliklarda qolip gaplarning taqdimoti turlicha bo‘lsa-da, ular o‘quvchilarning dialogik nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq qolip gaplarning mazmuni, izohlanishi va qo‘llanilishiga oid tafsilotlar ba‘zan etarli darajada ochib berilmagan. Shuning uchun o‘zbek tilining nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan qo‘shimcha metodik qo‘llanmalar va darsliklar mazmunini boyitish lozim. Bu o‘quvchilarning og‘zaki va yozma muloqotdagi ishtirokini jonlantirishda va ularning nutqiy faoliyatini ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashtirishda samarali vosita bo‘ladi.

O‘zbek tili darsliklarida qolip gaplarning o‘rganilishi: kengaytirilgan tahlil va metodik talqin

O‘zbek tilining davlat ta’lim standartiga ko‘ra, qolip gaplarni o‘rgatish o‘quv jarayonida asosiy ahamiyatga ega. Bu nafaqat lingvodidaktik material sifatida, balki o‘quvchilarning nutqiy muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim vosita sifatida qaraladi. 1999-yilda tasdiqlangan ***“Umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturi”***da bu borada maxsus talablar ilgari surilgan bo‘lib, u

nutqiy muloqot va muomala odobi qoidalarini o'rgatish zaruratini ochib beradi [18; 262–302-b.].

Dasturda **“o‘zbekcha mulozamat va nutq etiketi bo‘yicha bilimlar berish, davlat tilida ish yuritish hamda bahs-munozara olib borishga o‘rgatish”** nazarda tutilgan (264-b). Ayniqsa, 5-sinf uchun belgilangan talablar diqqatga sazovor. Unda o‘quvchilarga ***“murojaat etish, iltimos qilish, iltimosga javob kabi muomala odobiga oid iboralarni qo‘llay olish”*** zaruriyat i ta’kidlanadi (265-b). Ushbu talablar nafaqat lingvistik bilimlarni oshirish, balki o‘quvchilarning ijtimoiy muloqotdagi faol ishtirokini ta’minlash maqsadid aishlab chiqilgan.

Qolip gaplarning darsliklardagi ifodasi. Darsliklarni tahlil qilish jarayonida qolip gaplarning taqdimoti, ularning nutqiy vaziyatlarga mosligi, o‘quvchilarning yosh va bilim saviyasiga qanchalik mosligi kabi jihatlar o‘rganildi. 72-mashqda berilgan qolip gaplar o‘quvchilarga ularni talaffuz qilish va o‘z nutqlarida ishlatish topshirig‘i bilan berilgan. Ammo ushbu qolip gaplar qaysi nutqiy vaziyatlarda qo‘llanishi haqida batafsil izoh berilmagan. Bu esa o‘quvchilarning qolip gaplarni to‘g‘ri kontekstda ishlatishini qiyinlashtiradi.

Mualliflar R.Yo‘ldoshev va M.Rixsiyevalar tomonidan 4-sinf uchun yaratilgan darslikda qolip gaplarning soni cheklangan bo‘lib, ular o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda yetarlicha xizmat qila olmaydi. Bu darslikda taqdim etilgan qolip gaplar asosan rus tilidagi tarjimai bilan berilgan. Ular turli mashqlarda, jumladan, matnlar tarkibida keltirilgan bo‘lsa-da, o‘quvchilarga bu gaplarning qaysi nutqiy vaziyatlarda ishlatilishini tushuntirish imkoniyati ko‘zda tutilmagan.

Qolip gaplar va o‘quvchilarning yosh xususiyatlari. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, aksariyat qolip gaplar o‘quvchilarning bilim saviyasi va yosh xususiyatlariga mos keladi. Masalan, “rahmat” va “marhamat” kabi qolip gaplar tushuntirishsiz ham o‘zlashtirilishi mumkin. Ammo ***“O‘zimni***

tanishtirishga ruxsat eting” kabi murakkab gaplar o‘quvchilar yoshiga mos emas va ularning so‘zlashuv uslubiga xos emas.

2000-2010-yillardagi darsliklarda qolip gaplar. 2000-2010-yillar oralig‘ida yaratilgan “O‘zbek tili” darsliklarida qolip gaplar va dialogik muloqotni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashq va topshiriqlarning sifati sezilarli darajada o‘zgarib bordi. Ayrim darsliklarda qolip gaplar soni ko‘paygan bo‘lsa, boshqa ba’zi darsliklarda ular soni cheklangan yoki umuman yo‘q darajada bo‘lib chiqdi [24], [25], [29], [32], [52].

3-sinf darsligi (R.Tolipova, M.Ishoqova) [53]: Mazkur darslikda qolip gaplar “Muomala odobi” rukni ostida berilgan. Masalan, o‘qituvchi va o‘quvchi dialogi sifatida *“Tur”, “Javob ber”, “Joyingga o‘tir”* kabi so‘zlashuv replikalari keltirilgan. Bu ruknda *“Marhamat”, “Arzimaydi”, “Rahmat”* kabi 30 dan ortiq qolip gaplar tavsiya qilingan. Ammo ba’zi so‘z va iboralar nazariy jihatdan tushuntirilmagan. Masalan, *“Joyingga” va “Jonim bilan”* iborolari tushuntirishsiz berilgan. Bu esa o‘quvchilar tomonidan noto‘g‘ri talqin qilinishi ehtimolini oshiradi.

5-sinf darsligi (R.Tolipova, H.Yo‘ldosheva) [56]: Bu darslikda qolip gaplar ro‘yxati anchagina kengaytirilgan bo‘lib, “Murojaat qilish”, “Hol-ahvol so‘rash”, “Tanishish”, “Kechirim so‘rash” kabi mavzular ostida taqdim etilgan. Ushbu qolip gaplar rus tiliga tarjimasiz berilgan. Ammo ayrim qolip gaplarning yoshlar muloqot uslubiga mos emasligi kuzatiladi. Masalan, *“Uzr. Aybdorman. Gunohkorman. Aybimga iqrorman”* kabi gaplar bolalar tomonidan so‘zlashuvda ishlatilishi qiyin.

Kichik sinflarda qolip gaplarni o‘rgatish usullari. Qolip gaplarning mustahkamlanishi uchun faqatgina ro‘yxatlarni taqdim etish yetarli emas. Ularni nutqiy vaziyatlar bilan bog‘lash va o‘quvchilarning so‘zlashuv jarayonida faol ishlatishini ta’minlash maqsadida quyidagi usullarni qo‘llash maqsadga muvofiq:

1. **Dialogik mashqlar.** Tayyorlangan qolip gaplar asosida dialoglar tuzish va ular asosida mashqlar ishlab chiqish.

2. **Rolli o‘yinlar.** Har bir qolip gap uchun maxsus nutqiy vaziyatlarni yaratish va rollarga bo‘lib ijro etish.
3. **Rasm asosidagi mashqlar.** Har xil rasm yoki vaziyat asosida qolip gaplarni qo‘llab muloqot yaratish.
4. **Muomala odobini kiritish.** “Muomala odobi” rukni ostida faqat qolip gaplarni emas, balki ularning qaysi vaziyatlarda va qanday ma’noda ishlatilishi haqidagi qo‘shimcha izohlar berilishi zarur.

Qolip gaplarning lingvodidaktik vosita sifatida “O‘zbek tili” darsliklarida taqdim etilishi muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ammo mazkur darsliklarda qolip gaplarni o‘rganish jarayonida ayrim kamchiliklar kuzatiladi. Bu kamchiliklar, xususan, qolip gaplarning yetarlicha izohlanmaganligi, ularni nutqiy vaziyatlarga mos ravishda tushuntirishning yo‘qligi va o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olmagan holda tanlangan iboralar bilan bog‘liqdir.

Darsliklar mazmunini yanada boyitish va qolip gaplarni o‘rganish usullarini takomillashtirish o‘quvchilarning o‘zbek tilida muloqot qilish ko‘nikmalarini samarali shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, qolip gaplarning qo‘llanilishiga oid aniq izohlar va amaliy mashqlar bilan to‘ldirish darsliklarning lingvodidaktik qiymatini oshiradi.

O‘zbek tili darsliklarida qolip gaplarning ko‘rilishi va ularni o‘quvchilarga o‘rgatish masalasi turli yillarda turlicha yondashuvni ko‘rsatadi. Umuman olganda, qolip gaplar o‘quv jarayonida muhim lingvodidaktik birlik sifatida qaralgan bo‘lsa-da, ko‘plab darsliklarda ularni taqdim etish va mustahkamlashning izchil uslubiy yondashuvi yetishmaydi. **Darsliklarda qolip gaplarning aksariyat hollarda so‘zlashuv replikalari bilan aralash berilishi** va ularni tarkiban o‘rganish mumkin bo‘lgan gap turlaridan ajratib ko‘rsatmaslik holatlari kuzatiladi. Bu esa darsliklarning o‘quv jarayonida aniq metodik maqsadga yo‘naltirilmaganligini anglatadi.

Qolip gaplarning tanlanishi va taqdimoti. Ko'p hollarda darsliklarda taqdim etilgan qolip gaplar o'quvchilarning yosh xususiyatlari va bilim saviyasiga mos emasligi kuzatiladi. Ayrim hollarda murakkab tarkibli gaplar va iboralar o'quvchilarga qiyinlik tug'dirishi mumkin bo'lgan shaklda beriladi. **Misol uchun, "Menga ma'qul emas", "Mutlaqo noto'g'ri", "Aslo xafa bo'lmayman" kabi qolip gaplar 5-sinf o'quvchilari uchun murakkabdir.** Bu kabi qolip gaplarni tushuntirish va o'zlashtirish uchun qo'shimcha metodik izohlar va mashqlar tizimi ishlab chiqilmagan.

Maxsus mashqlar tizimining yetishmasligi. Darsliklarda qolip gaplarni mustahkamlash va faollashtirishga qaratilgan maxsus mashqlar deyarli uchramaydi. Ko'pincha qolip gaplar faqat dialogik matnlarda uchrashiga qarab ajratilgan yoki "Muomala odobi" sarlavhasi ostida lug'at shaklida berilgan. Bu esa o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydigan samarali mashqlar tizimini yaratishda kamchilik ekanligini ko'rsatadi.

Masalan, **2010-yildan keyin yaratilgan darsliklarda [30], [31], [32], [49]** qolip gaplarga ko'proq ahamiyat berilgan bo'lsa-da, ularning ko'plab hollarda rus tilidagi tarjimasi yoki zarur izohlar keltirilmagan. O'quvchilarning yoshi va tajribasiga mos kelmaydigan iboralarning kiritilishi ushbu materiallardan foydalanishni qiyinlashtiradi.

"Muomala odobi" sarlavhasi ostidagi qolip gaplar. Ba'zi darsliklarda qolip gaplar "Muomala odobi" sarlavhasi ostida berilgan bo'lib, ular hol-ahvol so'rash, tabriklash, murojaat qilish, istak bildirish, rad javobi berish kabi nutqiy muloqot mazmunini ifoda etadi. Masalan, A.Rafiyev, G.Muhammadjonova, N.Alovuddinovalar muallifligidagi 5-sinf darsligi [44] da bu yo'nalishda muhim qadam tashlangan. Ammo qolip gaplarni o'rgatish va ularni nutqiy vaziyatlarga mos ishlatish uchun maxsus metodik materiallar va mashqlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Masalan, dialoglarni davom ettirish yoki dialog tuzish uchun topshiriqlar keltirilgan bo'lsa-da, ular tizimli ravishda ishlatilishi uchun metodik ko'rsatmalar mavjud emas.

O'quvchilarning mustaqil faoliyatini shakllantirishdagi kamchiliklar.

Ba'zi darsliklarda dialogik muloqotni rivojlantirishga doir mashqlar ko'rsatilgan bo'lsa, darsliklar asosan yodlashga asoslangan. Bunday mashqlar o'quvchilarni mustaqil savol-javob qilishga rag'batlantirmaydi va ularni dialogik nutqni o'zlashtirishda qiyinchilikka duchor qiladi. Qolip gaplar kiritilgan dialoglar faqat eslab qolish va yod olish uchun mo'ljallangan bo'lib, o'quvchilarning ijodkorlik va mustaqillik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilmagan.

Maxsus mashqlarni takomillashtirish takliflari:

1. **Kontekstual asosda o'rgatish.** Qolip gaplarni turli nutqiy vaziyatlar va kontekstlar bilan bog'lab, o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar tizimi ishlab chiqilishi lozim.

2. **Rolli o'yinlar.** O'quvchilarni faol ishtirokga jalb etish uchun qolip gaplarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashga asoslangan rolli o'yinlar tashkil etilishi mumkin. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning muloqotga kirishish qobiliyatini rivojlantiradi.

3. **Qolip gaplarning ma'nosini tushuntirish.** Har bir qolip gap uchun uning qaysi vaziyatlarda ishlatilishi, rus tilidagi tarjimasi va qo'llash qoidalari keltirilishi zarur.

4. **Mashqlar tizimini kengaytirish.** Mustahkamlash uchun kontekstual savol-javoblar, dialog davom ettirish, ko'rsatilgan qolip gaplar asosida yangi dialog tuzish kabi mashqlar tizimini yaratish talab etiladi.

Qolip gaplar va dialogik muloqot materiallarini o'rgatish o'zbek tili darsliklarining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Ammo mavjud darsliklarning aksariyatida qolip gaplarni taqdim etish va ularni faollashtirishga doir maxsus usullar va mashqlar tizimi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Darsliklarni takomillashtirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, bilim saviyasini va hayotiy tajribasini hisobga olish zarur. Shu bilan birga, qolip gaplarni

taqdim etish uslubini, ularni nutqiy vaziyatlarga bog‘lashni va metodik jihatdan to‘g‘ri mashqlarni yaratishni takomillashtirish o‘quvchilarning lingvistik va kommunikativ ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

2013-, 2014- yillardagi 6–8-sinf “O‘zbek tili” darsliklarida [30], [31], [33] o‘quvchilarning dialogik nutqini o‘stirishda foydalanish mumkin bo‘lgan quyidagi mashq turlari berilgan:

1.3-jadval.

2013-, 2014- yillardagi 6–8-sinf “O‘zbek tili” darsliklarida dialogik nutqni o‘stirishga doir berilgan mashq turlari.

Mashq turiga ko‘ra sharti	6-sinf	7-sinf	8-sinf
Rasmni kuzating va berilgan savollar asosida suhbatlashing.	3-, 14-, 15-, 29-, 48-betlar.		
Suhbat matnini o‘qing va uni davom ettiring.	7-, 17-, 12-, 78-, 99-betlar.		
Berilgan tayanch so‘zlar va so‘z birikmalaridan foydalanib, rasm asosida suhbatlashing.	16-, -20-, 31-betlar.		
Berilgan tayanch so‘zlar va so‘z birikmalari yordamida gaplar tuzing va (...haqida) suhbatlashing.	96-bet.	30-, 107-betlar.	52-, 103-, 108-betlar.
Suhbat (matni)ni rollarga bo‘lib o‘qing, ... (o‘tilayotgan til hodisasiga e‘tibor bering).	22-, 26-, 27-bet, 3-top-q, 44-, 60-, 62-, 72-, 93-, 110-, 121-betlar.	12-, 31-, 44-, 49-, 53-, 65-, 76-, 81-, 87-, 97-, 99-betlar.	
Matnni o‘qing va o‘zaro suhbatlashing.	25-bet.		
Rasm(lar) (savollar) asosida (...haqida) suhbatlashing.	10-, 19-, 34-, 70-, 78-betlar.	15-, 24-, 35-, 47-, 58-, 73-, 84-, 101-, 125-betlar.	31-, 89-, 103-, 118-betlar.
Rasm(lar) asosida gaplar tuzib, savollarga javob berib, o‘zaro suhbatlashing.		63-bet.	

Suhbatni (dialogik matnni) (rollarga boʻlib) oʻqing va (berilgan rasm asosida) davom ettiring.	21-b,6-top-q, 22-b,7-top-q, 42-, 67-, 75-, 115-betlar.	5-, 6-, 9-, 11-, 33-, 42-, 69-, 92-, 103-, 105-, 115-, 131-, 134-betlar.	1-, 6-, 19-, 41-, 50-, 52-, 68-, 74-, 79-, 83-betlar.
...matnni oʻqing. Soʻng bir-biringizga savollar berib (savollar tuzib), suhbatni davom ettiring.	16-bet, 27-bet, 2-top-q.		
...matnni oʻqing. Savollar tuzib, oʻzaro suhbatlashing.		50-bet.	
...soʻzlari yordamida (rasm asosida) savollarga javob bering.	50-, 56-, 65-, 68-betlar. (yozma).		
Rasmlarni kuzating (olgan taassurotlaringiz, ...soʻzlari yordamida ... ishlar haqida suhbatlashing.	25-bet, 7-top-q, 91-bet.		
...bunyodkorliklar haqida suhbatlashing	114-bet.		
Suhbat matnidagi (berilgan) javoblarga mos savollar tuzing.	83-b, 111-, 116-, 128-betlar.	56-bet.	
Quyidagi savollarga javob bering (bergan holda) va suhbatlashing (suhbatni davom ettiring).	86-, 109-, 124-betlar.	3-, 12-, 109-betlar.	
Matn mazmuni asosida oʻzaro suhbatlashing.		104-bet.	
Matn mazmuni asosida savollar tuzing.		116-bet.	
Savollarga javob bering.	35-bet, 2-top-q, 92-, 95-, 97-, 104-, 114-, 127-, 133-betlar.	26-, 33-, 41-, 48-, 60-, 65-, 71-, 80-, 101-, 103-, 113-, 118-, 120-, 128-, 130-, 132-betlar.	
Insonning axloq-odobiga oid soʻzlarni bilib oling.		Sifatlar 12 ta, 25-bet.	66-bet.
Matnni oʻqing, muomala odo-biga oid jumalarga eʼtibor bering.		59-bet.	

6-sinf “O‘zbek tili” darsligida o‘quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirish maqsadida bir qator mashqlar kiritilgan. Ushbu mashqlar dialogik kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi elementlarni o‘z ichiga olsa-da, ularning strukturasi va mazmuni ma’lum darajada takomillashtirishni talab qiladi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, **dialogik mashqlar ikki asosiy turga bo‘linadi**. Birinchisi, leksik-grammatik mashqlarni o‘zida mujassam etgan, shaklan dialog shaklida ko‘ringan bilan, aslida, dialog bo‘lmagan mashqlar; ikkinchisi esa dialogik matnlar asosida ishlashga qaratilgan.

1. Leksik-grammatik mashqlar va ularning dialogik xususiyatlari.

Mazkur darslikda keltirilgan birinchi tur mashqlar ko‘pincha dialog shakliga o‘xshab berilgan bo‘lsa-da, ular asosan grammatika va leksikani mustahkamlashga qaratilgan. Masalan, **“Suhbat matni”ni rollarga bo‘lib o‘qing va o‘tilayotgan til hodisasiga e’tibor bering**”, **“Matn mazmuni asosida savollar tuzing”**, **“Savollarga javob bering”**, **“Insonning axloq-odobiga oid so‘zlarni bilib oling”** kabi topshiriqlar dialogik ko‘nikmalarni rivojlantirishdan ko‘ra, o‘quvchilarni grammatika va lug‘at boyligini oshirishga undaydi. Ushbu mashqlar orqali faqatgina matn mazmuni ustida ishlash talab etilib, ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri nutqiy muloqotni rivojlantirishga qaratilganligini ta’minlash mushkul.

Dialog shakliga o‘xshash mazkur mashqlar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishni yetarlicha ta’minlay olmaydi. Masalan, **“Matn mazmuni asosida savollar tuzib, suhbatlashing”** mashqi faqat ma’lumotni qayta ishlab chiqarishga qaratilgan bo‘lib, unda muloqotning tabiiyligini ta’minlashga imkon beruvchi omillar yetishmaydi. Bunday topshiriqlarni bajarayotganda, o‘quvchilar ko‘pincha lug‘atdan foydalanishga majbur bo‘lishadi, bu esa muloqotning sun’iyligini oshiradi va amaliy nutqiy vaziyatdan uzoqlashishga olib keladi.

2. Sun'iy so'zlashuv vaziyatlarining keltirib chiqarilishi. Darslikdagi mashqlar matn asosida dialogik vaziyatlarni shakllantirishni taqozo etadi. Masalan, **“Suhbat matnini o'qing va uni davom ettiring”**, **“Savollar asosida suhbatlashing”** kabi mashqlar nazariy jihatdan dialogni rivojlantirish uchun mos ko'ringan bo'lsa-da, amalda ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli bajara olish uchun o'quvchilarda ma'lum lingvistik bazaning mavjudligi talab qilinadi. Leksik va grammatik qiyinchiliklar yengib o'tilmagan taqdirda, ushbu mashqlar muloqotni sun'iy lashtiradi.

Masalan, boshlanishi berilgan tanishuv matni asosida dialogni davom ettirish uchun o'quvchilarga nimalar haqida so'rash mumkinligi haqida aniq tasavvur berilishi kerak. Agar bu bo'lmasa, o'quvchilar bir-birlariga beradigan savollar yo'qligini aytib, o'qituvchining ko'rsatmalarini kutib qoladilar. Ushbu holat o'quv jarayonining o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lishiga putur yetkazishi va muloqotga bo'lgan ishtiyoqni pasaytirishi mumkin.

3. Muhokama asosidagi dialog mashqlar. Dialogik muloqotni rivojlantirish maqsadida darslikda muhokamaga yo'naltirilgan savollar ham mavjud. Masalan, **“Jasurning xatti-harakatlarini qanday baholaysiz?”** kabi savol dialogni muhokama asosida davom ettirishga undaydi. Ushbu savol o'quvchilarga shaxsiy fikrini bildirish, tabiatni, xususan jonivorlarni himoya qilish haqidagi mustaqil mulohazalarini ifodalash imkonini beradi. Biroq, bunday topshiriqlarni bajarish uchun kerakli so'z boyligi va grammatika qoidalari o'zlashtirilmagan bo'lsa, mashqning samaradorligi sezilarli darajada pasayadi. Shuning uchun bu kabi topshiriqlarni faqat leksik va grammatik qiyinchiliklar yengib o'tilganidan keyingina kiritish maqsadga muvofiqdir.

4. Metodik yondashuvdagi kamchiliklar. Darslikdagi mashqlar o'quvchilarning dialogik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa-da, ularning metodik asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Savollarni tuzish va javob berish bilan bog'liq topshiriqlarni bajarishda o'quvchilarning hayotiy

tajribasi va qiziqishlari yetarlicha hisobga olinmagan. Shu sababli, ushbu mashqlar muloqotga undashdan ko‘ra, ko‘proq xotira va yodlash jarayonlarini talab qiladi.

Fikrimizcha, darslikda dialogik nutqni rivojlantirish uchun quyidagi o‘zgarishlar kiritilishi lozim:

1. **Kontekstual asosdagi mashqlarni ishlab chiqish.** Dialoglarni real vaziyatlar bilan bog‘lab, o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va ularni tabiiy muloqotga undash kerak.

2. **Ijodiy va rolli mashqlarni kengaytirish.** O‘quvchilarga tanish vaziyatlarda dialoglarni mustaqil tuzish imkoniyatini beruvchi rolli o‘yinlar va mashqlar tizimi kiritilishi lozim.

3. **Leksik va grammatik qiyinchiliklarni kamaytirish.** Har bir mashq uchun zarur lingvistik birliklarni oldindan taqdim etish va ulardan foydalanishni mustahkamlashga qaratilgan tayyorlov mashqlarni qo‘shish kerak.

4. **Dialoglarni davom ettirish uchun yo‘nalish berish.** O‘quvchilarni yo‘naltirish uchun mashqlarda savollarni tuzish bo‘yicha qo‘llanmalar va namunalar kiritilishi kerak.

5. **Mashqlar tizimini yaxlitlashtirish.** Dialogik nutqni o‘stirishga qaratilgan mashqlar mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirilib, o‘quvchilarni qadam-baqadam mustaqil muloqotga tayyorlashga yo‘naltirilishi zarur.

Mazkur o‘zgarishlar o‘quvchilarning nafaqat lingvistik bilimlarini, balki muloqot qilish qobiliyatini ham samarali rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, darsliklar o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va hayotiy tajribalariga mos ravishda qayta ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

2017-yili “Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi”¹ e’lon qilindi. Standartda ta’lim bosqichlarini bitiruvchilarda “so‘zlay oladi”, “erkin suhbatlasha oladi” degan talablar qo‘yilgan: “o‘rganilayotgan tilda muloqot malakasini egallash (nutqiy kommunikativ malaka)”.

¹ Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi. O‘zbek tili. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2020. – 76 b.

Ushbu Davlat ta'lim standarti"da "O'zbek tili fani bo'yicha umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari o'quvchilariga qo'yiladigan malaka talablari"da nutqiy muloqot madaniyatiga doir quyidagi talablar belgilangan [13; 149-150-b.];

Suhbat jarayonida murojaat etish shakllarini, muomala odobi (etiket) elementlarini to'g'ri qo'llay oladi va fikrga munosabat bildiradi;

suhbatdoshining gapini bo'lish, suhbatga qo'shilish va unga aniqlik kiritish, nutqini sekinlashtirishga undash vositalaridan foydalana oladi (A 2 daraja).

Muomala odobi va dialogik nutqni shakllantirish: Darsliklarning tahlili

Talablarga muvofiq, muomala odobi (etiket) elementlari, mohiyat e'tibori bilan, muomala odobi qoidalari majmuasini ifodalaydi. **

"O'zbek tilining izohli lug'ati"***da etiket so'zi **"biror jamiyatda, ijtimoiy guruhda yoki shunga o'xshash holatlarda qabul qilingan o'zaro muomala, odob-axloq, marosim tartibi, qoidalari"** deb talqin qilingan [126; 61]. Demak, muomala odobi elementlarini o'rgatish asosan ularning qoidalarini tushuntirish orqali amalga oshirilishi lozim.

4-sinf dasturida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyaga oid talablari sodda va boshlang'ich darajada ifodalangan. Masalan, A1 daraja talabi quyidagicha belgilangan: **"Sodda savollarga javob bera oladi, ma'lumot so'ray oladi"** [13; 33–34]. 9-sinfga kelib, talablar A2 darajada murakkablashadi: **"O'rganilgan mavzularda suhbatlasha oladi, bahslarda ishtirok eta oladi. Suhbat jarayonida murojaat etish shakllarini, muomala odobi (etiket) elementlarini to'g'ri qo'llay oladi, fikrga munosabat bildiradi"**, shuningdek, suhbat davomida **"gapni bo'lish, suhbatga qo'shilish va unga aniqlik kiritish"** kabilarni bajara olish talab qilinadi [13; 66–67-b.].

Darsliklardagi muomala odobi va dialogik nutq topshiriqlari. 2017-yilda X.S.Muxitdinova, Ya.I.Avloqulov, D.A.Nuritdinovalar muallifligida qayta ishlangan **6-sinf "O'zbek tili" darsligida** [35] sharqona milliy muomala odobini o'rgatish maqsadida **"Navro'z" bayrami va milliy taomlarni tayyorlashga oid topshiriqlar** kiritilgan. Ushbu topshiriqlar o'qituvchiga milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar orqali o'quvchilarga muomala odobi qoidalarini eslatish imkoniyatini beradi. Darslikda o'quvchilarning nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar ko'plab uchraydi. Masalan:

- **"Berilgan tayanch so'zlar va so'z birikmalaridan foydalanib savollarga javob berish",**
- **"Rasmga qarab rollarga bo'linib suhbatni davom ettirish",**
- **"Dialog tuzish",** yoki
- **"O'zaro suhbatlashib munosabat bildirish"** kabi mashqlar taqdim etilgan.

Shunga qaramay, bu topshiriqlarning asosiy kamchiligi ularning ko'pincha umumiy mazmunda bo'lishi va izchil muloqot madaniyatini shakllantirish uchun tizimli yondashuvning yetishmasligidadir. Nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirish jarayoni izchil ketma-ketlikni talab qilsa-da, ushbu topshiriqlar mazmuni bunday tizimni yaratish imkonini bermaydi.

2017-yilda nashr etilgan **7-sinf "O'zbek tili" darsligida** [36] milliy urf-odatlar va muomala odobi mavzulariga nisbatan e'tibor kuchaytirilgan. Masalan, **"Salomlashish odobi", "Xushmuomalalik nima?"** kabi matnlar orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga asoslangan xulq-atvorni shakllantirish maqsadi kuzatiladi. Shu bilan birga, darslikda dialogik matnlar asosida ishlashga yo'naltirilgan topshiriqlar soni 6-sinf darsligiga qaraganda oshgan. Biroq, topshiriqlarning aksariyati muayyan mavzu doirasida qolib, fikr yuritish, namunalarni takrorlash yoki mavjud dialoglarni davom ettirish bilan cheklanadi. Mustaqil ravishda yangi dialog yaratish yoki muomala odobi

qoidalarini ijodkorlik bilan o'zlashtirishga qaratilgan topshiriqlar yetarlicha emas.

2019-yilda nashr etilgan **8-sinf “O‘zbek tili” darsligi** [37] nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirish maqsadida yaratilgan matn va topshiriqlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, **“Tilni qanday o‘rganish kerak?”** matni reproduktiv va yarim ijodiy topshiriqlarning ko‘payganini ko‘rsatadi. Darslikda quyidagi turdagi mashqlar berilgan:

- **“Modal so‘zlarning qo‘llanilishiga oid jadval tuzish”,**
- **“Berilgan rasmlar, tayanch so‘zlar yoki savollardan foydalanib fikr yuritish va matn tuzish”,**
- **“Rollarga bo‘linib suhbatlashish”.**

Ushbu topshiriqlar sonining ortganiga qaramay, ularning o‘quvchilarning nutqiy muloqot madaniyati va muomala odobini shakllantirishga ta’siri yetarli emas. Dialoglarni faollashtirish uchun zarur bo‘lgan vaziyatli topshiriqlar ko‘lami kengaytirilmagan.

Dialogik nutq va muomala odobi topshiriqlari: Holati va kamchiliklari. Umuman olganda, 6-, 7- va 8-sinf darsliklarida nutqiy muloqot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan ishlar ko‘lami kengaygan. Biroq bu topshiriqlarning ko‘pchiligi reproduktiv xususiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodkorlik bilan yangi nutqiy vaziyatlar yaratishiga yetarli darajada yordam bera olmaydi. Shuningdek:

- Dialogik nutqni rivojlantirish uchun maxsus tizimlashtirilgan metodik yondashuv yetishmaydi.
- Ko‘plab mashqlar mazmuni faqat namuna asosida takrorlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu o‘quvchilarning mustaqil dialog tuzish ko‘nikmasini rivojlantirish imkoniyatini cheklaydi.
- Muomala odobi qoidalarini tushuntirishga oid maxsus topshiriqlar soni cheklangan bo‘lib, ular ko‘proq namuna asosida o‘zlashtirishga qaratilgan.

Fikrimizcha, quyidagilar bu borada o'rinli bo'ladi:

1. **Vaziyatli topshiriqlarni ko'paytirish.** Dialoglarni hayotiy vaziyatlarga asoslash, o'quvchilarni real muloqotga tayyorlashga imkon beradi.
2. **Ijodiy va mustaqil topshiriqlarni kengaytirish.** Berilgan mavzular bo'yicha o'quvchilarning o'z fikrlarini ifoda etishlariga, yangi dialoglarni mustaqil yaratishlariga imkon beruvchi mashqlar kiritilishi zarur.
3. **Muomala odobi qoidalarini tizimli tushuntirish.** Darsliklarda etiket qoidalarini nazariy jihatdan yoritib, amaliy mashqlar orqali mustahkamlash tizimini ishlab chiqish lozim.
4. **Yosh va tajriba xususiyatlarini hisobga olish.** Har bir topshiriq o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi va lingvistik ehtiyojlariga mos ravishda ishlab chiqilishi kerak.
5. **Lingvistik bazani shakllantirish.** Dialogik mashqlarni bajarishdan avval, o'quvchilarning mavzuga oid so'z boyligi va grammatik bilimlarini oshirishga qaratilgan tayyorlov mashqlari kiritilishi kerak.

Mazkur tavsiyalarni amaliyotga joriy etish o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga, milliy qadriyatlar asosida muomala odobini shakllantirishga va ularni muvaffaqiyatli ijtimoiy muloqotga tayyorlashga xizmat qiladi.

2017-, 2018-, 2019-yillardagi "O'zbek tili" darsliklarida [35], [36], [37] o'quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirish uchun qo'llash mumkin bo'lgan quyidagi mashq turlari berilgan:

1.4-jadval.

2017-, 2018-, 2019-yillardagi 6–8-sinf "O'zbek tili" darsliklarida berilgan dialogik nutqni o'stirishga doir mashq turlari

Mashq turiga ko'ra sharti	6-sinf	7-sinf	8-sinf
Berilgan savollar asosida (rasmdan foydalanib) shu	56-bet, 1-top-q, 59-	5-bet, 3-top-q, 9-bet, 1-top-q,	70-bet, 3-top-q, 81-bet, 3-

mavzuda o‘zaro suhbatlashing, berilgan javoblarga mos savollar qo‘ying va o‘zaro suhbatlashing.	bet, 67-bet, 2-top-q, 3-top-q, 78-bet 3-top-q, 116-bet, 3-top-q, 126-bet, 7-top-q, 130-bet, 1-top-q, 133-bet, 3-mashq.	17-bet, 5-top-q, 23-bet, 2-top-q, 110-bet, 1-top-q, 115-bet, 5-top-q, 117-bet, 1-top-q.	top-q, 6-bet, 5-top-q, 16-bet 2 top-q. 63-bet, 3-top-q, 106-bet, 4-top-q.
Suhbatni (dialogni, she’rni, matnni) o‘qing va rasmlar asosida, qo‘shimcha ma’lumotlar bilan suhbatni davom ettiring, gapirib bering (tabiat manzarasini tasvirlab bering).	17-, 39-bet, 1-top-q, 78-, 79-bet, 1-top-q, 99-betlar, 112-bet, 1-top-q.	12-bet, 4-top-q, 39-bet, 1-top-q, 55-bet, 1-top-q, 58-bet, 9-mashq, 65-bet, 1-top-q, 72-bet, 2-top-q, 106-bet, 5-top-q.	49-bet, 2-top-q, 110-bet 1-top-q, 103-bet, 2-top-q.
Berilgan tayanch so‘zlar va so‘z birikmalaridan foydalanib, rasm asosida suhbatlashing, savollarga javob bering, javoblarda raqamlardan foydalaning.	31-bet, 44-bet, 1-top-q, 48-bet, 3-top-q, 64-bet, 1-top-q, 72-bet 4-top-q, 86-bet.	3-bet, 1-top-q, 37-bet, 6-mashq, 41-bet, 4-top-q, 119-bet, 1-top-q.	3-bet, 1-top-q, 15-bet 1-top-q, 62-bet, 1-top-q, 91-bet.
Berilgan tayanch so‘zlar va so‘z birikmalari yordamida gaplar tuzing va ketma-ketlikda joylashtiring, suhbatlashing, birinchi ustozingizni ta’riflab bering.	50-bet, 1-top-q, 121-bet, 1-top-q.	4-bet, 2-mashq, 5-bet, 4-mashq, 14-bet, 1-top-q, 93-bet, 1-top-q, 102-bet, 1-top-q.	68-bet, 1-top-q, 128-bet 1-top-q, 75-bet, 6-top-q.

Suhbat (matni, she'ri)ni rollarga bo'lib o'qing, (sodda) so'zlarning qo'llanishiga e'tibor berib, shular haqida suhbatlashing.	26-bet, 7-top-q, 33-bet, 5-top-q, 35-bet, 1-top-q, 43-bet, 5-top-q, 48-bet, 4-top-q, 57-bet, 3-top-q, 62-bet, 69-bet, 4-top-q, 5-top-q, 76-bet, 3-top-q, 122-bet, 4-top-q, 132-bet, 7-top-q.	4-bet, 3-top-q, 24-bet, 3-top-q, 43-bet, 4-top-q, 81-bet, 5-top-q, 127-bet, 3-top-q.	5-bet, 4-top-q, 70-bet, 4-top-q.
Matn mazmuni asosida partadoshingiz (sinfdoshingiz) bilan dialog (jadval) tuzing va o'zaro suhbatlashing.		87-bet, 6-top-q, 126-bet, 2-top-q.	53-bet, 4-top-q.
Rasm(lar)ni diqqat bilan kuzating, dialogik matnni o'qing va suhbatni davom ettiring, (til, Navro'z bayrami, taassurotlari, haykallar haqida) o'zaro suhbatlashing, hikoya tuzing.	75-bet 2-top-q, 115-bet 3-top-q, 58-bet 5-top-q.	22-bet, 1-top-q, 53-bet, 1-top-q, 71-bet, 1-top-q, 83-bet, 1-top-q.	51-bet 3-top-q, 36-bet, 1-top-q, 55-bet, 1-top-q, 78-bet, 5-top-q, 92-bet, 1-top-q, 98-bet, 1-top-q, 110-bet, 1-top-q, 117-bet, 1-top-q.
Suhbatni (dialogik matnni) (rollarga, guruhlariga bo'lib) o'qing va (berilgan rasm, O'zbekiston xaritasi asosida) sinfdoshlaringiz bilan suhbatni davom ettiring, suratlarni tasvirlab berib, matn(gap) tuzing.	42-bet, 3-top-q, 82-bet, 4-top-q, 88-bet, 3-top-q, 92-bet, 6-top-q, 95-bet, 1-top-q, 98-bet, 2-top-q, 109-bet, 2-top-q.	25-bet, 5-top-q, 30-bet, 1-top-q, 60-bet, 1-top-q, 69-bet, 3-top-q, 78-bet, 3-top-q, 96-bet, 3-top-q, 112-bet, 4-top-q, 125-bet, 1-top-q.	10-bet, 3-top-q, 59-bet, 5-top-q, 37-bet, 2-top-q, 48-bet, 1-top-q, 52-bet, 4-top-q, 75-bet, 1-top-q, 88-bet, 5-top-q, 90-bet, 7-top-q, 95-bet, 4-top-q, 103-bet, 1-top-q.

...matnni (rollarga bo‘lib) o‘qing. So‘ng bir-biringizga savollar berib (savollar tuzib,) suhbatni davom ettiring, munosabat bildiring.	41-bet, 4-top-q, 68-bet, 3-top-q.	32-bet, 1-top-q, 34-bet, 3-top-q, 56-bet, 4-top-q, 57-bet, 4-top-q, 85-bet, 2-top-q, 86-bet, 4-top-q, 87-bet, 7-top-q, 99-bet, 1-top-q.	57-bet, 1-top-q, 59-bet, 6-top-q, 29-bet, 1-top-q, 33-bet, 5-top-q, 72-bet, 6-top-q, 80-bet, 8-top-q, 83-bet, 1-top-q, 101-bet, 5-top-q, 107-bet, 7-top-q, 114-bet, 5-top-q, 119-bet, 3-top-q.
Berilgan dialoglarni (rollarga bo‘lib) o‘qing, suhbat davomida ishlatiladigan muomala odobiga oid so‘zlar (odob-axloqqa oid qoidalar mazmunini) va hishayajonni ifodalovchi vositalarni ko‘rsating(tushuntiring).		9-bet, 3-top-q, 87-bet, 5-top-q.	26-bet, 7-top-q, 32-bet, 4-top-q, 76-bet, 3-top-q.
Ikki vaziyatni bajaring: 1) ko‘chada bolalar daraxt shoxlarini sindirib, gullarni uzib, bir-biriga otib ketishyapti? Siz qanday yo‘l tutasiz, 2) ularga daraxtlar sindirib, gullarni uzish mumkin emasligini qanday tushuntirasiz?	46-bet, 1-top-q.		58-bet 5-top-q.

Ko‘rinadiki, bu darsliklarda rollarni ijro etish, dialogik matndagi gaplarni faollashtirish, nutqiy vaziyatlar bilan bog‘liq mashqlar oldingi darsliklardagidan ancha ko‘paygan.

Darsliklardagi o‘quvchilarning o‘zbekcha dialogik nutqini o‘stirishga qaratilgan materiallarni o‘rganish va tahlil qilish asosida bu materiallarning quyidagilardan iborat ekanligi ma’lum bo‘ldi:

- 1) mashq turlari, ularning dialogik nutq o‘stirish uchun ahamiyati;
- a) dialogik matnlarning o‘ziga xosligi;

b) berilgan dialogik matnlarning namuna asosida o‘zaro so‘zlashishni tashkil etish imkoniyatlari;

v) erkin muloqot sari yo‘naltirilgan nutqiy vaziyatli mashqlar;

2) muloqotning tashqi omillarini ifoda etuvchi qolip gaplar, qolip so‘z-gaplar, shablon so‘z va iboralarning berilish tartibi, izchilligi, ularni o‘rgatishga doir mashq turlari;

3) qolip gaplar, qolip so‘z-gaplar, shablon so‘z va iboralar tematikasi;

4) muomala odobiga doir izoh va ma‘lumotlar ko‘lami;

5) dialogda asl (asosiy, fikr almashuv, informativ) muloqot bilan bog‘liq replikalarni o‘rgatish usullari;

6) dialogik nutqni o‘stirishga doir mashqlarning o‘quvchilardagi mustaqil ravishda gap tuzish ko‘nikma va malakalariga asoslanish darajasi.

2020-yili¹ “Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi. O‘zbek tili” e’lon qilindi. Dasturdagi “O‘zbek tili bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim maktablari bitiruvchilariga qo‘yiladigan talablar” qismida [14; 17-24]. nutqiy muloqot madaniyatiga oid talablar quyidagilar:

Muomala odobiga oid qolip gaplarni qo‘llab, mavzu doirasidagi suhbatlarga qo‘shiladi;

tanish mavzularda (masalan: maktab, musiqa, kino, sport, televideniye, moda, tashqi ko‘rinish va hokazo) o‘z nuqtai nazarini bildiradi va bironing nuqtai nazarini so‘raydi (16-b).

Sinflar dasturi qismida har bir sinf yuzasidan quyidagi malakalar belgilangan:

o‘rganilgan mavzu doirasida 2-3 luqma bilan, kerakli o‘rinlarda qolip gaplardan foydalanib (dialogik nutq shaklida) o‘zaro fikr almashadi;

3-4 replikali dialogik matnlarni mustaqil yozadi.

Milliy dasturda dialogik nutqqa xos malakalar kengroq bayon qilingan. Bu yerda *qolip gap*, *luqma*, *replika* tushunchalaridan foydalanilgan.

² Балабайко М.С. Nomi ko‘rsatilgan maqola, 28-b.

2-sinf darsligida assalom alaykum, voalaykum assalom, marhamat, rahmat soʻzlari qoʻllangan.

3-sinf darsligida salom berish shakllari: **assalom alaykum, xayrli tong, xayrli kun, xayrli tun, xayrli kech, yoqimli ishtaha** soʻzlari qoʻllangan. Mashq materiallarida mustaqil ishlash uchun berilgan topshiriqda salomlashishdagi soʻz shakllarini 3 xil tilda: oʻzbek, rus va ingliz tillarida ifodalash soʻralgan.

D.Xidoyatova, I.Bakirova, F.Raxmatova, N.Rasulov, N.Yuldashevalar muallifligida 2021-yilda nashr etilgan 2-sinf uchun Oʻzbek tili darsligida [68] salomlashish, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish mazmunidagi qolip gaplar sirasida oʻquvchilar bilim saviyasiga mos kelmaydiganlari ham (**“Salom, yaxshimisiz?”, “Xayr koʻrishguncha”, “Xaridingiz uchun rahmat!”**) berilgan. Darslikda ayrim muloqot vaziyatlari rasmlar asosida keltirilgan. Lekin foydalanilgan qolip gaplar juda oz. Darslik oxirida 3 tilda: oʻzbek, rus va ingliz tilida lugʻat berilgani oʻquvchiga soʻzlarni tarjima asosida tushunishni osonlashtirgan.

D.Xidoyatova, I.Bakirova, F.Raxmatova, N.Rasulovlar muallifligidagi 2021- yilda nashr qilingan 3-sinf uchun “Oʻzbek tili” darsligida [69] matnlarda salomlashish, xayrlashish, tilak tilashga doir qolip gaplar (**“Xayrli tong”, “Xayrli kun”, “Xayrli kech”, “Xayrli tun”, “Yoqimli ishtaha”** kabi) qoʻllangan. Muomala odobi qoidolari sifatida **“Yuvinmasdan salom berdi”** kabi gaplar keltirilgan. Lekin ular koʻp emas. Darslikda mustaqil ish sifatida salomlashish, xayrlashish, tilak tilashga oid **“Xayrli kech”, “Xayrli tun”** kabi qolip gaplarni 3 tilda yozish talab etilgan shart bilan topshiriq berilgan.

Shunga qaramay, qolip gaplar, muomala odobi qoidalari etarli emas.

D.Xidoyatova, M.Tulasheva, N.Rasulov, N.Matlatipova va boshq. muallifligida 2022-yil nashr qilingan 7-sinf uchun “Oʻzbek tili” [Matn]

darslikdagi matn va topshiriqlarda *“Assalom alaykum”, “Xush ko‘rdik”, “Xush ko‘rdik”, “Xush kelibsiz” “Ismingiz nima?”, “Salom”* kabi qolip gaplar qo‘llangan. 119-betdagi *“Mehmondo‘stlik”* haqidagi matnda *“Mezbonlik qilganda nimalarga e‘tibor*

berish kerak?”, *“Qanday mehmondorchilik odoblarini bilasiz?”* kabi savollar o‘quvchiga mehmon kutishdagi sharqona axloq-odob qoidalarini haqida mulohaza yuritishga undaydi. Lekin darslikdagi topshiriqlardan oldin keltirilgan yangi so‘zlar lug‘atlari tarjimasiz berilgan. Rasmda tasvirgan nutqiy vaziyatlar yoki dialoglar asosidagi topshiriqlar avvalgi darsliklardagidan ko‘proq, lekin ularda qolip gaplarni qo‘llash so‘ralmagan.

O‘quvchilarning biror mavzuda o‘zaro so‘zlashish uchun yetarli so‘z boyligi oshirilib, ularda shu mavzuda faol ishlatiladigan grammatik vositalar ishtirokida mustaqil ravishda gap tuzish ko‘nikma va malakalari hosil qilina boshlagach, qolip gaplar bilan tanishtirilib, ma‘lum darajada mustahkamlangach, dialogik nutq o‘stirish mashqlari mazmunan boyiydi. Bunda dastavval amaldagi *“O‘zbek tili”* darsliklaridan ushbu vazifalarni ro‘yobga chiqarish uchun quyidagilarni aniqlab olish zarur:

- 1) shu mavzuda muloqotni amalga oshirishda tayanish mumkin bo‘lgan nazariy bilimlar beradigan imkoniyatlar;
- 2) berilgan dialogik matn o‘xshash vaziyatlarda replikalarini o‘zgartirib so‘zlashish uchun namuna bo‘la olish-olmasligi;
- 3) o‘qituvchilarning innovatsion faoliyati.

Ma‘lumki, o‘quvchilarning dialogik nutqini o‘stirish uchun xizmat qiladigan nazariy bilimlarga doir mashq turlari darslikda bir-ikki martagina uchraganda, u yoki bu mashq turi orqali egallanmoqchi bo‘lgan nutqiy harakat usuli o‘zlashmaydi, kutilgan nutqiy ko‘nikmalar hosil bo‘lmaydi. Masalan, *“javoblard a sifatlarni ishlatish”, “savollarning har biriga uchtdan so‘z bilan javob berish”, “o‘z dialogini tuzish, bir-biri bilan telefonda biror narsa haqida gaplashish”, “Siz uzoq vaqt ko‘rmagan odamni uchratsangiz, qanday so‘rash*

asiz va hol-ahvol so‘raysiz?” topshiriqli nutqiy vaziyat, ko‘rsatilgan gap shaklini hosil qilish (qolip gap, shablon so‘z ishtirokida), “rasm asosida unda tasvirlangan narsa-buyumlar, kasb egalari haqida bahslashish, narsa-buyumlar, kasb egalari, ularning faoliyatiga baho berish”, “nima uchun u yoki bu so‘zlar (obbo, ehe kabi) qo‘llanganini izohlash”, “do‘stiga ba’zi shartlarni qo‘yish va suhbatlashish, bu suhbatni dialog tarzida yozish”.

Ushbu mashq turlari orasida o‘quvchilarning erkin dialogik shaklda so‘zlashtirishni tashkil etishda ahamiyati katta bo‘lganlari ham bor. Masalan, o‘z dialogini tuzish, bir-biri bilan telefonda biror narsa haqida gaplashish, rasm asosida unda tasvirlangan narsa-buyumlar, kasb egalari haqida bahslashish.

Mashq turlari tegishli nutqiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish uchun beradigan imkoniyatlari nuqtai nazaridan tahlil qilinsa, mavjud manzara yana ham ravshanlashadi. Bu imkoniyatlar mashq turlarining uzluksiz ta‘lim tamoyiliga amal qilinmay berilishida, takroriylikning har xilligida namoyon bo‘ladi.

Chunonchi: 1) bor-yo‘g‘i bir-

ikki marta uchraydigan mashq turlari; 2) ko‘p uchraydigan mashq turlari.

Bir darslik doirasida bajariladigan mashq turlari o‘quvchilarning ushbu mashq turlariga odatlanishi borasida hosil qilgan ko‘nikmalari keyingi sinflarda davom etmasligi tufayli ish bermay qo‘yadi. Bunday mashqlar quyidagilardan iborat: “Oshxonada” (va boshqalar) matni asosida dialogni qayta yuzaga keltirish, mashq shartida foydalanish uchun berilgan so‘zlarni ishlatish [55]; berilgan qolip gaplar, shablon so‘z va iboralarni ifodali o‘qish va o‘z nutqida ulardan o‘rinli foydalanish [55]; berilgan so‘zlar (so‘roq so‘zlar, fe‘llar va b.) asosida savollar tuzib o‘zaro so‘zlashish [56]; savollarga javob topib, matnni to‘ldirish [52]; sotuvchining (o‘qituvchining) savollariga xaridor (o‘quvchi) nimalar degani topib, suhbat matnini to‘ldirish [53]; suhbatni e‘tiroz ma‘nosidagi gaplar bilan to‘ldirish [54]; “Oziq-ovqat do‘konida” mavzusida suhbatlashish [54]; “Murojaat qilish”, “Hol-ahvol so‘rash”, “Tanishish” va b. [56]; berilgan

soʻzlardan foydalanib matnni toʻldirish [57]; matn asosida savollarga javob berish [53].

Uzluksiz taʼlim tamoyili mashq turlarining bir-ikki darslikdagina emas, balki barcha darsliklarda izchil berilishini taqozo etadi. Baʼzi mashqlar bir darslikdagina uchrasa, baʼzilari ikki, uch yoki toʻrt darslikda murakkablashtirilib keltiriladi.

Ikki darslik doirasida berilgan mashq turlari quyidagilardir: rasm asosida savollar tuzib, oʻzaro soʻzlashish (suhbatlashish, bir-biriga savol berib, javob qaytarish) [55; [56], berilgan soʻzning shaklini oʻzgartirgan holda unga soʻroq berib savol tuzish va oʻzaro soʻzlashish [56], (qolip gaplar, qolip-soʻz-gaplarni) oʻqish, (oʻqituvchiga taqlidan talaffuz qilish), oʻz nutqida foydalanish [54]; [53], savollarga javob berish [32], [30].

Uch va undan ortiq darslik doirasida berilgan mashq turlari quyidagilardan iborat: “dialogik matnni (suhbat matnini) rollarga boʻlib (ifodali) oʻqish” [52]; [55]; [56]; “Oziq-ovqat doʻkonida” (“Bozorda” va b.) matni asosida suhbat” [31]; [32];[57]; “namuna asosida savol-javoblar tuzish (va oʻzaro soʻzlashish)” [58]; [59]; [60]; [65]; “tasdiq gaplar tuzish va ularga eʼtiroz bildirish (inkor maʼnosini bildiruvchi soʻzlar bilan javob berish; suhbatni eʼtiroz maʼnosidagi gaplar bilan toʻldirish” [55]; [56];[57]; “berilgan savollarning javobini topish” [41]; [43]; [44]; “javoblarga qarab qanday savollar berilganligini topish” [45]; [46]; [47]; savollarga qanday javoblar boʻlishi mumkin?” [45]; [46]; [47]; “Muomala (odobi)” (“Sovgʻa berish odobi”) [45]; [48; 49]; “dialogik matnni (suhbat matnini) rollarga boʻlib (ifodali) oʻqish” [47]; [46]; [48].

Darsliklarda foydalanilgan mashq turlari sirasida namuna asosida savol-javoblar tuzib, oʻzaro soʻzlashish (matn asosida dialogni qayta yuzaga keltirish), berilgan mavzuda oʻzaro suhbatlashish, rasm asosida bir-biriga savollar berib, oʻzaro suhbatlashish talab etiladigan mashqlarni imkon qadar barcha sinf oʻquv qoʻllanmalariga kiritish, ularni koʻpaytirish maqsadga muvofiq.

Bir avlod darsliklarida asosiy mavqeda bo'lgan mashq turlarining keyingi avlod darsliklarida uchramasligi esa dialogni mashq qilishning tajribada o'ttirilgan usulidan ta'lim oluvchilarning voqif bo'lmasligiga olib keladi. Masalan, 2000-yilga qadar yaratilgan 2-, 4-, 5-, 6-, 8-sinf "O'zbek tili" darsliklarida dialogik nutq o'stirishning asosiy samarali mashq turlari (matn asosida dialogni qayta yuzaga keltirish [21], berilgan so'roq so'zlar, fe'llar va boshqalar asosida savollar tuzib, o'zaro so'zlashish [24]; namuna asosida o'z dialogini tuzish [25] kabi 2010-yilga qadar va undan keyin yaratilgan darsliklarga kirmagan.

Ma'lum mashq turining bir sinfdagina emas, balki bir necha sinfda (hatto barcha sinflarda) berib borilishi kerakligi bir sinfda egallangan ko'nikmalardan navbatdagi sinflarda ham foydalanish, yangilari bilan boyitish imkonini beradi, navbatdagi bosqichda murakkabroq muloqot shakllariga oson o'tish uchun zamin yaratadi, uzluksizlik esa ta'lim samaradorligini ta'minlaydi.

O'quvchi biror mavzuda dialogik matn tuzish yoki o'zaro so'zlashish uchun shu mavzuda nima haqda so'rash, xabar berish, fikr almashish mumkinligi haqida bilishi kerak. Masalan, "Taksida" mavzusida aytiladigan gaplar chegarasi hammaga ma'lum:

–Taksi bo'shmi?

–Vokzalga bormoqchiman va hokazo.

Mashq nutqiy harakat usulini yoki til amalini bajarish yo'sinini egallash uchun xizmat qiladi. Masalan, R.Yo'ldoshev o'quvchilarda kelishik shaklidagi so'zni o'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilishga doir bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish uchun quyidagi til amallarini bajartirish zarurligini ilmiy va amaliy asoslagan : qo'shimchasi ajratib ko'rsatilgan so'z shakli → shu qo'shimchali so'roq so'z → o'zbekcha so'roq so'zning ruscha tarjimasi → ruscha so'roqqa javob beradigan tarjima-so'z shakli (ustozga → kimga? → komu? →

nastavniku). Bu usul nutqni tinglab tushunish, matnni o'qib anglashning asosiy vositasi sanalsa, aks

tarjima o'zbek tilida to'g'ri va erkin so'zlashning mustahkam poydevori sanaladi.

Metodik adabiyotlarda mashqlarni idrok etish va nutqiy ko'nikmalarni hosil qilish nuqtai nazaridan uch turga (retseptiv, reproduktiv va mahsuldor) ajratish odat tusiga kirgan. Retseptiv mashqlar retsepsiya (passiv, ya'ni og'zaki nutq ishtirokisiz idrok etish) jarayonini ifoda etadi. Reproduksiyada o'quvchi til hodisasini ovoz chiqarib o'qiydi, yoddan aytadi, ya'ni o'qib turib, yozuvga qarab olib yoki yodga keltirib takrorlaydi, lekin bu narsa uning o'z so'zi (nutqi) sanalmaydi. Produktiv (mahsuldor) mashq turlari yoshlarning o'z nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Yuqorida ko'rsatilgan mashq turlarini endi ana shu nuqtai nazardan bo'lib chiqamiz.

O'qish yoki nutqni tinglash bilan kifoyalaniladigan mashqlar retseptiv mashq turlariga kiradi. Masalan, sahna asari qahramonlari ishlatgan qolip gaplar ga e'tibor berish retseptiv faoliyatni taqozo qiladi. Bir qator mashqlar o'qilgan matn asosida bajariladigan bo'lsa, shu matnga tayanib javoblar o'rni bo'sh qoldirilgan matnni savollarga javob topish yoki javoblarga qarab savollarni topish yo'li bilan to'ldirish so'ralgan mashqlar ma'lum darajada retsepsiyaga asoslanadi. Ushbu mashqlar og'zaki mashq sifatida bajarilsa, ular retseptiv-qisman reproduktiv hisoblanadi. Reprodaktiv mashq turlari dialogni qayta yuzag a keltirish tavsifida bo'ladi. "Suhbat" matni asosida o'zaro so'zlashish ham reproduktiv faoliyat bilan bog'lanadi. Savollarga matndan foydalanib, lekin uni o'qimay javob qaytarish ham reproduksiya sanaladi.

Shu o'rinda darsliklardagi o'quvchilarga o'zbek tilida o'zaro muloqot qilishni o'rgatish uchun mo'ljallangan "Suhbat" matnlari bilan dialogik matnlar ning (dialoglarning) matniy ma'nodoshlar sifatida ishlatilganiga e'tiborni qaratm oqchimiz. Nazarimizda, birinchisi orqali nazarda tutilgan suhbat boshqa, ikkinch isida ifoda topgan dialog boshqa. "Suhbat" matnida ohang jihatdan neytrallik ustun turadi. Til materialini o'zlashtirishga qaratilganligi aniq bo'lib turadigan suhbatlar ba'zan o'qituvchining o'quvchilar bilan o'tkazadigan frontal suhbatl

shaklida ham bo'ladi. Bunday "so'zlashuv"ni dialog deb atash qiyin. Chunki bunda o'qituvchi savol beradi, o'quvchilar javob qaytaradilar. O'qituvchi yoshlardan o'zaro savol-javob qilishni talab etganda ham, ushbu jarayonda bolalar bir-birlari bilan muloqotda bo'lmaydilar, ularning bir-birlariga savol berishlari va javob qaytarishlari o'qituvchining aralashuvi hamda qat'iy nazorati ostida o'tadi. Bir necha o'quvchining o'zaro erkin so'zlashuvi boshqa gap. Bunday so'zlashuv savol-javob bilan chegaralanib qolmasligi aniq. Shu jihati bilan ayni shu usul, ya'ni o'quvchilarning o'zaro so'zlashuvi quruq frontal suhbatdan afzal sanaladi. Zero, o'quvchilarning o'zaro muloqoti orqaligi na dialogik nutqni to'laqonli muloqot darajasiga yetkazib tashkil etish imkoniyati tug'iladi.

Dialogda vaziyatga qarab shodlanish, hayajon, taajjub singari intonatsion (ohangdor) rang-

baranglik mavjud bo'ladi. Shunga ko'ra "Suhbat" ni o'quv matni deb hisoblash to'g'ri bo'ladi. Bunday matnlar leksik va grammatik materiallar ustida ishlash uchun qulay bo'lsa, ikkinchi xili (dialoglar) til o'rganuvchilarni real muloqot vaziyatiga tayyorlash vazifasini ado etish uchun mos sanaladi. Aytmoqchimizki, ***muomala odobi qoidalari bilan yo'g'rilgan mashqlar uchun mos materiallar sifatida dialoglar tanlanmog'i zarur.*** Shuni ham eslatish joizki, badiiy asarlar dan olingan dialogli parchalar asar qahramonlarining gapirish ohangi, xarakter xususiyatlari hisobiga ohang boyligiga ega matnlar sirasiga kiradi.

Mahsuldor mashq turlari o'quvchilarning mustaqil ravishda gap tuzish, nutqida qolip gaplar, shablon-so'z va iboralarni ishlatishlarini talab etadi. Bunday mashqlar sirasiga quyidagilar kiradi: rasm asosida savollar tuzib, o'zaro so'zlashish, so'roq so'zlar, fe'llar va boshqalar asosida savollar tuzib o'zaro so'zlashish, namuna asosida savol-javoblar tuzish (shu asosda o'zaro o'zlashish), so'zning shaklini o'zgartirgan holda unga so'roq berib savol tuzish va o'zaro so'zlashish, o'z dialogini tuzish, bir-biri bilan telefonda biror narsa haqida gaplashish, uzoq vaqt ko'rmagan odamini uchratganda, qanday so'rashis

hini aytish, nima deb hol-ahvol so‘rashini aytish, rasm asosida unda asvirlangan narsa-buyumlar, kasb egalari haqida bahslashish, narsa-buyumlar, kasb egalariga, ularning faoliyatiga baho berish, do‘stiga ba’zi shartlarni qo‘yib suhbatlashish, suhbatni dialog tarzida yozish.

Mahsuldor mashqlarning asosiy qismi 2000-yilgacha iste’molda bo‘lgan darsliklarda uchraydi, undan keyingi yillardagi darsliklarda bunday mashq turlari sanoqli. Mahsuldor mashq turlarining ozligi dialogik nutq o‘stirish ishlarini kutilgan samarani beruvchi yakuniy bosqic hlarga olib chiqish qiyinchiligini yuzaga keltiradi, ko‘pincha ta’limiy tadbirlar shungacha etib bormasligiga sabab bo‘ladi. Bunday vaziyatning oldini olish uchun amaldagi barcha sinflar darsliklarida ularga ko‘proq e’tibor qaratish, turlarini ko‘paytirish, rolli o‘yin bilan bog‘liq mashq turlarini joriy etish zaruriyat sanaladi.

Til materialining aynan xotirada saqlanishi, ayrim o‘zgartirishlar kiritilishi, yangidan yaratilishi nuqtai nazaridan mashqlar bir-biridan o‘zaro farqlanadi. Cunonchi: o‘zgarishsiz bajariladigan mashqlar, yarim ijodiy mashqlar, ijodiy mashqlar.

O‘zgarishsiz bajariladigan (mexanik) mashqlar retseptiv yoki reproduktiv bo‘lishidan qat’i nazar, to‘lig‘icha bog‘lanishli matn va suhbatlar asosida bajariladi, ulardan chetga chiqilmaydi, gap tuzilishlari aynan saqlanadi. Masalan, deyarli barcha darsliklarda ko‘p uchraydigan quyidagi topshiriqlarni o‘zgarishsiz bajariladi: berilgan savollarning javobini topish, javoblarga qarab qanday savollar berilganligini topish, javoblarga qarab savollar tuzish, qolip gaplarni eslab aytish va b.

Darsliklardagi **yarim ijodiy mashqlar** savollar yoki javoblarga qisman tuzatishlar kiritish, ularni ijodiy savollar yoki ijodiy javoblarga yaqinlashtirishni ko‘zda tutadi. Masalan, quyidagi kabi topshiriqlar shu tarzda bajariladi: namunalar asosida savol-

javoblar tuzish (va o‘zaro so‘zlashish), berilgan so‘zlarning shaklini o‘zgartirga

n holda unga so‘roq berib savol tuzish va o‘zaro so‘zlashish, namunadan foydal
anib o‘z dialogini tuzish, savollarning har biriga uchtdan so‘z bilan javob
berish, savollarga inkor ma’nosini bildiruvchi so‘zlar bilan javob berish va b.

Darsliklardagi **ijodiy mashqlar** o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi muloqotga
to‘liq mustaqillik asosida kirishishlarini ifoda etadi. Bunday mashqlar sirasiga
quyidagilar kiradi: rasm asosida savollar tuzib, o‘zaro so‘zlashish (suhbatlashish
, bir-biriga savol berib, javob qaytarish), bir-biri bilan telefonda biror narsa
haqida gaplashish, rasm asosida unda tasvirlangan narsa-buyumlar, kasb egalari
haqida bahslashish, narsa-buyumlar, kasb egalariga, ularning faoliyatiga baho
berish, do‘stiga ba’zi shartlarni qo‘yib suhbatlashish, uni dialog tarzida yozish.

Umuman, darsliklarda o‘tilayotgan mavzular bo‘yicha nutqiy muloqot mad
aniyatiga doir ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan quyidagi mashq turlarini
ajratish mumkin:

1. Dialog namunasini o‘zlashtirishga qaratilgan mashqlar.
2. Dialog namunasini to‘ldirish orqali ayrim replikalarni o‘zlashtirishga
qaratilgan mashqlar.
3. Boshlanishi berilgan dialogni davom ettirish talab etiladigan mashqlar.
4. Nutqiy vaziyat asosida dialog tuzishga oid mashqlar.
5. Rasmlar asosida dialog tuzishga doir mashqlar.

4-mashq turi o‘rganilayotgan replikalarni nutqiy vaziyatlar bilan bog‘lash,
nutqiy vaziyatga tayanib, ularni yodga keltirish ko‘nikmalarini rivojlantirishda
muhim rol o‘ynaydi. Chunki nutqiy vaziyatlar namunadan foydalanmagan
holda dialog tuzish uchun o‘quvchiga turtki beradi.

Nutqiy vaziyatlar qaysi tilda ifodalanishiga qarab oson yoki qiyin anglanad
i. Agar ular rus tilida ta’riflansa, o‘quvchilardan o‘zbekcha replikalarni mustaqil
ravishda tuzish, yodga keltirish kabi yumushlarni ado etish so‘raladi. Agar ular
o‘zbek tilida aytilsa, yoshlar avval ta’rifni anglash bilan bog‘liq qiyinchilikni
yengib o‘tishlari kerak. Shundan keyingina tegishli gapni aytish zaruriyati
bilan bog‘liq amallar bajariladi.

Bir mavzudagi nutqiy vaziyatlar shu mavzuda o'zaro so'zlashish mundarijasiga ishora qiladi. U yoki bu mavzuda nimalar haqida suhbatlashish, kimdandir so'rash kerakligi ana shu mundarijani ifoda etadi. Ma'lumki, o'quvchilardan suhbatdoshiga savol berish so'ralganda, u o'zida savol yo'qligini aytadi. Shuning uchun nutqiy vaziyatlar ko'lami bir mavzuda bo'ladigan so'zlashuv mazmuniga ham ishora qilishini nazarda tutib, mavzular doirasini keskin emas, balki asta-sekin kengaytirib borish darkor.

5-mashq turida rasm nutqiy vaziyatni anglatish va dialogni yuzaga keltirish uchun qudratli omil sanaladi. Rasm nutqiy vaziyatni ko'rsatmali tarzda anglatib, o'quvchi shu tayanch asosida muloqotga kirish tartibini va mazmunini eslatib turadi, kommunikativ niyatni yuzaga keltiradi, muloqotda ongli ravishda ishtirok etishga undaydi.

Xullas, ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablar uchun o'zbek tilidan yaratilgan darsliklarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, ular da o'quvchilarning mustaqil dialogik nutqini o'stirishga xizmat qiladigan mahsul dor, ijodiy mashq turlariga ko'proq o'rin ajratish, ayni shu turdagi mashqlarni ta'lim bosqichlariaro uzluksizlik, uzviylik va izchillik asosida murakkablashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarning o'zbek tilidagi dialogik nutqi qanday saviyada ekanligini aniqlash maqsad qilib qo'yildiki, ushbu ma'lumotlar ko'rilishi kerak bo'lgan ta'limiy tadbirlarning mazmuni, usullari, foydalaniladigan mashqlar tizimini takomillashtirish imkonini beradi. Yoshlar dialogik nutqning quyidagi komponentlarini egallashlari nazorat qilindi:

- 1) o'zbekcha qolip gaplarning mazmunini bilishlari;
- 2) ularni rus tilidagi analoglari orqali eslay olishlari;
- 3) ayrim qiyin qolip gaplarni qay vaziyatda qo'llash mumkinligini izohlay bilishlari;
- 4) o'tilgan muomala odobi qoidalarini eslay olishlari va nutqda ularga amal qilishlari;

5) berilgan nutqiy vaziyatga ko‘ra o‘zbek tilida o‘zaro so‘zlasha olishlari (dialog tuza bilishlari).

Qolip gaplarni egallash yo‘lidagi birinchi qadam ularning mazmunini tushunishdir. Shuni aniqlash niyatida o‘zbek tilida berilgan qolip gaplarni rus tilida ifodalash talab etilgan nazorat ishi o‘tkazildi. Nazorat ishlari ta’lim rus tilida olib boriladigan umumta’lim maktablarining 4–9-

sinf o‘quvchilari orasida (240 o‘quvchi), oliy o‘quv yurtlarining rus guruhlarida tashkil etildi. Nazorat uchun quyidagi qolip gaplar tavsiya etildi: ***Xush kelibsiz.***

Omon bo‘ling. Baraka toping. Xo‘sh, qulog‘im sizda. Tuzukmisiz? Bezovta q ilmadimmi? Tinchmisiz? Hormang. Xo‘p bo‘ladi. Yo‘q bo‘lib ketmang. Rahmat, nima desangiz shu. Obbo, sen-

ey. Qanday bo‘larkin? Demak, masala hal. Barakalla. Bor bo‘ling.

Natija jadvalda aks ettirildi (4.2-jadvalga qarang).

Tarjimalar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar aksariyat o‘zbekcha qolip gaplarni to‘g‘ri tushuna oladilar. Ayni paytda “***Xush kelibsiz***” gapini inobatga olmagan da (bu gap 100 foiz to‘g‘ri anglangan), qolganlarining hammasida (birida oz, birida ko‘p) xato o‘girmalarga yo‘l qo‘yadilar. Xato tarjimalar ko‘proq qolip gap mazmunini quyidagi kabi noto‘g‘ri anglash natijasida yuzaga keladi:

—

Bir qolip gapning ruscha o‘girmasida boshqa qolip gapning tarjimasi keltiriladi.

Masalan, o‘quvchi “*Omon bo‘ling*” qolip gapini “*Sog‘ bo‘ling*” ma’nosida rus tilida ifodalagan. “*Baraka toping*” gapi “*Hormang*” qolip gapi mazmunida o‘girilgan va h.k.

– Ba’zan xatolar o‘zbekcha qolip gapni rus tilida so‘zma-so‘z ifodalashga harakat qilish oqibatida yuzaga keladi. Masalan, “*Tinchmisiz?*” gapini ayrim o‘quvchilar “Спокойны ли вы?” deb tarjima qilishgan, ya’ni ruscha ekvivalent o‘girmasini topa olishmagan. “*Bor bo‘ling*” qolip gapini ba’zi yoshlar “*Yo‘q bo‘lib ketmang*” ma’nosida tushunishgan.

—
O‘zbekcha qolip gapning rus tilidagi muqobil tarjimasini topilmagan holatlar ham uchradi. Bu holat ko‘proq “*Omon bo‘ling*”, “*Tinchmisiz?*”, “*Bor bo‘ling*” kabi gaplarda kuzatildi.

Miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan gapirganda, bir kursda 13 talaba qatnashgan bo‘lsa, 3-qolip gapni 5 kishi, 4-gapni 2 kishi, 5- va 6-, 14-gaplarni 8 kishi, 7-, 8- va 10-gaplarni 9 kishi, 9- va 12-gaplarni 7 kishi, 16-gapni 10 kishi xato tarjima qilgan. Faqat 1-, 2- va 11-gaplar xatosiz o‘g‘irilgan.

Tushunish ayrim holatlarda so‘zma-so‘z tarjima qilish tarzida, ba‘zi holatlarda muqobil shaklini ko‘rsatish yo‘li bilan amalga oshirilgan: birinchi holatda o‘quvchi qolip gapdagi so‘zlar ma‘nosidan kelib chiqib, tag ma‘noni anglamagan, ikkinchi holatda o‘quvchilar o‘zbek tilidagi qolip gapning rus tilidagi muqobilini tanlab, tag ma‘noni anglab yetganliklarini namoyon etganlar, ikkala variantda tarjima usulini qo‘llashda ilojini topmaganlar javobni ochiq qoldirganlar. Demak, ta‘lim jarayonida birinchi navbatda ***qolip gaplarning anglatgan tag ma‘nosidan kelib chiqqan holda muqobilini ko‘rsatish usulini*** qo‘llash zarur bo‘ladi.

Ko‘rinadiki, o‘quvchi va talabalar retseptiv nutq sanalmish qolip gaplarni o‘zbek tilidan rus tiliga tarjima qilish, ya‘ni qolip gaplar mazmunini tushunishning o‘zida katta qiyinchiliklar his etadilar. Bunday vaziyatda o‘quvchilarning dialogik nutqini o‘stirish mashqlarini tashkil etish jarayoni ham qiyinlashadi, yoshlar o‘zlari tushunmagan gaplarni nutqda qo‘llay olmasliklari tayin.

Ta‘lim oluvchilarning o‘zbekcha qolip gaplarni qay darajada bilishlarini zarur paytda xotiraga tushira bilishlari, ularni nutqda ishlata olishlarini o‘rganish orqali aniqlash mumkin. Shu maqsadda Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti litseyida, Toshkent shahar M.Ulug‘bek tumanidagi 225-sonli, Yunusobod tumanidagi 98-, 247-sonli va Toshkent viloyati Yangiyo‘l shahridagi 10-sonli, Yuqori Chirchiq tumanidagi 16-

sonli va Andijon viloyati Buloqboshi tumanidagi 4-sonli hamda Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahridagi 20-sonli, Nukus shahridagi 6-sonli umumta‘lim maktablarida nazorat yozma ishlaridan biri sanalgan qolip gaplarni ruschadan o‘zbekchaga tarjima qilishdan iborat tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi. Quyidagi holatlar aniqlandi:

1. Agar qolip gapning muqobilini eslash qiyin bo‘lsa, so‘zma-so‘z tarjima qilishga intilish yuzaga keladi. Masalan: ***Как ваше здоровье? – Qanday sizning sog‘lig‘ingiz?– Как дела?– Qanday ishlar?***

2. Birinchi qolip gapning muqobili o‘rnida o‘xshash bo‘lsa, ikkinchisini ishlatishtir. Masalan: ***Как ваше здоровье? – Sog‘lig‘ingiz yaxshimi? – До встречи. – Xayr.***

3. So‘z tartibiga oid xatolar (so‘zlar tartibini o‘zgartirib qo‘llash). Masalan: ***Rozi bo‘ling o‘rnida Bo‘ling rozi, Xush ko‘rdik o‘rnida Ko‘rdik xush*** kabi.

4. Orfografik va imloviy xatolarga yo‘l qo‘yiladi.

Qolip gaplar mazmunini tushunishda tag ma‘nosiga ko‘ra ularni bir-biridan farqlash ham muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilarning bu boradagi bilimlarini aniqlash maqsadida nazorat tipidagi testlar o‘tkazilgan va tahlil qilingan.

Chunonchi:

1. Salomlashganda ishlatiladigan shakllar:

- | | |
|----------------------|--------------------------|
| A. Assalomu alaykum. | B. Kel, momig‘im. |
| G. Xush kelibsan. | D. Yo‘l bo‘lsin, otaxon. |
| V. Salomatmisan? | |

2. Tashakkur bildirish:

- | | |
|-------------------------------|-----------------------------|
| A. Og‘zingga qarab gapir. | B. Senga nima bo‘ldi? |
| G. Rahmat, sizga. | D. Bu nima deganing, qizim? |
| V. E‘tiboringiz uchun rahmat. | |

3. Iltimosga rad javobi berish:

- | | |
|---------------------------|------------------------|
| A. Og‘zingga qarab gapir! | B. Demak, masala hal. |
| G. Men rozi emasman! | D. Bilmasam, nima dey? |

V. Sizga rahmat, do'stim.

S. Barakalla, bu ishing chakki emas!

E. Xo'p bo'ladi, albatta bajaramiz.

4. Ma'qullash ma'nosini bildirish:

A. UZR, sizga yordam bera olmayman!

B. Xo'p bo'ladi, mayli.

G. Mendan xafa bo'lmang.

D. Siz aytganday bo'lsin!

V. Xudo xayringizni bersin!

5. Kasallardan hol-ahvol so'rash:

A. Mayli, siz aytgancha bo'la qolsin!

B. Bardammisiz? Qalaysiz?

G. Tuzukmisiz?

D. Yaxshi borib kel!

V. O'zingizdan so'rasak?

1-

testda 8 o'quvchi *"Assalomu alaykum"* degan qolip gapni to'g'ri belgilagan.

2-

testda 6 o'quvchi *"Rahmat, sizga"* *"E'tiboringiz uchun rahmat"*, 1 o'quvchi *"Rahmat, sizga"*, *"Otangga rahmat, barakalla"* deb hamma qolip gapni belgilagan, 1 o'quvchi faqat *"Rahmat, sizga"*ni tashakkur bildirishdagi qolip gap deb tushungan. 3-

testda 4 o'quvchi *"UZR, sizga yordam bera olmayman"*, *"Mendan xafa bo'lmang"*, 2 o'quvchi *"UZR, sizga yordam bera olmayman"*ni belgilagan. 4-

testda 10 o'quvchi *"Xo'p bo'ladi, albatta bajaramiz"*ni tanlagan. 5-

testda 4 o'quvchi *"Bardammisiz? Qalaysiz?"*, *"Tuzukmisiz?"*, 2 o'quvchi *"Bardammisiz? Qalaysiz?"*, *"Tuzukmisiz?"*ni, 5 o'quvchigina nutqida bitta *"Tuzukmisiz?"*ni ishlatishini ko'rsatgan.

Bir nechta test qolip gapga qarab tegishli izohni ko'rsata olish bilan bog'landi:

1. Qanday odamdand *"Tuzukmisan?"* (*"Tuzukmisiz?"*) deb so'raladi? Tegishli izohni ko'rsating.

A. Sog'lom yurgan odamdand so'raladi.

B. Og'ir kasal yotgan bemordan so'raladi.

G. Kasallikdan tuzalib, ko'chaga chiqqan odamdan shunday deb so'raladi.

2. Xushmuomalalik bilan o'zaro so'zlashish uchun qaysi qolip gap shaklidan foydalanish kerak? Shu gapni ko'rsating.

A. Hechqisi yo'q. B. Hech narsa qilgani yo'q. G. E'tibor berma!

Ilmiy tadqiqot ishida o'quvchi va talabalar orasida o'tkazilgan nazorat ishlari asosida bir qator xulosalar chiqarildi. Kuzatishlar va nazorat ishlari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning dialogik nutq ko'nikmalari talab darajasida rivojlanmagan. Ko'pincha ular suhbatni davom ettirish uchun ham, muloqotga kirish, suhbatdoshni muloqotga tortish uchun ham gap topolmay turadilar.

O'quvchilarning qolip gaplarni qanchalik tushuna olishlari, bilishlari, nutqda qo'llashlarini aniqlash maqsadida o'tkazilgan nazorat ishlari asosida quyidagi yutuq va kamchiliklar aniqlandi:

1. O'quvchilar nutqiy etiketlarni rus tiliga tayanib turib xotiraga keltirishda qiynaladilar:

1) ba'zi ta'lim oluvchilar faqat bir so'zdan iborat qolip gaplarni (***Salom, B o'pti, Mayli, Xayr, Rahmatni***) yaxshi biladilar va shu so'zlar yordamidagina so'zlashadilar;

2) ayrim qolip gaplarni rus tilidagi muqobilini topa olmaganliklaridan mazmunini aniq bilmagan holda qiynalib, so'zma-so'z tarjima qiladilar: –

Приветствие вам – Sizni olqishlayman – Sizga salomlar bo'lsin!

3) ko'pincha ular nutqiy vaziyatlarga mos keladigan qolip gaplarni topolmaydilar: Masalan, o'quvchilarga quyidagi kabi nutqiy vaziyatlar ma'lum qilinsa, kerakli qolip gapni topib aytishga qiynaladilar:

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning dialogik nutq ko'nikmalari bugunga qadar talab darajasida rivojlanmagan. Ular suhbatni davom ettirish uchun ham, muloqotga kirish, suhbatdoshni muloqotga tortish uchun ham gap topolmay turadilar, ularning so'z zahirolari kam, matnlar dalillarga boy emas, axborot bazasi nochor, kuzatuvchanlik, nutq odobi yetarlicha rivojlanmagan.

II BOB.

O‘ZBEK TILI DARSLARIDA RUSIYZABON O‘QUVCHILARGA NUTQIY MULOQOT MADANIYATINI O‘RGATISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI

2.1-§. O‘zbek tilida muomala odobi, qolip gaplar, ularning rus tilida ifodalanishi

Ikkinchi bobning 2.1-faslini rusiyzabon o‘quvchilarning dialogik nutqini o‘stirish uchun lingvistik asos vazifasini o‘taydigan qolip gaplarni ajratish masalalarini hal etishdan boshladik. Zero, “O‘zbek tili” darsliklari tahlilidan ularning oz miqdorda berilgani ma’lum bo‘lgan edi. Tilimizda bunday gaplarning ko‘pligiga shubha qilmasa ham bo‘ladi.

O‘qituvchining qo‘lida qolip gaplar (50 dan ortiq) ro‘yxati mavjud bo‘lsa, ta’limiy tadbirlarni rejalashtirish mazmunli tashkil etilishi aniq. Shunday ekan, ushbu mavzular doirasini belgilab olish, qolip gaplarni guruhlash, ayrim muomala odobi qoidalarini ko‘rsatish darkor.

N.I.Formanovskaya, X.R.Sokolovalarning “Речевой этикет: Русско-немецкие соответствия” nomli ma’lumotnoma kitobida quyidagi muloqot tus hunchalariga izoh beriladi, ularning dialogik nutqda qo‘llanish xususiyatlari bayon qilinadi: *“sen” va “siz” kabi muomala odobi shakllari misollar asosida yori tiladi: diqqatni jalb etish, e’tiborni qaratish (o‘zi bermoqchi bo‘lgan savolga e’tiborni qaratish), notanish shaxsga murojaat qilish (ayniqsa, biror ish bilan band bo‘lgan yoki telefon orqali gaplashayotgan kishilarga) o‘ta yumshoqlik bilan murojaat qilish, harbiylarning bir-biriga murojaat qilishlari), tanishuv (odatdagi norasmiy tanishuv, rasmiy-idoraviy tanishuv), salomlashish (odatdagi salomlashish, ko‘tarinki ruhdagi salomlashish, ham salomlashish, ham taklif qilish, salomlashish va hol-ahvol so‘rash), xayrlashish, tabriklash, istak bildirish, minnatdorchilik bildirish, kechirim so‘rash, iltimos, rozilik bildirish, ruxsat berish, rad etish, man etish, taklif qilish, maslahat, taklif berish, maqto*

so‘z aytish (kompliment), ma‘qullash, telefon orqali so‘zlashuv, yuqoridagilarga javob replikalari.

Nutqiy muloqot madaniyati muomala odobiga rioya qilib, so‘zlash ohangining suhbatdoshga ma‘qul tarzda bo‘lishiga intilishda o‘z ifodasini topadi. Gapirishda odob va odobsizlik muomala tavsifiga bog‘liq. Masalan, ikki kishi gaplashib turganda uchinchi kishi so‘zlayotgan kishining gapini bo‘lib suhbatga aralashish i madaniyatsizlik (odobsizlik) belgisi sanaladi. Afsuski, bunday holatlar nufuzli yig‘ilishlarda ham kuzatilishi mumkin.

Yana bir ibratli misol. Telefon jiringlaydi. Fikringiz bo‘linib, go‘shakni ko‘tarasiz. Qandaydir begona ovoz salomsiz, aliksiz:

– Kim bu? – deydi.

O‘zini tanishtirmasdan nogahon sizni so‘rovga tutayotgan bu kimsaga nima deyishingizni bilmay qolasiz. Har holda birdaniga unga tanbeh berishni, qo‘ng‘i roq qilayotgan odam avval o‘zini tanishtirib, muddaosini muomala madaniyati bilan izhor etishi lozimligini pesh qilishni o‘zingizga ep ko‘rmaysiz [51;15-b.].

Muomala odobiga rioya etish masalalari Siddiq Mo‘minning “So‘zlashish san’ati” risolasida ma‘lum darajada yoritilgan. Ushbu risolada ***“Tinglashni o‘rganish”, “Yaxshi so‘z – muxtasar”, “Suhbatga tayyormisiz?”, “Kim bilan gaplashyapsiz?”, “Mening muhtaram o‘zim...”, “So‘z salomdan boshlanur...”, “Birini aka dedim, birini o‘rtoq...”, “Sen deyinmu, siz deyin?”, “Eng yaxshi dori”, “Sotuvchining sehrli so‘zi”, “Qani, meni bir maqtang!...”, “Indamasda n indashni bilasizmi?”, “So‘zlama pardozi bilan...”, “Senga tuhmat qilsalar agar...”, “Boshqacha qilib ayting”, “Chiroyingiz ochiq bo‘lsin”, “Hayo ko‘zda n bilinur”, “Tabassumni darig‘ tutmang”, “Angla talaffuz qadrini”, “Yoqimli va yoqimsiz ovozning inson miyasiga ta’siri”, “Otang seni sotganda ham...”, “Darvozamiz ochiq bo‘lsin”, “Siz ham bolalarni qadrlang ko‘proq...”, “Qizi m, senga aytaman...”*** mavzulari doirasida ibratomuz maslahatlar bergan holda s o‘z yuritilgan.

Siddiq Mo‘min ayol va erkaklar nutqidagi farqqa e‘tiborni qaratadi: “Ayollar nutqi erkaklar nutqidan har jihatdan: tovushlar ifodasi, lug‘at tarkibi, gap qurilishi kabi tomonlardan sezilarli darajada farqlanib turadi. Erkaklar nutqi ham qisqa va lo‘ndaligi, bosiq va qat’iy ohangda aytilishi va boshqa juda ko‘p jihatlari bilan ayollar nutqidan farqlanadi” [51;16-b.].

Muallifning suhbatni salom-alikdan boshlash ham nutq madaniyati ekanligi, suhbatdoshga nima deb (ey, dono; ey, gado...) javobga ta’sir qilishi, so‘zlovchi o‘z so‘ziga ham pardo berishi kerakligi, sotuvchining o‘zi sotayotgan narsasini qimmat demasdan, arzon emas degan yaxshi ekanligi, so‘zlovchining yuzida muloyimlik sezilib turishi zarurligi, ko‘zidan hayo ifodasi bilinib turishi lozimligi kabi maslahatlari ham muomala odobi qoidalari uchun asos bo‘lishi umkin. Uning fikricha, “Ohang – so‘z va gapning libosi bo‘lib, bu til va nutq birliklari qanday ifoda etilishiga ko‘ra, uning ma’nolari ham o‘zgarib turadi”. Demak, dialogik nutq o‘stirishda so‘zlash ohangi ham ta’lim birligi sanalishi lozim.

A.A.Pozdnyakova so‘zni, ayniqsa, qolip gapni bilib, farqlab ishlatish kerak, deb maslahat beradi. Uning fikricha, bemordan uning kasalligi haqida so‘rashda n ko‘ra, “Sog‘liqlaringiz yaxshimi?” deb so‘ragan ma’qul. Ushbu qolip gap bilan hatto tuzalishi dargumon bo‘lgan bemorda ham sog‘ayishga bo‘lgan umid tug‘diramiz.

Muallif o‘zi o‘tkazgan suhbatlardan shuni aniqlaganki, salbiy tuyg‘u uyg‘otadigan so‘zlar aksar holatlarda quyidagicha bo‘ladi: a) o‘lim nomi, b) kasallik nomi, v) ijtimoiy isnod (qamoq va h.k.), insoniy g‘am-g‘ussalarning turli nomlari va b.) so‘kish so‘zlari [153; 34-b.].

Suhbatga qo‘shilish (gapirish)ga ruxsat (ijozat) so‘rash murojaat replikalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Ikki kishi orasida bo‘lib o‘tayotgan suhbatga uchinchi kishining odob bilan aralashishi uchun u tegishli replikalarni qulay vaziyat topib ishlatishi, bunda quyidagilarga rioya etishi zarur:

1) suhbatdoshlardan birining gapdan to‘xtashini kutish;

2) quyidagi kabi replikalar bilan suhbatlashayotganlarga murojaat qilish:

– *Kechirasizlar, bir narsa so‘rasam bo‘ladimi?*

– *Men ham gapirsam bo‘ladimi?*

– *Men ham o‘z fikrlarimni bildirsam bo‘ladimi?*

Muomala odobiga ko‘ra suhbat davrasi kengaygandan keyin har bir ishtirokchi navbat bilan gapirishi kerakligi o‘quvchilarga beriladigan qoidalar sirasiga kiradi.

Nutqiy muloqot madaniyati ismlarni to‘g‘ri atash bilan ham bog‘lanadi. O‘quvchilar real hayotdagi muloqotga tayyorlanar ekanlar, o‘zbek xalqiga xos ismlarni to‘liq, ba‘zan qisqartirib, ba‘zida esa qisqa shaklda atash o‘rinlarini ham farqlay bilishlari zarur. Buning uchun esa ismni qisqartirish yoki qisqa shaklini qo‘llashga doir qoidalar ham boxabar bo‘lishlari lozim.

Ismni qisqartirish boshqa, ismning qisqa varianti mavjud bo‘lishi boshqa hodisa. Masalan, rus tilida aksariyat ismlarning qisqa varianti bo‘ladi: *Галя* –

Галина, Боря – Борис. Lekin o‘zbek tilida ismlarning qisqa variantlari ko‘p emas. O‘zbek tilida og‘zaki nutqda ismlarni qisqartirish hodisasi bor.

Masalan: *Dilorom – Dilya, Nigora –*

Nigor. Demak, rus tilidagi qisqa ism bilan o‘zbek tilidagi ismlarni qisqartirish boshqa-boshqa hodisalardir. Ismlarning qisqa shakli o‘zbek tilida ham, rus tilida ham erkalash, kichraytirish, samimiylik va iliqlik munosabatini anglatadi.

Har bir xalqning o‘ziga xos muloqot odobi, kishilarning ijtimoiy shartlangan xulq-atvor qoidalari mavjud bo‘lib, bu qoidalar shu kishilarning egallab turgan lavozimi, mehnat faoliyati bilan shartlangan nutqiy muloqot madaniyatida o‘z ifodasini topadi. Ushbu muloqot madaniyati muayyan kommunikativ nutqiy vaziyatlarda namunaviy, boshqacha aytganda, bir tipdagi standart so‘zlashuv odatlarini ham o‘z ichiga oladi.

Rus tilida ismlarni to‘liq va qisqa aytish keng tarqalgan. O‘zbek tilida ismlarni qisqartirib aytish ko‘proq yoshlar orasida og‘zaki nutqda uchraydi. Masalan: ***Guli, Baxti, Dili***. Lekin aksariyat ismlar bunday qisqartirilmaydi. Masalan:

Turg'un, Botir, Nazira. Ba'zi hollarda yoshlar kattalarga **amaki, xola, tog'a** so'zlarini qo'shib aytganda og'zaki nutqdagi qisqartirishlar bu holatda ham qo'llaniladi: **Dilya xola, Mitya amaki** va boshqalar.

Ism qo'shma ot shaklida bo'lsa, ba'zan birinchi komponent aytiladi: **Ali, Sulton, Bobo, To'xta.** Rus tilida to'liq ismlarga qaraganda qisqa shakli ko'proq qo'llanadi. Masalan: **Иван, Ваня, Жора, Георгий – Гриша, Валя – Валентина, Катя – Екатерина.**

Rus tilida rafiqasi eriga qisqa ism bilan murojaat qilish holatlari mavjud. Masalan: **Erik – Ermatat, Вася – Василий.** Rus tilidan farqli o'laroq o'zbek tilida xotin kishi erini boshqa ismlar bilan, masalan, vafot etgan to'ng'ich farzandining ismi bilan chaqirish holatlari yo'q emas.

Rus tilida ismlarning xilma-xil suffikslar olib kelish holatlari keng yoyilgan. Masalan: **Машенька, Ниночка, Васенька.** O'zbek tilida aksariyat holatlarda to'liq ismlarga **-xon, -jon, -bek, -boy, -begim, -bonu** suffikslarini qo'shish rasm bo'lgan. Lekin rus tilidagi suffiksalar shakllari asosan erkalash ma'nosida ishlatilsa, o'zbek tilida sub'yektiv baho ifodalovchi qo'shimchalarning ijtimoiy vazifasi juda keng.

O'zbek tilida o'zidan kattaga, ayniqsa, biror lavozimni egallab shaxslarga nisbatan ismiga **“aka” yoki “opa”** so'zini qo'shib aytish odatiy hol hisoblanadi. Masalan, **Karim aka, Rahima opa.** Lekin bunday odamlarga nisbatan **amaki, xola, tog'a, amma** so'zlarini ishlatish nojoiz. Aksariyat idoralarda xodimning, ayniqsa, rahbarning ismi-sharifini aytib murojaat qilish ham rasm bo'lmoqda.

Rasmiy holatlarda 1941-yildan keyin tug'ilganlarga nisbatan ismi va otasining ismini aytib chaqirish qabul qilingan. Masalan, Nodir Rasulovich, Muhabbat Po'latovna, Gulsara Saidovna kabi. 1941-yildan avval tug'ilganlarning pasportida otasining ismi ko'rsatilmagan. Masalan: Samad Umarov, Nazira Botirova kabi. Bunday kishilarning familiyasi, otasining ismi sifatida sanalgan. Masalan: **G'ofur Jo'r ayeovich (Jo'rayev), Zafar Rashidovich (Rashidov)** kabi.

Ta'lim rus tilida olib boriladigan ta'lim muassasalarida ism-sharifini aytib murojaat etish ilgaridan rasm bo'lgan. Keyingi paytlarda o'zbek tilida olib boriladigan ta'lim muassasalarida o'qituvchilarga nisbatan *“ustoz”, “domla”* so'zlari bilan murojaat etish odat tusiga kirdi. Rus tilida olib boriladigan maktablarda esa o'qituvchi va tarbiyachilarga asosan ismi va otasining ismini aytib murojaat etiladi.

Tashkilot va ta'lim muassasalarida o'zidan kichiklarga o'zbek tilida familiyasini aytib chaqirish holatlari ko'p uchraydi. Rus tilida ham shunday. Lekin o'zbek tilida familiyasini aytib chaqirish salbiy ma'no bo'yog'iga ega. Rus tilida esa u ijobiy muomala bo'yog'ini beradi. O'zbek tilida oila a'zolarining bir-biriga familiyasini aytib chaqirishi kamdan-kam holat bo'lib, ko'proq kinoya ma'nosida ishlatiladi. Rus tilida oila a'zolariga bir-birining familiyasini aytib murojaat etish kinoyadan tashqari kishini kamsitish maqsadini ham ko'zda tutadi. Ikkala tilda familiyasini aytib murojaat qilish bir-biriga bepisandlikdan tashqari, ba'zan erkalash ma'nosini ham anglatishi mumkin. Rus tilida familiyaning yolg'iz ishlatilishi umum tomonidan qabul qilingan holatni ham ifoda etadi.

O'zbek tilida tengdoshlar tanishuv jarayonida yoki biror vaziyatdagi muloqot chog'ida bir-biriga *“o'rtoq”, “og'ayni”, “do'stim”, “dugonam”* kabi so'zlar bilan murojaat qiladilar. Rus tilida asosan *“товарищ”, “друг”, “другище”, “приятель”* so'zlari ishlatiladi.

O'zbek tilida ota-onaga *“otajon”, “onajon”, “onaginam”, “otaginam”* kabi murojaat qilish shakllari ko'p qo'llanadi: birinchisi ko'proq, ikkinchisi kamroq. Rus tilida esa suffiks holat keng tarqalgan. Masalan, *“мамуля”, “мамочка”, “дедуля”, “бабуля”* kabi.

O'zbek tilida notanish, begona kishilarga nisbatan *“yigitcha”, “yaxshi qiz”, “xonim”, “jiyan”, “og'ayni”, “kelin oyi”, “opoqi”, “ovsin”, “xola”, “aka”, “amaki”, “singil”* shakllari qo'llanadi.

M.S.Balabayko so‘zlashuvga undash mazmunidagi dialogik replikalarni, shular sirasida qolip gaplarni ikki turga bo‘ladi: [155]. 1) informativ (axborot berishga undovchi) replikalar; 2) ish-harakatga (so‘zlashga) undovchi replikalar.

M.S.Balabaykoning yoyiq holda bergan tasnifini quyidagicha umumlashtirib ko‘rsatish mumkin:

Informativ replikalar:

- 1) voqea-hodisa yoki biror xatti-harakat haqidagi xabar;
- 2) narsa-buyumlarni tasvirlash;
- 3) faktlarga o‘z munosabatini bildirish;
- 4) his-tuyg‘ularini ifodalash.

So‘zlashga undovchi replikalar:

- 1) ish-harakatga undash;
- 2) ish-harakatni to‘xtatish yoki uning oldini olishga intilishni ifodalash;
- 3) axborot berishga undash.

Beriladigan xabar quyidagi javob replikalarini keltirib chiqaradi: 1) tasdiq, 2) niyatni ma’qullash, 3) to‘ldirish, 4) xulosa qilish (yakunlash).

Taklifga nisbatan yuzaga keladigan javob replikalari: 1) rad etish, 2) tuzatib qo‘yish, 3) takliflarga qo‘shilmaslik, 4) mumkin emaslikni isbotlash.

Olingan xabar munosabati bilan shaxsiy munosabatini ifodalash: 1) minnatdorlik, 2) hayrat, 3) quvonch, 4) yaxshi ko‘rganlik, 5) qanoatlanish, 6) faxrlanish, 7) loqaydlik, 8) hayron bo‘lish, 9) afsus, 10) norozilik, 11) g‘azab, 12) qo‘rquv, 13) nafrat, 14) jahl qilish.

Ish-harakatga undash: 1) iltimos, 2) maslahat, 3) taklif, 4) talab, 5) olingan axborot bilan bog‘liq ish-harakatga ruxsat berish.

Olingan axborot bilan bog‘liq ish-harakatni to‘xtatish yoki uning oldini olishga intilishni ifodalash: 1) ta’qiqlash, 2) biror narsadan ogoh qilish, 3) ijozat bermaslik, 4) dakki berish.

Bularni umumlashtiradigan bo‘lsak, javob replikalari quyidagilardan iborat: tasdiqlash, ruxsat berish, rad etish, man etish, berilgan xabarni to‘ldirish,

unga qo'shimcha qilish, suhbatdoshining fikriga munosabat bildirish: ma'qullash, maqtash, olqish so'zlari aytish, xulosa qilish, minnatdorchilik, hayrat, quvonch, yaxshi ko'rganlik, qanoatlanish, faxrlanish, loqaydlik, hayron bo'lish, afsus, norozilik, g'azab, qo'rquv, nafrat, jahl qilish, tuzatib qo'yish, takliflarga qo'shilmaslik, mumkin emaslikni isbotlash, talab, ta'qiqlash, biror narsadan ogoh qilish, ijozat bermaslik, dakki berish.

Ikki kishi o'rtasidagi dialogik nutq savol-javob, buyruq-javob, xabar-e'tiroz kabi mazmunlarda bo'lib, fikr xususidagi tasdiq yoki inkorni, ziddiyat yoki munozarani ifodalaydi. Ko'p kishilik dialoglarda suhbat mavzusi savol-javobdan iborat bo'lmay, o'rtaga tashlangan savol, taklif, da'vat, biror xabar, dalillar bilan xulosalanadi. [51; 65.].

N.I.Formanovskaya, X.R.Sokolovalar dialogik replikalarni rus va nemis tillari, M.S.Balabayko rus tili nuqtai nazaridan tasnif qilishadi, misollarni shu tillardan keltirishadi. Biz behisob dialogik replikalarni qo'shmagan holda, faqat qolip gaplar, shablon so'z va iboralarni ko'zda tutgan, shuningdek, "O'zbek tili" dar sliklaridagi tasniflarni hisobga olgan, ularning mundarijasini kengaytirgan holda sharqona misollar asosida bir qadar ko'proq to'plashga harakat qilamiz. Bunda so'zlashuv nutqini kuzatish, badiiy asarlardagi dialogik parchalarni o'rganish, faolroq qolip gaplarni tanlash yo'lidan boramiz. Har bir tasnifiy guruhda avval suhbatdoshlardan birining ikkinchisiga qolip gaplardan foydalanib aytadigan replikasi, so'ng uning davomida faqat suhbatdoshining replikasidan mazmunan va struktura jihatdan farqli javob replikasini keltiramiz.

Diqqatni jalb etish: *Sizni (seni) bir daqiqaga mumkinmi? Qulog'im sizda! Endi sizdan eshitsak. Qarang... Xo'sh, qulog'im sizda. Gapimga quloq sol. Yaxshilab eshit. O'zingizda gapim bor. So'rasam maylimi? Eshit(ing)! Savol bersam bo'ladimi? Ruxsat bersangiz, sizga savolim bor edi. Murojaat etishga ruxsat bering!*

Salomlashish: *Assalomu alaykum. Vaalaykum assalom. Salom. Salom sizga! Yaxshimisiz? Siz bilan salomlashay! (ruxsat eting, xursandman).*

Salomlashish – bu uchrashgan tanish va notanish kishilarga hurmat, xayrixohlik, muomaladagi muloyimlik belgisidir. Agar masalan, biz biror muassasaga kirishda rasmiy vakilga salom beramiz. Odatda, bularning barchasi **“Kechirasiz”, “Uzr”** soʻzlari bilan birga ishlatiladi.

Tanishish: *Oting nima? (Sening oting nima? Sening isming nima?) Familiyang nima? Sen necha yoshdasan? (Yoshing nechada?) Tanishganimizdan xursandman. Sening /Sizning/ familiyang /iz/ nima? Siz kim boʻlasiz? Men ...ning qizlari man. Men oʻgʻillari ...man. Siz ...amakimisiz? Men siz (sen) bilan tanishmoqchi man. Kel(ing), tinishaylik! (tanishamiz)! Oʻzimni tanishtirishga ruxsat (ijozat) bering (eting)!*

Hol-ahvol soʻrash: *Sogʻliqlaring yaxshimi? Yaxshi, rahmat. Oʻzingning sogʻliqlaring qalay? Sogʻ-salomatmisan? Tuzukmisan? Oʻqishlaring qalay? Oʻqishlaring yaxshimi? Oʻzingniki-chi? Ishlar qalay? Yaxshi. (Zoʻr. Mixday.) Otang /Onang/ yaxshi yuribdimi? Otang /Onang/ning sogʻliqlari yaxshimi? Shukr, rahmat. Yaxshi yuribsanmi? Oying va dadang yaxshimilari? Yaxshi yuribsan /siz/mi? Ahvollaring/iz/ qalay? Sogʻ-salomatmisan/siz/? Ishlaring/iz/, oʻqishlaring/iz/ yaxshimi? Uydagilar yaxshimi /eson-omonmi/? Nima yangiliklar bor? Onang/iz/, otang/iz/ yaxshi yuribdimi? Yomon emas. Xudoga shukur, yaxshi. Juda soz! Tashakkur, oʻzing/iz/-chi? Bir navi. Soʻramang, yaxshi emas. ..., qalaysan? Oʻzing qalaysan? Xafa koʻrinasan. Voy, yana nima boʻldi! Oʻzingizdan soʻrasak. Oʻrtacha, hammasi yaxshi, hammasi joyida, menda yomon emas (hammadan zoʻr (yaxshi). Siz (sen) oʻzingni qanday his qilyapsan? Siz qanday yashayapsiz? Sizga (senga) nima boʻldi? Ha, nima boʻldi endi?*

Xayrlashish: *Xayr. Koʻrishguncha. Yaxshi qol! Xayr! Xoʻp, xayr! Omon boʻling! Koʻrishguncha xayr!*

Istak bildirish: *Sogʻ boʻling. Hormang! Bor boʻling! Yaxshi boring! Yaxshi qoling! Sizga omad tilayman! Yaxshi borib keling! Oq yoʻl! Omadingiz kelsin! Yaxshi yotib turing! Xayrli tun! Ishingiz oʻngidan kelsin! Sizga omad yor boʻlsin!*

! Muvaffaqiyat tilayman! Chin dildan ... tilayman! Eng yaxshi tilaklarimni qabul eting! aytganingiz kelsin! Minnatdorman, qachon kerak bo'lsam, xizmatlarin gizga tayyorman. Ishqilib, umri uzoq bo'lsin! Omin, oxiri baxayr bo'lsin. Sizga o'xshab yursin. Qani, sizday kelinim bo'lsa!? Otang /Onang/ga salom deb qo'y. Xo'p albatta aytib qo'yaman.

Buyruq-istak, ya'ni biror ish-harakatga undash 3 xil shaklda ifodalanadi:

- a) implitsit (yashirin) buyruq-istak;
- b) bevosita buyruq-istak (biror holatga ishora qilish);
- v) ekspletsit buyruq-istak aniq ish-harakatga undovchi buyruq-istak.

Implitsit buyruq-istakda undashga qaratilgan gapning o'zi buyruq-istak ma'nosini anglatmaydi, lekin bu ma'noni sub'yektning o'zidan (gapidan) anglab olish mumkin. Masalan: bir odam ikkinchi odam bilan uchrashgisi kelmasa, uni ketishga majbur qiladigan gapni aytadi: "Kech bo'lib qoldi", "Soat 10 bo'lib qoldi" replikasining o'zi uni ketishga undaydi.

3-gapda buyruq-istak to'liq ifodalanadi.

Suhbatdoshlardan biri nimaningdir qayerda turganini aytadi, ikkinchisi yo o'sha narsani olib berishi kerak yoki olib ketishi lozim kabi har xil ma'nolarda tushunadi. Aniq nimaligi suhbatning boshlanish qismidan ma'lum bo'lib turadi.

Yuqoridagi misollarda buyruq-istak mazmuni darak gap shaklida ifodalangan.

Minnatdorchilik bildirish: *Rahmat. Marhamat. Tashakkur! Ko'p minnatdorman sizdan. Aytganingiz kelsin! Arzimaydi.*

Quvonch: *Boshim osmonga yetdi. Quvonchim bir olam.*

Kechirim so'rash: *Kechir (iing)! Meni /bizni/kechir/ing/! Iltimos, kechir/ing/!.. uchun kechir/ing/! Kechirasiz/siz/, bilmabman! Bilmayman, uzr! Meni avf eting! Siz /sen/dan uzr so'rayman. Ming karra uzr! Tavba qildim, kechiring! Xafa qilgan bo'lsam, kechir/ing/! Hechqisi yo'q! Nima ham derdim. Mayli. O'tgan ishga salovat! Qo'yavering! Zarari yo'q! Bo'пти, mayli. ...sam bo'ladimi? Bezovta qilganim uchun kechirasiz. Bezovta qilmadimmi, uzr?*

Shoshirish: *Bo'l, tezashtir, bo'l. Zudlik bilan ishga kirish.*

Iltimos qilish: *Malol kelmasa,... Xizmat bo'lmasa,.. Iltimos qiyin bo'lmasa,.. Bemalol bo'lsa,.. (Yo'q,) mumkin bo'lsa. Iltimos, ..maysizmi? Xo'p. Yo'q. Xo'p, mayli. (Sira) ilojim yo'q. Yaxshi. Mumkin emas. Bo'пти. Yo'q, bo'lmaydi. Hozir. Hozir chaqiraman. Haqqim yo'q. Marhamat. Bu menga bog'liq emas. Jonim bilan. Qo'limdan kelmaydi. Bemalol. Albatta. Mayli. Iltimos, rozi bo'ling. O'tinaman, yordam bering. Iltimos sizdan. O'tinaman, sizdan.*

Ruxsat: *Maylimi? Xo'p, mayli. Bemalol. Kiring, marhamat. Mayli, chiqib kela qoling. Ixtiyoringiz. O'zingiz bilasiz. Ixtiyor o'zingizda. Kirsam maylimi? Marhamat, kir. Kiravering, kiravering Sizdan bir narsani so'rasam bo'ladimi? So'rayvering, bemalol. Ha, albatta mumkin. Menga ruxsatmi? Ilojim yo'q. Yo'q, bo'lmaydi. Har qanaqasiga iloji yo'q. Boraqolgin. Sen ketaver! Mumkin bo'lsa. Bo'пти, mayli sam bo'ladimi? Ixtiyoringiz.*

Taklif qilish: *Xush kelibsiz. Qayoqdan oftob chiqdi, qaysi shamol uchirdi? Keling /kiring/, marhamat. Marhamat, o'tiring. Keling, yordamlashaman. Ha, kela qol, yuragim sezuvdi! Marhamat, keling! Birga boraylik. Ketaylik! Yuring deyaрман! Xayrlashib kelaylik. Biznikiga keling.*

Maslahat: *Darsga kech qolma Ovora bo'lib nima qilarding? O'zing bilasan. O'ylab ko'rarsan. Yo'qolib ketmang. Kalta o'ylama. Birga borganing yaxshi. Bo'ladigan ishning bo'lgani yaxshi. O'ylab ish tut. Yetti o'lchab, bir kes. Halol bo'lsang, baraka keladi senga.. To'g'ri yur, bola, ishingni bilib qil! Gaplashib olish bizga foyda beradi.*

Maqtov so'z aytish (kompliment): *olqish: Esing kirib qolibdimi, do'stim? Qoyil! Ko'zimning oqu-qorasi sensan! Mazza! Muncha rohatijon bo'lmasa! Ofarin!*

Telefon orqali so'zlashuv: *Alo! Labbay? Labbay, eshitaman!..., senmisan? Ha, menman. ...bormi(lar)? ...uydami? Nima deb qo'yay? O'zim kechroq qo'ng'iroq qilaman. (Kechirasiz,) bu ...larning uy(lar)imi? Yo'q, boshqa joyga tushib qoldingiz. ... Yo'q edilar. Gapirayotgan kim? Men kim bilan gaplashyapman? Kechirasiz, siz kim bo'lasiz? Kim qo'ng'iroq qildi deb qo'yay? Hozir yo'qlar. Sal turi b qo'ng'iroq qiling. Albatta aytaman. Arzimaydi.*

Aniqlash: Bu kishini taniysizmi? Ha, taniyman. Nima edi? Nima demoqchisan o'zi? Nima qilib turibsiz? O'zim. Kimda ishingiz bor edi? Yo'l bo'lsin? Maqsadning nima? Nima dedingiz? Eshitaman, nima gapingiz bor, aytaqoling? Shu gap rostmi? Bir aniqlagin-chi. Xo'sh-

xo'sh, yana nima deysiz? Qo'shimchang bormi? Yana qaytaring-chi; Nima deding? Endi nima qilasan? Bu nima deganing, qizim? Qani, tushunti ribroq gapir-

chi? Hurmatim yo'qmi? O', sen o'zingni kim deb o'ylayapsan? Yo'g'ey, shunaqami? Iye-

ie, hali shunaqami? (Ha), qanday (nima) yangiliklar bor? Ha, bu yog'i nima bo'ldi? Kechirasiz, (qanday) ayta olasizmi ...? Kechirasiz, siz aytib bera olmaysizmi? UZR, siz bilmaysizmi ...? Sizga aytish qiyin emasmi ...? (Sizdan) so'rasam bo'ladimi? (maylimi?) Nima gap? Xabarim bor. Qaydam? Nega endi? Nima qiladi? (A 4mo?) Bilmasam?

Haydash, qarg'ash: Yo'qol, turqing qursin ... Ko'zimga ko'rinma! Ovora bo'lasanlar! Toshingni ter! Bor, yo'qol! Yashshamagur!

Kelishish: Bo'lmasa kelishdik-

a? Kelishdik. Siz haqsiz. Keling, ...kelishamiz. Ishonayzring, maslahatlashamiz.

Zimmasiga olish: Bu ishlarga men javobgarman. Majburman endi. Bu ishlar mening yelkamda.

Munosabat bildirish: Bu hali holva. Buni qarangki, xudo sizni yuboribdi. Qanday qilay! Qulog'iga gap kirmaydi. Mana bu boshqa gap! O'g'il bola degan mana bunday bo'ladi! O'zingizdan qolar gap yo'q. Qotirdim-

a? ko'nglimdagiday ish bo'ldi! Bu gaping yaxshi! Tayining bormi o'zi? Menga baribir. Menga farqi yo'q! Yo'q, men bunga noroziman. Rozimasman bundan. Kim bo'libsiz? Kimsan, sen? Yaxshi taklif. Yaxshi emas! Shu gapga nima deysiz?

Tartibga chaqirish, tanbeh: Jim! Mayda gap bo'lma!

Qarshilik qilish, ta'qiqlash: *To'xta! Sen jim o'tir. Sen aralashma! Yo'q, ovora bo'lma! Senga mumkin emas, bo'lmaydi! To'xtating, bo'ldi qiling. Yo'q, aslo! Hech qachon! Mumkin emas!*

Afsuslanish: *Afsus. Essiz-essiz. Attang! Iloj qancha?*

Imkoniyatini ma'lum qilish: *Qo'lingdan keladi. Davlati yetadi. Qo'ling yetadi. Kallang joyida. Yaxshi mutaxassissan. Qo'limdan kelmaydi!*

Tuyg'ularini ifodalash: *Yaxshi ko'raman sizni.*

Harakatga undash: *Buyruqni bajar! Ishni boshla! Bir ko'rib chiqing. Yana bir bor ko'rib chiqing bo'lmasa.*

Harakatni chegaralash: *Oshirvorma. Haddingdan oshma! O'zingdan ketma.*

Ma'qullash: *Ha, xuddi shunday. To'ppa-to'g'ri! To'g'ri emas. To'g'ri kelmaydi! Bo'lar-bo'lmas narsa-ku!*

Rad etish: *Yo'q, bo'lmaydi. Yo'q, o'ylama ham!*

Aybiga iqrorlik: *Aybdorsan. Gunohkorman.*

Yordam so'rash: *Bir savob qiling. Yordamim tegsin. Yordam beraqoling.*

Ikkilanish: *Qanday bo'larkin? Nima desam bo'ladi? Rost ayt-yapsanmi? Aytganlaring rostmi? Rostmikan? To'g'ri, deb o'ylaysizmi?*

Ishontirish: *Rost gap, do'stim, rost. To'g'ri yo'l shu-da. Albatta, kelaman; Ishonaver, men doim yoningdaman. Harakat qilaman. To'g'risi, shu. Ayni haqiqat. Gaping rost. Bor umidim sizdan. Ishonmayman. Shubham bor. Kafolati bormi? Sevganim sen. Shubhasiz, to'g'ri. Gaplaring yuz foizga to'g'ri. Hali hammasi oldinda.*

Zarurligini ta'kidlash: *Ha, yaxshiyam sen borsan. Men sen bilanman. Baxtimga sen bor bo'l! Borligingizga shukur!*

Rozi bo'lish (itoat): *Mayli, men roziman. Xo'p, deyman, men sen tomondaman. Xo'p bo'ladi, albatta bajaramiz. Bo'pti, mayli. Men rozi. Mayli, yo'q demayman. Xo'p bo'ladi.. Yo'q, rozimasmiz. Qarshiman! Agar rozi bo'lsang, menda bir taklif bor. Ishonsam, rozi bo'lardim. Aldamasang, o'zim yordamlashardim. Nim*

a desangiz shu bo'ladi. Maqsadim shu. Yo'q, bo'lmaydi. Yo'q dedimmi, yo'q! X o'p, deng. Yo'q demang. Maylimi?

Hayrat: *Zap yangi model! Buncha go'zal bo'lmasang, Toshkanim onam! Qanch alar chiroyli joylar! Munchalar so'lim maskan! Bahri-diling ochiladi. Ajabo! Voy-bo'! O'x-xo'!*

Holat: *Tomog'im quridi. Yuragim sezuvdi. Yuragim toshdi. Rangim so'ldi. Sog'i ntirvordingiz-ku! Xafa qilding. Xafaman. Xavotirdaman. Qo'rqib ketdim.*

Ogohlantirish, tanbeh: *Bu gaplarni unutma! Saratonday qovjirama! Izg'irinday izzillatma!*

Xulosa chiqarish: *Bundan chiqdi,... Demak, ...*

Biror xabarni etkazish: *...salom aytib yubordi. Demak, ...*

O'P.Lafasov tilshunoslikka oid manbalarga tayangan holda atagan frazeologik shtamplar ("Ziyoratingiz qabul bo'lsin!", "Murodingiz hosil bo'lsin!") qolip gaplarini eslatadi. Muallifning ta'kidlashicha, ushbu birliklar faqat dialogik nutqqa xos [144; 97]. Ayon bo'ladiki, qolip gaplar (речевые клише, штампы) dialogik nutqning ta'limiy lisoniy birligi bo'lish bilan birga frazeologizmga ham borib taqaladi, o'zaro muloqotda istak ma'nosini anglatish uchun xizmat qiladigan qismlari bilan o'xshashlik kasb etadi. Masalan, "**Yo'lingiz bexatar bo'lsin**" ifodasini qolip gap deb hisoblash mumkin bo'lganidek, uni, O'P.Lafasov aytganidek, frazeologik shtamp deyish ham mumkin. Biz bularni dialoglarga xos bo'lgani uchun qolip gaplar sirasida ko'rishimiz mumkin.

Istak ma'nosidagi bunday qolip gaplar (yoki iboralar) nutqimizda talaygina. Masalan: ***Sadag'ang ketay! Girgittoning bo'lay!Baraka topgur!***

Qolip gaplarning ma'lum bir qismi og'zaki nutqda, ayniqsa, yoshlar tilida kam qo'llanadi. Bular retseptiv planda o'rgatiladi. Asosiy ko'pchiligi mahsuldor planda kiritiladi.

Ma'lumki, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "ma'naviyat insonga ona suti, ona namunasi, ajdodlar o'giti bilan singadi, ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib olis

hga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi”. “Muomala odobi qoidalari, mul oqot jarayonida qo‘llanadigan qolip gaplar ijtimoiy munosabatlarda tarixan shakllanib kelgan ma’naviyat durdonalari hisoblanadiki, ular ham bugungi yoshlarimizning kamol topishida muhim omildir. Ta’lim oluvchilar komil inson sifatida o‘z ma’naviy bilimi va saviyasi yetuk bo‘lishini istar ekan, xalqimizning ana shu durdonalarni o‘rganish asosida boy, sermazmun ma’naviy dunyosini shakllantirmog‘i lozim. Zero, “Umumiy psixologiya” darsligida ta’kidlanishicha, “Millat va elatlarning til boyligi aforizmlar, maqollar, donishmandliklar, matallar sifatida shakllangan, yuksak mantiqiy yuklamaga ega bo‘lgan yig‘iq nutq turi lakonik, ya’ni yig‘iq, qatra nutq deyiladi. Yetti o‘lchab – bir kes, sabrning tagi – oltin. Qatra nutq ba’zi o‘rinlarda juda katta ma’no anglatadi, xulq, faoliyat va muomala uchun manba rolini bajaradi: Салют!, Марш! va boshqalar” [73;478].

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning o‘zbek milliy an‘analari, urf-odatlariga qiziqishlari ancha kuchli bo‘lganligi uchun eng faol, sodda qolip gaplarni o‘zlashtirishlari osonroq kechadi. Biz yuqorida keltirilgan qolip gaplar orasidan 2–4-sinflar uchun quyidagilarni ajratdik:

Assalomu alaykum. Vaalaykum assalom. Salom. Oting nima? (Sening oting nima? Sening isming nima?) Familiyang nima? Sen necha yoshdasan? (Yoshing nechada?) sening /Sizning/ familiyang /iz/ nima? Kel(ing), tanishaylik! (tanishamiz)! Xayr. Sog‘ bo‘ling. Hormang! Bor bo‘ling! Xayrli tun O‘qishlaring yaxshimi? Yaxshi. Zo‘r. Rahmat. Marhamat. Arzimaydi. Iltimos, kechir/ing/! Bo‘pti, mayli. Ha. Xo‘p. Yo‘q. Mayli. Yaxshi. Mumkin emas. Bo‘pti. Qoyil! Mazza! Bor, ket! Xo‘p (bo‘ladi). Bo‘pti. Kirsam maylimi? So‘rasam bo‘ladimi?

Umumiy o‘rta talim bosqichida (5–9-sinflarda) ta’lim oluvchining diqqatini qolip gaplarning (bir dars tarkibida 1–3 qolip gapning) ma’nolari, qo‘llanish xususiyatlariga qaratiladi, nutqiy vaziyatlar bilan bog‘lab ishlatish o‘rinlariga urg‘u beriladi. Tabiiyki, ushbu bosqichda o‘quvchilarning ijtimoiy munosabatlariga kirib borishdagi hayot tajribasi, ruhiy o‘sishi, ma’naviy kamolotini hisobga olgan holda qolip gaplar tanlanadi. Masalan,

Xo'p bo'ladi, albatta bajaraman replikasida so'zlovchi biror lavozimdagi shaxsga bo'ysunishi odobini ifoda etadi. Siz haqsiz replikasida ikki teng lavozimdagi kasb egalarining o'zaro kelishuvi odobi ko'zda tutiladi.

5–9-sinflarda o'quvchilar quyidagi qolip gaplar bilan tanishadilar:

*Sog'liqlaring yaxshimi? O'zing sog'-
salomatmisan? Tuzukmisan? O'qishlaring qalay? O'zingniki-
chi? Ishlar qalay? Yaxshi yuribsanmi? Yomon emas. Juda soz! Yaxshi emas. Qa
laysan? Xafa ko'rinasan. Yana nima bo'ldi! Ko'rishguncha (xayr)! Muvaffaqiyat
tilayman! Yoqimli ishtaha! Kechirasan/siz/, bilmabman! Tomog'im quridi. Yura
gim sezuvdi. Ajabo! Mayda gap (ezma) bo'lma! Xafa qilgan bo'lsam, kechir/in
g! Hechqisi yo'q! Zarari yo'q! Yo'q, bo'lmaydi. Jonim bilan. Bemalol. Albatta.
Muncha (qanday) yaxshi! Labbay. Eshitaman!..., Nima deb qo'yay? Boshqa joyg
a tushib qolding(iz). Nima edi? Nima demoqchisan o'zi? Nima qilib turibsiz? Sh
unday, o'zim. Qayoqqa? Yana qaytar(ing)-chi; O'-
o', sen o'zingni kim deb o'ylayapsan? Yo'g'-
ey, shunaqami? Nima gap? Nega endi? Nima qildi? (A 4mo?) Bilmasam? Yo'q
ol, Ko'zimga ko'rinma! Toshingni ter! Qulog'iga gap kirmaydi. Mana bu boshq
a gap! Qotirdim-
a? Bu gaping yaxshi! Tayining bormi o'zi? Menga baribir. Kim bo'libsiz? Yaxs
hi emas! Senga mumkin emas, bo'lmaydi! Bo'ldi qil(ing). Yo'q, aslo! Afsus. Atta
ng! To'g'ri emas. To'g'ri kelmaydi! Yo'q, bo'lmaydi. Yo'q, o'ylama ham! Qand
ay bo'larkin? Nima desambo'ladi? Rostmi? Rost gap. Ishonaver. To'g'risi shu.
Shubham bor. Kafolati bormi? Qarshiman! Yo'q dedimmi, yo'q! Xo'p, deng. Yo'
q demang. Bundan chiqdi,... Demak.*

Qolip gaplarni 2 turga ajratish mumkin: 1) og'zaki maishiy nutqqa xos, 2) kasbiy, rasmiy-idoraviy nutqqa xos. Badiiy asarlarda personajlarning nutqi so'zlashuv uslubida bo'lgani uchun ularda birinchi turdagi qolip gaplar uchraydi. Kasbiy nutqqa, rasmiy-idoraviy nutqqa xos qolip gaplar dialog namunalari (modellari) orqali darslik m

avzulari bilan bog‘liq ravishda kiritiladi. “O‘zbek tili” darsliklarining ayrim sahi falarida shunday namunalar mavjud. Ayrim qolip gaplar, darsliklar amaliyotida bo‘lganidek, “Nutqingizda foydalaning” degan topshiriq bilan 2-berib o‘tiladi. “O‘zbek tili” darsliklarida qolip gaplar aksariyat holatlarda rus tiliga tarjima qilinmay, zaruriyatga qarab ayrimlari qaysi nutqiy vaziyatlarda qo‘llanishi izohlanmay taqdim etilgan. Bu holat esa o‘zbek tilidagi qolip gaplarni o‘zbekcha-ruscha lug‘at shaklida tayyorlash va o‘quvchilarni shu materiallar bilan ta‘minlash kerak degan xulosaga asos bo‘ladi. Shunga qaramay, dars lug‘ati ustida ishlash jarayonida qolip gaplarning tarjimasini o‘quvchilarga aytib turib lug‘at daftariga yozdirishi usuli ham naf beradi.

Tadqiqot ishimizning eng qiyin jihati, asosiy muammo o‘zbek tilidagi aksariyat qolip gaplarning, shablon-so‘z va iboralarning ruscha muqobilini topish bilan bog‘lanadi.

O‘zbek tilidagi gaplarni o‘qib, mazmunini tushunish yo‘lida tarjima texnikasi o‘rganiladi. Dastlabki kezlarda, ya‘ni ilgari tarjima texnikasi ustidagi ishlar amalga oshirilmagan bosqichda o‘quvchilar gapni so‘zmaso‘z, so‘z va so‘z shakllarini gapda berilgan tartibda rus tiliga tarjima qilish harakatida bo‘ladilar. Bunday tarjima so‘z birikmalari yoki gaplardan ba‘zan fikrni anglab bo‘lmaydigan ruscha so‘zlar ketma-ketligini vujudga keltiradi va mazmuniy noaniqlikka sabab bo‘ladi. Metodist olim R.Yo‘ldoshev nazorat materiallari asosida o‘quvchilarning quyidagi kabi xato o‘girmalarini misol qilib keltiradi: *ana u stolda* –

вот тот на столе (на этом столе o‘rniga), beshinchi sinfda –

пятый в классе (в пятом классе o‘rnida), maktab hovlisida –

школа во дворе (в школьном дворе o‘rniga) [21,128]. U so‘zmaso‘z tarjimaning noaniq chiqish sabablarini keng bayon qiladi. Keltirilgan misol

larda fikrni to‘g‘ri chiqarish imkonini bermagan narsa –

bu aniqlovchili birikmada aniqlanmishning turlanishi bo‘lib, aniqlanmishning shakli aniqlovchiga ham tegishli (yashirin moslashuv). Rus tilida bu holat aniqla

vchi va aniqlanmishning son va kelishikda moslashuvi orqali o'z ifodasini topadi. Bunday farqni bilmagan o'quvchi avval aniqlovchini rus tiliga bosh kelishikda o'giradi, keyin turlangan aniqlovchini tegishli shaklda tarjima qiladi.

O'zbek tilidan rus tiliga so'zma-

so'z o'girish mumkin bo'lgan qolip gaplar esa ko'p emas. Aksariyat so'zma-so'z tarjima qilinmaydigan gaplar rus tilidagi ekvivalentlaridan yo leksik jihatdan, yoki grammatik shakl jihatdan, yohud ham leksik, ham grammatik jihatdan ma'lum farqlarga ega. Buni ikki til hodisalarini chog'ishtirish orqali yaqqol ko'rish mumkin.

O'zbek tilidagi qolip gaplar, shablon-

so'z va iboralar rus tilida turlicha ifodalanadi:

1. Ikkala tildagi ushbu til hodisalari leksik va grammatik jihatdan to'liq mos kelib, so'zma-so'z tarjimaga imkon beradi. Masalan: *Sog' bo'ling.*–

Будьте здоровы. Ishlar qalay? – Как дела? Labbay, eshitaman! –

Алло, слушаю! Майли! – Ладно. Marhamat. – Пожалуйста. Iloji yo'q. –

Нет возможности.

Keltirilgan ushbu misollardagi o'zbekcha so'zlar rus tilida lug'aviy jihatdan o'z muqobil tarjimasi bilan berilgan. Masalan: *sog' – здоров (ый), qalay –*

как, ish – работа, дела, eshitaman –

слушаю va *hokazo*. So'z shakllari ham o'zbek va rus tillarida mos keladi: *bo'ling – будьте* kabi.

O'zbekcha qolip gap ikki, ko'pi bilan uch so'zli bo'lsa, uni so'zma-so'z tarjima qilganda, ruscha so'zlarning gapdagi tartibi o'zgargan vaziyatda bo'lsa, mazmunini tushunish mumkin bo'laveradi. Masalan: *Sog' bo'ling.*–

Здоровы будьте. Ishlar qalay? –

Дела как (какие)? Eng yaxshi tilaklarimni qabul eting! –

Мои самые лучшие пожелания примите! Lekin o'quvchi darhol o'z xatosini anglab, tarjimadagi so'zlar tartibini rus tilining qonun-qoidalariga moslashtiradi.

2. O‘zbek va rus tillaridagi qolip gaplar leksik jihatdan qisman mos kel maydi. Masalan: *Oq yo‘l!* –

Светлого пути! Хайрли tun! Спокойной ночи! Доброй ночи! ... aytganingiz k elsin! Пусть сбудутся ваши пожелания. Ishlaring (o‘qishlaring) yaxshimi? – Как дела (учёба)? Nima yangiliklar bor? – Какие новости (есть)? Yaxshimisan, o‘g‘lim? – Как ты, сынок? Yaxshi yuribsanmi? – Как ты поживаешь? Zarari yo‘q! – Ничего плохого.

Ushbu misollarda *oq* so‘zi светлый deb, *hayrli* so‘zi спокойный deb, *ke lsin* so‘zi пусть сбудутся deb, *yaxshimisan* so‘zi как deb, *nima* so‘zi какие d eb, *yuribsanmi* so‘zi поживает deb, *zarar* so‘zi ничего deb o‘girilgan.

O‘zbekcha ba‘zi qolip gaplardagi sifat (*yaxshi* so‘zi) ruschada so‘roq so ‘z (*как* so‘zi) bilan beriladi. Masalan: ***Yaxshi*** yuribsanmi? –

Как поживаешь. Yaxshimisan? – *Как ты? Sog‘liqlaring yaxshimi?* –

Как твое здоровье? O‘qishlaring yaxshimi? –

Как учеба? Oying yaxshimilar? –

Как (твоя) мать? Ushbu tarjimalarda ***как*** rus tilida so‘roq so‘z, *yaxshi* – sifat. Demak, o‘quvchilar *yaxshi* so‘zini *как* deb rus tilida ifodalash kerakligini bilishlari lozim bo‘ladi.

Bunday o‘girmalar asosan so‘roq gap shaklidagi qolip gaplarda yuz ber adi. Darak gaplarda istak mazmunidagi jummalarda *yaxshi* so‘zi o‘z lug‘aviy ma ‘nosida, shuningdek, ruscha qolip gapga xos, lug‘aviy jihatdan farqli sifatlar bi lan beriladi. Masalan: ***Yaxshi boring:*** –

Счастливой поездки. Yaxshi yotib turing. –

Спокойной ночи. O‘quvchilar bunday tarjimalarni suhbatdoshlarning bir- biriga bildiradigan tilaklaridan kelib chiqqan holda amalga oshiradilar.

Bunday tarjimada ruscha gap g‘aliz, tushunarsiz bo‘lib qoladi. “*Yaxshi b oring*”, “*Yaxshi yotib turing*” kabi qolip gaplarda *yaxshi* so‘zini o‘z lug‘aviy m

a'nosida o'g'irish uchun istak bildirish mazmunida “желаю” so'zini ishlatishga t o'g'ri keladi: “Желаю хорошей поездки”, “Желаю хорошо отоспаться” kabi.

Bunda fe'l shakli rus tilida fe'ldan yasalgan ot bilan ifodalanadi. Masalan: *Yaxshi boring. – Счастливой поездки.*

Ba'zi qolip gaplar, shablon so'z-gaplar va iboralar rus tilida sinonim tarjimalar bilan ham beriladi. Lekin bu tarjimalarning bittasi rus tilida faol ishlatilsa, ikkinchisi yoki qolganlari nafaol, ba'zilari nutqda umuman ishlatilmaydi. Bu o'rinda A.Jo'rayevning quyidagi fikrlariga qo'shilmay bo'lmaydi: “Madaniyatlararo muloqot qilish suhbatdoshdagi til birliklarini nutqda nafaqat til me'yori nuqtai nazaridan to'g'ri qo'llash, balki ularni turli nutq vaziyatlarida til sohiblari madaniyatiga mos ravishda ishlatishni taqozo etadi. Bunday holat chet tili o'qituvchilarining lingvokulturologik layoqatga ega bo'lishini taqozo qiladi” [142, 4]. Masalan: *Xayrli tun! –*

Спокойной ночи! Доброй ночи! Ushbu ikki xil tarjimadan bittasi (*Спокойно й ночи!*) til sohiblarining nutqida faol hisoblanadi. Buni bilmagan o'qituvchi tarjimaning ikkinchi variantini tanlashi va o'quvchilarni ajablantirib qo'yishi mumkin. Ushbu o'girma to'g'ri bo'lsa-da, u nutqda ko'pincha ishlatilmaydi.

Quyidagi misollarda ham o'zbekcha so'z rus tiliga farqli tarjima qilinadi. Masalan: *Zo'r. – Отлично. Mixday. – Как штык. Ништяк. Yo'q, bo'lmaydi. – Нет, не пройдет (не пойдёт, не годиться). Jonim bilan. – С удовольствием (С любезностью).*

Yuqoridagi holatlarda rus xalqi qadriyatlari namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida buyumning to'ppa-to'g'ri ekanligi, holatning yaxshiligi mixga qiyoslansa, rus tilida miltiq nayzasiga taqqoslanadi.

O'zbek va rus tillarida qolip gaplar, shablon so'z-gaplar va iboralar grammatik jihatdan mos kelsada, ayrim so'zlarning tarjimada aks etmasligi ularni farqlantiradi, so'zma-

soʻz tarjima toʻliq boʻlmaydi. Masalan: *Qiyin boʻlmasa.* –

Если не трудно. Мумкин boʻlsa. – *Если можно. Siz kim boʻlasiz?* –

Кто вы?

Ruscha oʻgirmada aks etmaydigan soʻz leksik qiyinchilik tugʻdirishi mumkin. Masalan: *Xoʻp, albatta, aytib qoʻyaman. Yoʻq, boshqa joyga tushib qoldingiz.* – ...

Oʻquvchilar *deb qoʻyay, aytib qoʻyaman, tushib qoldingiz* koʻmakchi feʼll i birikuvlarni tarjima qilish uchun *deb (demoq), qoʻyay (qoʻymoq), tushib (tushmoq), qoldingiz (qolmoq)* feʼllarini ayrim-ayrim oladilar, natijada maʼno toʻgʻri ifoda topmaydi.

Oʻqituvchi oʻquvchilarga ikki feʼlning birinchisini rus tiliga tarjima qilishni taklif etishi toʻgʻri boʻladi: *deb(demoq) – сказать, aytib (aytmoq) – сказать, tushib (tushmoq) – понасть.* Buning natijasida qolip gapni rus tiliga oʻgirish va mazmunini tushunish imkoniyati yuzaga keladi.

Koʻmakchi feʼlli birikuv tarkibidagi baʼzi koʻmakchi feʼllar, xususan, *qoʻymoq* feʼli ruscha tarjimada aks etmaydi. Masalan: *Salom, deb (aytib) qoʻy.* – *Передай привет. Qoʻy soʻzi передай feʼlida* aks etmaydi.

Ayrim oʻzbekcha qolip gaplarning ruscha tarjimasida soʻz orttiriladi. Masalan: – *Nima deb qoʻyay?* – *Что ему передать. Omadingiz kelsin!* –

Пусть удача сопутствует Вам! Иltimos, kechir! –

Прошу тебя, извени! Yoʻq edilar! –

Его (ее) нет! Ovora boʻlib nima qilarding? –

незачем было утруждать себя.

Keltirilgan oʻzbekcha qolip gapda *unga, sizning, sendan, u, oʻzingni* soʻzlarini ishlatish shart emas, rus tilida *ему, Вам, тебя, его (ее), себя* soʻzlarini ishlatish shart.

O‘quvchi rus tiliga tarjimaga gap g‘alizlikdan xalos bo‘lishi uchun yetish may turgan so‘zni qo‘shadi. Lekin bunday qilinmagan taqdirda ham mazmun an glashilaveradi.

Xuddi shuningdek, qolip gaplardagi to‘liqsiz fe‘llar ruscha tarjimada aks etmaydi. Masalan: – (Agar) *qiyin bo‘lmasa*. –

Если тебе не трудно. Rus tiliga qilingan o‘girmada *bo‘lmasa* so‘zi o‘z ifodas ini topmaydi. Boshqacha aytganda, bu kabi misollarda *bo‘lmoq* so‘zi ko‘pincha ruscha tarjimasida tushib qoladi. Aslida “*Если тебе не будет трудно*”, “*Если тебе можно (возможно)*” deyish kerak edi. Lekin rus tilida bunday iboralarg a kamdan-kam yo‘l qo‘yiladi.

Shuni ham eslatish joizki, o‘zbek tilida (Agar) *qiyin bo‘lmasa* kabi gapla rda ko‘pincha *agar* so‘zi ishlatilmaydi.

O‘zbekcha qolip gap tarzida ishlatilgan ibora rus tilida oddiy fe‘l bilan if odalanadi. Masalan: *Qo‘limdan kelmaydi*. –

Не могу. Ushbu ibora rus tilida ba‘zan “*Это не в моих силах*” deb berilishi h am mumkin.

Qolip gaplar orasida ibora bilan ifodalanadiganlari ko‘p emas. Chunonc hi: *Ishingiz o‘ngidan kelsin!* – *Удачи в работе! Qulog‘im sizda!* –

Слушаю! Qayoqdan oftob chiqdi? Qulog‘iga gap kirmaydi. –

Не слушается. Yo‘l bo‘lsin? – *Куда путь держите? Куда тебе (Вам)?*

O‘quvchilar o‘zbekcha iboralarni ruscha tarjimasi bilan eslab qolishlari ke rak bo‘ladi.

Ba‘zi o‘zbekcha qolip gaplardagi *nima* so‘roq so‘zi rus tilida какой so‘roq so‘zi bilan ifodalanadi. Masalan: *Nima yangiliklar bor?* – *Какие новости?*

Bunday o‘girmalar asosan so‘roq gaplar bilan bog‘liq ravishda kuzatilad i. O‘quvchilar *nima* so‘zini *какой* deb rus tiliga o‘girishlari kerak bo‘ladi. Leki n ular avval bu so‘zni o‘z lug‘aviy ma‘nosida rus tilida ifodalab ko‘radi (*Nima yangiliklar bor?* –

Что новости есть?). Tarjima g'aliz chiqqach, o'z o'girmalarini "Какие новости есть?" deb to'g'rilaydilar.

3. O'zbek va rus tilidagi qolip gaplar bir-biriga leksik jihatdan mos kelgan holda, ba'zan grammatik jihatdan farqlanadi. Quyidagi ana shunday tafovutli holatlarni ko'rib chiqamiz.

Ayrim qolip gaplarda o'zbek tilidagi egalik qo'shimchalari, shuningdek, bosh kelishikdagi kishilik olmoshlari rus tilida притяжательный олмошлар (мой, твой, наш va b.), shuningdek, bosh kelishikdagi kishilik olmoshlari (я, ты, он va b.) bilan emas, balki дательный келишикдаги kishilik olmoshlari bilan beriladi: *Yoshim o'nda. – Мне десять лет. Мен нима ҳам дердим. –*

ну что же мне сказать. Kirsam bo'ladimi (maylimi)? –

Можно мне зайти (ли) мне знать? O'zingiz bilasiz. – Вам знать.

Ba'zan fe'lning buyruq-istak mayli shakllari ham rus tiliga shu tarzda tarjima qilinadi: *Qanday qilay! – Как мне поступить?*

O'quvchilar "Yoshim o'nda", "Men o'n yoshdaman" kabi yosh bilan bog'liq gaplarni rus tilida ifodalashda *yoshim* so'zini мой лет, *men* so'zini я deb tarjima qilsalar, jumla ruscha tuzilmagan bo'lib, g'alizligi bilinib turadi. Bu holat gapni rus tiliga o'girayotgan o'quvchini ikkilantirib qo'yadi. Bexato tarjimaga y o'llash uchun undan rus tilida kishining yoshi bilan bog'liq qanday savollar berilishi va qanday javob qaytarilishi kerakligi so'raladi. Shubhasiz, o'quvchi "Сколько тебе лет?" "*Мне десять лет*" gaplarini aytadi. Bunday vaziyatda o'zbekcha qolip gap rus tilining qonun-qoidalari asosida tuzilgan, grammatik jihatdan farqli qolip gap bilan almashtiriladi. Demak, o'zbekcha qolip gapning mazmunini tushunishda va uni rus tilida ifodalashda so'zlashuv vaziyatiga mos ruscha shaklini eslash malakasini egallay borish talab etiladi.

"Kirsam bo'ladimi?" gapini rus tiliga tarjima qilishda o'quvchi ega vazifasidagi *men* so'zini xayolan tiklab, uni я deb rus tilida ifodalasa, tarjimadan maz

mun chiqmaydi. Bu o'rinda u *bo'ladi* fe'lini *можно* deb tushungandan keyingi na *kirsam bo'ladimi* birikmasini *можно войти* deb anglay oladi va shundan ke lib chiqqan holda qolip gapni "*Можно ли мне войти*" deb rus tiliga o'giradi. Bunda ruscha fe'l *мне* so'zini qo'llashga undaydi. Shuni ham eslatish joizki, ru siyzabon o'quvchilarga mo'ljallangan amaldagi "O'zbek tili" darsliklarida fe'lni ng -

sa bo'ladi shakli mavzu darajasida ajratib o'rganilmaydi. Shunga ko'ra ham o' qituvchi ushbu shakl haqida qisqa ma'lumot berib o'tishi, uning so'zlashuv nut qiga xosligi, kitobiy nutqqa mansub -

(i)sh mumkin shakliga ma'nodosh ekanligini eslatishi maqsadga muvofiqdir. B uni misollar asosida qiyoslab ko'rsatishi foydadan xoli emas: *Kirsa bo'ladimi?* (Так спрашивают разговорной речи) –

Kirish mumkinmi? (Так спрашивают в деловой речи).

O'zbek tilida egalik qo'shimchali sifatdash turlangan holatlarda rusiyzab on o'quvchilarning ushbu so'z shakllarining grammatik ma'nosini anglashlari qi yin kechadi. Chiqish kelishigi shaklida kelgan sifatdash *xursandman* so'zi bilan birgalikda qolip gapni hosil qilib, rus tilidagi fe'lning noaniq shakliga teng kel adi. Masalan: – *Tanishganimdan xursandman.* –

Рад был (с вами) познакомиться.

Odatda, chiqish kelishigidagi sifatdash rus tilida тому что, от того что kabi предлоги birikmalar bilan boshlanuvchi fe'l shakli orqali ifodalanadi: *su yunganimdan qichqirib yubordim* –

я закричал от того, что обрадовался, kelmaganidan xafa bo'ldim –

я обижен тем, что он не пришел kabi. Bu ikki tilda mos keladigan tarjimad a shunday bo'ladi, lekin "*Tanishganimdan xursandman*" kabi qolip gaplarda o'zbekcha chiqish kelishigidagi sifatdash rus tilida fe'lning noaniq shakli bilan if odalanishi kerak. Agar o'quvchi *xursandman* so'zini рад so'zi bilan o'gira olsa, u holda o'z-

o'zidan *tanishmoq* fe'lini познакомиться deb o'girish orqali ruscha qolip gapni

yuzaga keltira oladi. Bunda u chiqish kelishigi qo'shimchasini rus tilida maxsus ifodalamaydi. Ya'ni uni tarjima paytida tushirib qoldiradi. Bunday tarjimalar o'qituvchidan qo'shimcha izohlarni talab qiladi. Tegishli ko'nikmalarni hosil qilish uchun "*Kelganingdan xursandman*", "*G'alaba qilganingdan xursandman*" kabi gaplarni tarjima uchun berishi mumkin.

O'zbek tilidagi ba'zi qolip gaplarni rus tiliga ag'darishda so'zga qo'shilgan ko'plik va egalik qo'shimchalari tushirib qoldiriladi. Masalan: *O'qishlaring qalay? – Как учеба? Ishlaring yaxshimi? – Как дела?*

Bunday tarjimada o'quvchi suhbatdoshi undan nima haqida so'rayotganiga e'tibor berishi kerak bo'ladi. U *qalay, yaxshimi* kabi so'zlarni rus tilida *как* deb o'gira olsa, *o'qish, ish* kabi so'zlar o'z-

o'zidan qo'shimchalari tushirib qoldirilgani holda *учеба, работа* deb anglaydi, ya'ni o'quvchi bu so'zlardagi qo'shimchalarni chetlab o'tib, ruscha qolip gapni esga tushiradi.

O'zbek tilidagi -

niki qo'shimchasini qabul qilgan kishilik olmoshlari rus tilidagi *притяжательный* olmoshlari, ba'zan o'zlik olmoshi bilan beriladi. Masalan: – *O'zingniki-chi? – А твой (свой)?*

-

niki qo'shimchasi o'zlik olmoshiga qo'shilganda rus tilida *свой* so'zi bilan ifodalanadi. Ana shu holat so'z shaklini anglashda qiynaladigan o'quvchini ikkilanti

rib qo'yishi mumkin: *o'z uyi – свой дом, o'zi – сам, o'zing – ты сам, o'zingniki, твой свой, свой* kabi tarjimalarni bilmay boshi qotadi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilardagi ikkilanishlarni yo'qotish maqsadida "Men kitobimni oldim" kabi gaplar misolida egalik qo'shimchasi rus tilida (*твой*) *свой* so'zi bilan ifodalanishini eslatib, -

niki qo'shimchasi rus tilida ikki xil tarjima qilinishini tushuntirib o'tadi. Masalan, *bu meniki, bu seniki, bu uniki* kabi birikmalarning har birini rus tiliga ikki xil tarjima qilish mumkin: *это мой, это (мой) свой, это твой, это (твой) сво*

й, это ego (ee), это (ego, ee) свой kabi. **-niki** qo‘shimchasi avval *men o‘zim* – *я сам* tarzida (shaxsning o‘ziga bog‘liq ish-harakatga ishora mazmunida) tushuntiriladi, so‘ng *o‘zinniki, o‘zingniki* kabi narsa-

buyumning shaxsning shaxsiy mulkiga ishora ma’nosidagi holatlarni мой *свой, твой свой* tariqasida anglatiladi. Lekin nutqda мой, твой so‘zlari ko‘pincha tushirib qoldirilib, shu ma’noni свой so‘zining o‘zi bilan ifodalash mumkinligi ma’lum qilinadi.

O‘zbek tilidagi shaxs-son qo‘shimchalari rus tilida прятательный olmoshi bilan ifodalanadi. Masalan: ***Sog‘-salomatmisan? – Как твое здоровье?***

O‘zbek tilidagi **“Sog‘-salomatmisan?”**, **“Tuzukmisan?”** kabi replikalar rus tilida ikki xil ifodalanishi mumkin: **“Ты здоров?”**, **“Как твое здоровье?”** Birinchi variant kishining real holati –

salomatligi yomon ko‘ringan paytda beriladi. Ikkinchi variantda yashiringan ega (sen so‘zi), unga ishora qiluvchi shaxs-son qo‘shimchasi (*-san*) rus tiliga прятательный олмоши bilan tarjima qilinadi. Aslida “Ты здоров?” savoliga o‘zbekcha **“Tuzukmisan?”** savoli mos keladi, chunki u rangidan, umumiy holatidan betoblighi bilinib turgan odamga beriladi. “Salomatmisan?” deb so‘raganda soppa-sog‘ odamning ahvoli shunchaki aniqlanadi. Bunday savol rus tilidagi *здоровье, состояние* so‘zlari bilan ifodalangani ma’qul.

“Sog‘-salomatmisan?” so‘roq gapini rus tilida “Ты здоров?” deb ifodalash so‘zma-so‘z va shaklan tarjimada qo‘l keladi. Lekin uni **“Как твое здоровье?”**, **“Как твое самочувствие?”** deb o‘g‘irish ruslarga xos hol-ahvol so‘rash qoidalarini eslash orqali mumkin bo‘ladi. Bu qiyinroq, albatta.

O'quvchi **“Ты здоров?”** degan tarjimani aytganda, shu fikr rus tilida yana qanday ifodalanishi mumkin degan savolni o'rtaqa tashlash lozim bo'ladi.

O'zbek tilidagi hozirgi-kelasi zamon shaklidagi fe'llar rus tilida hozirgi zamon shaklida ifodalanadi. Masalan: – *Eshitaman...* (hozirgi-kelasi zamon) – *Слушаю* (hozirgi zamon).

Bunday qolip gaplar oz emas. Chunonchi: ***Muvaffaqiyat tilayman.– Желаю успеха. Taniy(yap)sizmi? Xafa ko'rinasan? O'zing bilasan? Ovora bo'lasan!***

Nutq amaliyotida o'zbek tilidagi hozirgi-kelasi zamon fe'li shakli rus tilida hozirgi zamon shakli bilan berilish holatlari ham uchrab turadi. Odatda, *o'qiyman* fe'li rus tiliga kelasi zamon shaklidagi fe'l bilan o'giriladi: *буду учиться, буду читать, yozaman* fe'li –

буду писать deb ag'dariladi. Lekin rus tilida hozirgi zamon shakli hozirgi-kelasi zamonni ham anglatishi mumkin: *учусь, пишу* kabi.

Ruscha hozirgi zamon shaklidagi fe'lni o'zbek tiliga tarjima qilishda ba'zan xatolarga yo'l qo'yiladi. Masalan, *slushayu* – *eshityapman, eshitaman, eshitib o'tiribman* kabi o'girilganda, *eshityapman* ruschaga *слышаю, eshitaman* – *слушаю* kabi tarjima qilinishi kerak.

O'quvchi *eshitaman* deyish o'rniga *eshityapman* desa, telefon orqali suhbatlashayotgan odam avval boshda meni eshitmagan bo'lsa, endi eshitayotgan ekan degan xayolga boradi. Lekin ikkala variant fe'l shaklida suhbatdoshlar muloqotga kirishaveradilar.

O'zbekcha fe'lning hozirgi-kelasi zamon shakli rus tilida ba'zan fe'lning buyruq-istak mayli bilan ifodalanadi. Masalan: ***Kechirasiz! Avf etasiz!*** (hozirgi-kelasi zamon fe'li). – ***Извени́те*** (buyruq-istak maylidagi fe'l). ***Aybga buyurmaysiz!*** (hozirgi-kelasi zamon fe'li)– ***Извени́те (простите). Не примите*** (buyruq-istak maylidagi fe'l) за вину.

O'zbek tilidagi ba'zi dialogik replikalarda fe'lning II shaxs buyruq-istak mayli ma'nosi hozirgi-

kelasi zamon shakli orqali ham ifodalanadi. Masalan, “*Kechirasan(siz)!*”. Ushbu shakl rus tilida soʻzlovchilarni gap mazmunini toʻgʻri anglay olmaslikdan iborat qiyin vaziyatga solib qoʻyadi. Soʻzma-soʻz, grammatik jihatdan mos shaklda tarjima qilinsa, savol прощаете degan ifoda tarzida yodga tushirilishi kerak. Lekin rus tilida suhbatdoshga dabdurdustdan bunday deb murojaat qilinmaydi. Oʻquvchiga “*Kechirasiz*” soʻzi *kechiring* soʻzi oʻrnida kelgani aytilsa, u *из вежливости, поспешности* soʻzlaridan foydalanib tarjima qilish kerakligini bilib oladi.

Baʼzan feʼl oʻrnida otning oʻzi aytilishi mumkin: *Uzr! Uzr* – ot, bosh kelishikda. Lekin *kechirasiz* feʼli oʻrnida ishlatilgan.

Ayrim hollarda ikkala tilda soʻz kelishik jihatdan farqlanadi. Masalan: – *Bu menga bogʻliq emas.* – *Это от меня не зависит.*

Oʻzbek tilidagi kelishik qoʻshimchalarining rus tilida mos shakllari boʻlgan idek, farqli ifodalanadigan qoʻllanish jihatlari ham bor. Ikki tildagi kelishiklarning farqlanadigan holatlari koʻpincha boshqaruv yoʻli bilan bogʻlanadigan soʻz birikmalarida, aniqrogʻi, feʼl boshqaruvida kuzatiladi. “*Bu menga bogʻliq emas*” qolip gapida ham bogʻliq soʻzi men kishilik olmoshining joʻnalish kelishigida boʻlishini taqozo etsa, rus tilida *зависит* feʼli *от* предлоги родительный kelishikni boshqaradi. Farqlanish shu tufayli yuzaga keladi.

Baʼzan oʻzbekcha qolip gapdagi soʻzning egalik qoʻshimchasi ruscha tarjimada ifodalanmaydi. Masalan: – *Ishingiz oʻngidan kelsin.* – *Удачи в работе.*

4. Oʻzbek tilidagi qolip gaplar rus tilida leksik va grammatik jihatdan butunlay mos kelmaydigan analogiyasi bilan beriladi. Masalan: *Xormang.* – *Бог в помощь.* – *Shukur.* – *Слава Богу.*

Oʻzbek tilidagi “*Oting nima?*”, “*Otim...*” qolip gaplari rus tilida leksik va grammatik jihatdan farqli ifodalanadi: “*Как тебя зовут?*”, “*Меня зовут ...*”. Bu yerdagi *ot, nima* soʻzlari ruschaga *имя, что* deb emas, *зовут, как* deb oʻgiriladi. *Oting, otim* soʻzlaridagi mos egalik qoʻshimchasi rus tilida *предлогсиз родительный* kelishik shaklidagi kishilik olmoshlari bilan ifodalanadi: *меня, тебя* kabi.

Oting nima? Otim falonchi savol-

javobida egalik qo'shimchalari rus tilida притяжательный olmoshlari (*moy, tvo y*) bilan emas, balki родительный келишигидаги kishilik olmoshlari bilan ifodalanadi. Bu o'rinda ham o'quvchi ruscha so'z shaklini qolip gapning mazmunidan kelib chiqib tanlashni o'rganishi kerak. Demak, o'quvchi *oting, otim* so'z shakllarini твое **имя**, мое имя demasdan, тебя зовут, *меня зовут* deb o'girishi kerak bo'ladi. Bu o'rinda ruscha qolip gapda имя so'zi o'rnida зовут fe'lining ishlatilishi o'z ta'sirini o'tkazadi, deb hisoblash lozim.

O'zbek tilidagi shablon so'z-

gaplar va iboralar leksik jihatdan mos kelmaydi. Masalan: **Zo'r** –

Отлично. Mixday. – Как штык (Нуштык). Xizmat bo'lmasa. –

Если не затруднит. Tarjima chog'ida o'quvchilar o'zbekcha so'zlarning lug'aviy ma'nosini aniqlashga harakat qiladilar. Ular *zo'r* so'zining сильный, *mixday* so'z shaklining как гвоздь, *bo'lmaydi* fe'lining не бывает, *jon* so'zining душа degan tarjimalarini topishlari mumkin. Bunday paytlarda bolalarga kontekst va nutqiy vaziyatdan kelib chiqib rus tilida aytiladigan so'zlarni eslash taklif qilinadi. *Zo'r* so'zi biror narsadan hayrat ma'nosini bildirganda rus tilida здорово so'zi eslanishi mumkin. Demak, o'quvchida o'zbekcha shablon so'z-gap yoki so'z shaklini anglash uchun ba'zan rus tilida o'xshash nutqiy vaziyatlarida aytiladigan replikalarni xotirlash kerak ekan degan xulosa shakllanishi zarur.

O'zbek tilida harakat nomi fe'l shakllaridan biri hisoblanadi. Rus tilida fe'ldan yasalgan otlar (отглагольное имя существительное) bor. O'zbek tilidagi harakat nomlari rus tilida otlar bilan ifodalanadi: *suzish* – плавание, *yurish* – поход kabi. Qolip gaplardagi ba'zi fe'llar ham o'zbekchadan rus tiliga ana shunday otlar bilan beriladi. Yuqorida keltirilgan misolda boring fe'li поездка so'ziga teng kelgan. Bu yerda so'zma-so'z tarjima emas, balki ruscha muqobil qolip gap keltirilgani uchun shunday o'girma yuzaga kelgan. So'zma-so'z tarjimada “*Yaxshi boring*” “Хорошо

udume” bo‘ladi. Lekin rus tilida shu ma’no-mazmun “счастливой поездки” tarzida bildiriladi.

5. Qolip gapdagi so‘zning rus tilida asl ekvivalenti bo‘lmaydi. Masalan: –
So‘rayvering, bemalol. – *Спрашиваюме* (*bemalol* so‘zining tarjimai yo‘q).

Xullas, ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarning o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning nutqini o‘stirish, shu jarayonda ularga nutqiy muloqot odobini o‘rgatish sinfdan-sinfga izchil olib borilishi lozim.

III BOB.

O‘ZBEK TILI DARSLARIDA RUSIYZABON O‘QUVCHILARGA NUTQIY MULOQOT MADANIYATINI O‘RGATISH METODIKASI

3.1-§. O‘zbek tili darslarida o‘quvchilarga nutqiy muloqot madaniyatini o‘rgatish shart-sharoitlari, vositalari, metod va usullari

Rusiyzabon o‘quvchilarning dialogik nutqini o‘stirish metod va usullari G. V.Rogova, I.N.Vereshchagina va boshqa xorij metodist olimlarining, shuningdek, o‘zbek metodist olimlaridan R.Yo‘ldoshev, X.Muxitdinova, S.Adilova, N.Z.Umarova, G.N.Qurbonova, G.Z.Muhammadjonovalarning tadqiqot ishlari, monografiya va metodik qo‘llanmalari, ilmiy maqolalarida ma’lum darajada ishlab chiqilgan. R.Yo‘ldoshevning 2015-yili nashr qilingan metodik qo‘llanmasida 3–6-sinflar misolida bir necha xil dialogik matn namunasi tanlanib, shu namunalar asosida mazmunan o‘xshash nutqiy vaziyatlar orqali (masalan, o‘quv qurollari sotib olish, mevalar xarid qilish, qovun yoki tarvuz tanlash va hokazo) asta leksik va grammatik jihatdan murakkablashib boradigan so‘zlashuvlarni yuzaga keltirish, bunda o‘quvchilarning mustaqilligini oshira borish yo‘riqlari bayon qilingan. Ushbu yo‘riqlar nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirish sari yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, dialogik matn namunalaridan foydalanish andazasi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda muomala odobi qoidalarini o‘rgatish,

qolip gaplar ustida ishlash mumkin bo'lgan quyidagi ikki yo'nalishni ajratish mumkin:

1) nutqiy muloqot madaniyati elementi kiritilgan dialogik shaklda nutq o'stirish metod va usullari;

2) ushbu yo'nalishda ko'rsatmalilik, ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalarining o'quvchilar dialogik nutqini o'stirishdagi o'rni.

Quyida ana shular haqida ayrim-ayrim so'z yuritamiz.

I. Nutqiy muloqot madaniyati elementi kiritilgan dialogik shaklda nutq o'stirish metod va usullari.

O'quvchilarning o'zbek tilida o'zaro so'zlashuv ko'nikma va malakalarini rivojlantirishning sifati va samaradorligi tanlanadigan metod va usullarga bog'liq. Metod va usullar esa nima o'rgatilishiga qarab tanlanadi. O'rganiladigan materiallarni uch turga ajratishimiz to'g'ri bo'ladi:

1) qolip gaplar, ularning ma'no-mazmuni, rus tilida ifodalanishi, qaysi nutqiy vaziyatlarda qo'llanishi;

2) muomala odobi qoidalari, bu qoidalarining o'zbek tilidagi etiketlarga xos jihatlari;

3) yaxlit so'zlashuv (dialog) namunalari.

Qolip gaplar lisoniy BKMLar sirasiga kiradi. So'z shakli, undagi grammatik vosita ma'nosi, so'z birikmasi yoki gapning mazmuni chet tillarni o'qitish ilmidagi keng tarqalgan vositasiz (прямой), ko'rsatmali-vaziyatli, tarjima-grammatik, qo'llanish holatlarini izohlash, ongli-amaliy, tilni nazariy, nazariy-amaliy, amaliy o'rganish, mim-mem, audio-vizual (audio-lingval), aralash (комбинированный) kabi metodlar yordamida anglatilsa³, qolip gaplar, darsliklarda berilganidek, ko'proq nutqiy namunalar, tarjima va izohlash yo'li bilan tushuntiriladi. O'zbek tilidagi qolip gaplar ma'no-mazmunini o'quvchilarga turli yo'llar bilan anglatish (semantizatsiyalash), jumladan, rus tiliga tarjima qilish va zarur o'rinlarda qo'llanishini izohlash, o'zbekcha qolip gapni rus tilidagi

³ Bu haqda qarang: [89; 70–74-betlar].

ekvivalenti bilan qiyoslash amallarini bajarish, mustahamlashda mashqlar qatori

–
interaktiv usullardan foydalanish yaxshi samaralar beradi. O‘quvchilarning o‘z bek tiliga doir so‘z boyligi, gap tuzish malakalari o‘zbek tilini o‘qitishning umumiy namunaga tayangan holda o‘quvchilarning o‘z nutqini rivojlantirish yo‘nali shida amalga oshirilsa, qolip gaplar ustidagi ishlar tor doiradagi xususiy yo‘nali shni ifoda etadi. Shuning uchun biz lisoniy BKMLar ustidagi yumushlar sirasida umumiy yo‘nalishdagina emas, balki aniq qolip gaplarni o‘rgatish metod va us ullariga ham murojaat etamiz. Dialog namunalari esa o‘qishni o‘rgatish tariqasi da tanishtiriladi, ular o‘rganiladi.

So‘z shaklini, ya’ni so‘zdagi grammatik vositaning ma’nosini ochishda esa tarjima-grammatik metod tavsiya qilinadi. Ushbu metodlar R.Yo‘ldoshevning nomzodlik dissertatsiyasida yaxshi tushuntirilgan

[148; 70–

74]. **Bevositalik metodi** tarjimasiz metodga teng keladi, ya’ni bunda tarjima vositachiligidan foydalanilmaydi. So‘z yoki so‘z shakli ma’nosini, gap (jumla dan, qolip gap) mazmunini anglatishda narsa- buyumlar (ba’zan mulyajlar), predmetli va predmetsiz qilinadigan harakatlarda n, rasmlardan, turli tasvirlar aks etgan videotasvir kadrlaridan foydalaniladi. Shu jihatiga ko‘ra V.A.Xvan o‘z ishida ko‘rsatmali-vaziyatli metodni tavsiya etadi. “O‘zbek tili” darsliklarida aksariyat holatlarda qolip gaplarning ruscha e kvivalentlarini ko‘rsatmay berilganligi bevositalik metodiga amal qilinganlikda n dalolatdir. Ushbu til birliklariga nisbatan tatbiq etilgan ushbu metod aksariya t holatlarda tajribada o‘zini sira ham oqlaganicha yo‘q, aksincha, o‘qituvchilar ni qiyin ahvolga solib kelmoqda.

Darsda aytilgan yoki o‘qilgan so‘z va so‘z shaklini o‘zbek tilidan rus tili ga qilinadigan o‘girmalarga murojaat etilsa, **tarjima metodi** qo‘llangan bo‘lad i. Qolip gaplar mazmunini tushuntirishda tarjimaning o‘zi kifoya qilmaydi: bu nga qo‘shimcha ravishda ushbu dialogik birliklarning nutqda qaysi nutqiy vazi

yatlarda ishlatilishini izohlash, rus tilidagi muqobiliga qiyoslash ham taqozo etiladi. Foydalanilgan metod esa tarjima metodi bo'lib qolaveradi. Ayrim qolip gaplarning o'zbekcha-ruscha lug'ati berib qo'yilsa, ma'no-mazmunni bu tarzda tushuntirish o'quvchilarning asl ehtiyojlarini qondirmaydi: yoshlar ularning qaysi nutqiy vaziyatlarda ishlatilishi mumkinligidan xabar topmay, ba'zan xato gapirishlari mumkin.

O'rniga qarab tarjimasiz anglatish metodi qo'llansa, yana bir xil holatlarda tarjimadan ham foydalaniladi. Bu narsa o'quvchilarning til birligini xato anglatishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda o'zini oqlaydi. **Aralash metod** yuqoridagi ikki metod quymasi sanaladi.

R.Yo'ldoshevning ta'kidlashicha, "Matn namunasini rollar bo'yicha yod olib, o'zaro so'zlashishni tashkil etish o'rgatishning eng kam samara beradigan, lekin amaliyotda ko'p tarqalgan usullaridan biridir. Bunda yangi dialogik matnni har gal quyidagi bosqichlar asosida o'rgatishga to'g'ri keladi: 1) ko'rsatish-tanishtirish; 2) dialogga doir materialni o'zlashtirish bilan bog'liq ishlar; 3) amalda qo'llash" [28;69-b.].

Metodik adabiyotlarda **ko'rsatish-namoyish etish metodiga** alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu metod qolip gaplarning mazmunini tushuntirishga nisbatan tatbiq etiladigan bo'lsa, bunda foydalaniladigan ko'rsatmalilik nutqiy vaziyatli tasvirlar (bajarib ko'rsatiladigan harakatlarning, ijro etiladigan dialoglar) tarzida bo'lishi kerak. Masalan, transportda bolaning keksa kishiga joy ko'rsatishi tasvirlangan rasm va h.k. Keyingi davrlarda bunday tasvirlar multimedia (ovozli tasvir) sifatida hozirlanmoqda.

Darsda kichik-kichik sahna ko'rinishlari ijro etilishi ham ko'rsatish-namoyish etish metodiga xosdir. Bunda ham o'quvchilar nutqiy vaziyatli harakatlarni ko'radilar va dialoglarni eshitadilar. Aslida ushbu metod ham bevositalik metodining takomillashgan holatini ifoda etadi.

Xullas, o'zbek tilidagi qolip gaplarning mazmunini anglatishda quruq o'zbekcha-ruscha lug'atlar emas, balki uch ustunda tavsiya qilinadigan

o'girmalar zarur. Birinchi ustunda o'zbekcha qolip gaplar, ikkinchi ustunda ularning ruscha ekvivalentlari, uchinchi ustunda (zarur holatlarda) nutqiy vaziyatlar bilan bog'liq izohlar berilgani ma'qul. Boshqacha aytganda, ham tarjima-grammatik va ko'rsatmali-vaziyatli metodlar, ham izohlash metodidan foydalanish lozim.

Muomala odobi qoidalari darslikdagi shu mazmunda berilgan matn ustida ishlash, o'qituvchining ayrim nutqiy vaziyatlarni izohlashi, ba'zan o'zbek xalqiga xos sharqona muomala odobi yuzasidan ma'lumot berishi, o'quvchilarning o'zaro so'zlashuvidan oldin so'zlashuv ohangi qanday bo'lishi kerakligi haqidagi tushuntirishi tarzida o'rganilishi mumkin.

O'zbek tili o'qituvchilari, odatda, darsliklarda muomala odobiga doir berilgan sanoqli matnlarni o'quvchilarga o'qitib, mazmuni yuzasidan qisqa suhbat o'tkazadilar. Bu bilim olish ustida ishlash jarayoni uchun yetarli bo'lar. Lekin matnda o'z aksini topgan qoida so'zlashuv mashqlari yordamida mustahkamlanishi, vaqti-

vaqti bilan o'quvchilar xotirasiga tushirib borilishi zarur. Ayniqsa, bolalar muomala odobi qoidasiga amal qilmay, o'zaro fikr almashganlarida olingan bilim yodga solinishi lozim.

O'qituvchining o'zi ham ba'zan yo'l-yo'lakay ayrim qoidalarni ma'lum qiladi. Bunda quyidagi mazmunda ko'rsatmalar beradi: ***“Xushmuomalalilik bilan javob ber!”***, ***“Gapirganda, suhbatoshingga qarab gapir!”***, ***“Suhbatdoshingning ismini aytib murojaat qil!”***, ***“Suhbatdoshingga gapirganda, xushmuomala bo'!”***

“Muomala odobi qoidalari bilimdoni” o'yini darslikdagi va darslikdan tashqari ma'lum qilingan shunday qoidalar zahirasi to'plana boshlagan davrda tashkil etilgani ma'qul.

O'quvchilarning o'zbekcha dialogik nutqini o'stirish metodlarini tanlashda yuqoridagi holatlarni, bajariladigan ishlar ko'lamini nazarda tutish zaruriyat sanaladi. Bu degan so'z, so'z boyligini oshirish, gap tuzishni o'rganish, qolip gapl

arni yod olish, savol berib, javob qaytarishning o'zi dialogik nutqni ham, nutqi y muloqot madaniyatini ham rivojlantirish uchun yetarli emas. Suhbatdoshlarda bir-

biriga e'tiborli bo'lish, dialog replikalarini qo'rslik qilmasdan, xushxulq, xushm uomalalilik bilan ayta olish, so'zlashuvda samimiyat, so'z shakllarini shunga m onand tanlash, gapirish ohangini ta'sirchan qilish kabi ta'lim- tarbiya jihatlari ham inobatga olinishi darkor.

Zamonaviy ta'lim jarayonini ilg'or modellar bazasida rivojlantirishning aso siy yo'nalishlari sifatida ta'lim oluvchilarning dialogik nutqini **har tomonlama** o'stirish imkonini beruvchi metod va usullardan foydalanish taqozo etiladi. Chu nonchi, eng avvalo, replikalarning mazmunini anglashdan tashqari, ularni talaffu z qilish ohangi ustida ishlanadi. Zero, replikalar ohangi, turli- tumandir. Ravshanki, replikalar talaffuzi savol berish va javob qaytarish bilan c heklanmaydi.

Metod va usullar o'qituvchiga suhbatni boshqarishga imkon beradigan qilib tanlanishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu jarayonda muallimdan alohida mahorat ko'rsatish talab etiladi.

Nihoyat, o'qituvchi nazorat metod va usullariga ham murojaat etadi.

Ta'lim metodlarini tanlashda, bir tomondan, lisoniy BKMLarni tushuntirish, mustahkamlash va takrorlab borish, o'quvchilar nutqida faollashtirish choralari asosida tayin etilsa, ikkinchi tomondan, bugungi kunda o'quvchilarning ta'lim- tarbiyasi oldiga davlatimiz qo'ygan talablardan kelib chiqiladi. O'zbekiston Res publikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezident ining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850- sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-

tadbirlari to'g'risidagi Farmoni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da talab et ilishiga ko'ra bugungi kunda erkin va mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy-

siyosiy hayotda ongli va faol ishtirok etuvchi shaxsni shakllantirish asosiy vazifalar sirasiga kiradi.

Dialog tuzish lisoniy BKMLarni faollashtirish yo'llaridan biri bo'lmish nutqiy muloqotga doir BKMLarni egallash vositasi sanaladi. Shu maqsadda o'quvchilarning mustaqil fikrlashiga imkon beruvchi usul –

guruhda ishlash usuli qo'l keladi. Bu usul asosida oz fursat ichida ham yangi materialni o'zlashtirish, ham avvalgi darsda o'tilgan mavzuni takrorlash mumkin, bunda o'quvchilar faolligi ta'minlanadi, ular ham savol tayyorlashlari, ham kutilmagan paytda javob bera bilishlari kerak.

Ko'rsatmalilik, ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalari ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi.

Tadqiqot mavzusi doirasida hal qilinishi lozim bo'lgan metodik muammolar ma'lum darajada dialogik nutq o'stirishning vositalari bilan bog'lanadi. Bu o'rinda dialogik matn namunalari vositachiligidan tashqari, rasmlar, turli chizmalar, so'z bilan yaratiladigan nutqiy vaziyatlar, nihoyat, ta'limning texnik vositalari muhim rol o'ynaydi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda istagan sohada bo'ladimi, ta'lim jarayonida bo'ladimi, hammasidagi o'qib-o'rganish jarayonini zamonaviy axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Til ta'limida kompyuterlardan samarali foydalanishning muhim masalalari yuzasidan ozmi-ko'pmi I.R.Ahmedov, M.Yu.To'xtamirzayev, Sh.J.Yusupova, S.A.Adilova, N.Z. Umarova kabi o'zbek metodist olimlarining tadqiqotlarida ayrim nazariy yo'riqlar va amaliy tavsiyalar bayon qilingan. Ta'lim muassasalarida 2007-yil "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda pedagog kadrlar salohiyatini oshirish yili" deb e'lon qilingandan beri bu borada ko'p ishlar amalga oshirildi: turli axborot tizimlari, elektron qo'llanmalar, multimedia dasturlari ishlab chiqildi. Bugungi kunda mamlakatimizdagi ta'lim muassasalari internetga ulandi, har bir muassasaga alohida veb-saytlar ajratildi, joylarda ichki kompyuter tarmoqlari ishga tushirildi. O'zbek tili mashg'ulotlarida zamon

aviy axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida mavjud muammolarning aksariyat qismi N.Z.Umarovanning nomzodlik tadqiqot ishida o'z yechimini topdi. Olimaning ta'kidlashicha, "...multimedia vositalari yordamida mashg'ulotlarni tashkil etishning usullaridan vaqt, joy, zaruriyat va imkoniyat taqozo qilgan o'rinlarda foydalanish ta'lim samaradorligini" oshiradi [20; 10-b.].

Shunday ekan, uning fikricha, o'zbek tili mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish maqsadida elektron darsliklar, elektron ishlanmalar, slayd paketlar, ensiklopediya, lug'atlar yaratish, elektron pochtdan foydalanish zarur [143; 10-b.]. Biz o'z tadqiqotimizda o'rni bilan ana shu tavsiyalarni ham hisobga oldik.

Dialogik nutq o'stirishda ko'rsatmalilik alohida o'rin tutadi. Bunda o'zaro so'zlashuvchilarning tasviri emas, balki nutqiy vaziyat aks etgan so'zlashuv vaziyatidan foydalanish zarur bo'ladi. Shunga ko'ra ko'rsatmalilik metodlari⁴ sifati da nutqiy vaziyat aks etgan rasm, sahna ko'rinishi, ikki o'quvchining vaziyatni namoyish qilishi, o'zaro so'zlashayotganlarni kuzatishdan foydalaniladi. Bu metodlar qolip gapni yoki muloqot odobi qoidasini tushuntirish jarayonida foydalaniladigan vositalarni ifoda etadi. O'rgatish bosqichlarini esa tanishtirish, mashq qildirish va qo'llash metodlari orqali atash joiz [123; 80-b.]. Eslatish lozimki, ta'lim metodlari davrga hamohang ravishda takomillashib boradi: mashqlar turkumiga kompyuter texnologiyasi qo'shiladi. Bugungi kunda video metodlar sifati da ko'rish, o'rgatish, elektron o'qituvchi nazorati ostida mashq qilish, nazorat keng qo'llanmoqda. Ayniqsa, animatsiya effektlari tasvirni yaqqol ko'zga tashlanadigan qiladi.

S.Adilova yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda "...rasmga qarab so'zlash, yashirib qo'yilgan so'zlarni eslab yozish, videolavhaga ovoz berish, berilgan fikrlarni davom ettirish, matnda ko'tarilgan muammolarga o'z munosabatini bildirish, mustaqil ravishda jadvalni to'ldirish, mavzu bo'yicha xulosa qilish kabi ko'pgina topshiriqlarni bajaradi va bu holda ham kompyuter, ham o'qituvchi tomonidan baholanadi" [20; 15-b.]. Bundan tashqari kompyuter vositasida

⁴ Ayrim metodist olimlar [85; 108-b.] bularni metodlar deb emas, balki usullar deb ataydilar.

talabalar matnni davom ettirish, qisqartirish, kengaytarish, unga reja tuzish va hokazo topshiriqlarni bajaradilar. Elektron ishlanmalarda nazorat tizimi, ya'ni test, mashq, topshiriq va o'yinlar bo'ladi.

Kompyuter nazorat uchun ham qulay. Vazifalarning qanday (tez yoki sekin, xato yoki bexato) bajarilishi kompyuter tomonidan to'plangan ballarni ko'rsatish, "Barakalla!", "O'ylab ko'ring", "Takror o'rganib chiqing!" kabi yozuvlar bilan ma'qullash yoki tuzatishga doir ko'rsatmalar berib borish, shuningdek, musiqa yordamida rag'batlantirish, ogohlantirish yo'li bilan nazorat qilinadi.

S.Adilova kompyuterning axloqiy-ma'naviy tarbiyadagi ahamiyatini quyidagicha bayon qiladi: ...misol, matn, mas-hqlarda yoki audio va videomateriallarda, hatto ekranning badiiy bezatilishida milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, sharqona odob-axloq namunalari o'z aksini topsa, rusiyzabon talabada yashab turgan yurtiga nisbatan vatanparvarlik hissi yanada kuchayadi, davlat tilini bilishga bo'lgan motivatsiyasi ortadi va, albatta, o'quv jarayonining muhim maqsadlariga – ta'lim va tarbiyani uzviy ravishda amalga oshirish hamda jamiyatimiz uchun ma'naviy barkamol, yetuk mutaxassislarini tayyorlab berishga erishiladi [20; 12-b.].

Taniqli psixoterapevt K.Rodjersning fikricha, dialogik nutq psixoterapevtik xususiyatlarga ega bo'lib, kishini mustahkam ruhiy sog'lomlikka, barqarorlik va yaxlitlikka yaqinlashtiradi: "Kishining ichki tomonini ko'rmay va tushunmay turib, uni boshqarish mumkin emas, faqat dialogik muloqot yo'li bilan unga yaqinroq bo'lish va xislatlarini aniqlash mumkin –

aniqrog'i, ko'ngli ochilishiga majbur qilish lozim, muloqot chog'ida bir-birimizni tushunishga harakat qilamiz, munosabatlar qanchalik chuqur bo'lsa, so'zning ma'nosinigina emas, ichki mazmunini ham tushunish istagi shunchalik kuchli bo'ladi".

Suhbatni davom ettira bilish ta'lim-tarbiya metodini tanlash ishiga mas'uliyat bilan yondashishga undovchi muhim

masalalardan biridir. Chunonchi, *“Sen tarix muzeyida bo‘lganmisan?”*, *“Yo‘q”* qabilidagi savol-

javobdan suhbat to‘xtab qolishi hech gap emas. Agar “Tarix muzeyida yangi eksponatlar bormikan?” degan savol berilsa, u suhbatni davom ettirish uchun turtk i berishi mumkin.

Muloqot jarayonida o‘quvchilar bilan ularni qiziqtirgan narsalar, voqea-hod isa va mavzular haqida suhbatlashish yoki yozishmalar uyushtirish maqsadga muvofiqdir. Suhbatdoshlardan biri vaziyatga qarab ba‘zan biror narsa haqida hiko ya qilishga o‘tadi. Bu endi dialog tarkibida monolog sanaladi. O‘qituvchi bunda y dialogga ham imkon berib, rag‘batlantirishi lozim.

Xullas, qolip gaplarning ma‘no-mazmunini va qo‘llanish holatlarini tushuntirishda o‘rniga qarab tarjimasiz grammatik metod va tarjima-grammatik metoddan, ba‘zan ikkala metod quymasi sanalmish aralash metodda n foydalaniladi. Ushbu jarayonda ko‘rsatmali vaziyatlilik vujudga keltiriladiga n rasmlar, ular namoyish etiladigan (rollar asosida) axborot texnologiyalariga murojaat qilinadi.

O‘zbek tili darslarida o‘quvchilarga qolip gaplarni, ular bilan bog‘liq ravishda muomala odobini o‘rgatish samaradorligi masalalari bir qator muammolarning yechimlari bilan bog‘liq.

Tadqiqotimizning avvalgi boblarida qolip gaplarni, shuningdek, muomala odobi qoidalarini o‘rgatish borasida amaliyotda erishilayotgan yutuqlar va yo‘l q o‘yilayotgan jiddiy nuqsonlarga to‘xtalgan, o‘zbek tilidagi qolip gaplarning rus tilida ifodalanishini qiyoslash, sharqona muomala odobini rus xalqiga xos etiket bilan taqqoslash asosida ko‘rib chiqqan va muhim metodik xulosalar chiqargan edik. Ushbu til hodisalarini o‘rgatish metodikasiga bag‘ishlangan mazkur paragrafda, bir tomondan, o‘qituvchilar ish tajribasida uchrayotgan kamchiliklar va “O‘zbek tili” darsliklarining mashq materiallaridagi kemtik jihatlarni bartaraf etish choralarini belgilab chiqishga harakat qildik, ikkinchi tomondan, ikki tilda ifodalanishidagi ta‘limni osonlashtiradigan va qiyinlashtiradigan tomonlarni his

obga olgan holda mashq va ish turlarini ishlab chiqishni maqsad qilib qo'ydik. Bundan tashqari, o'quvchilarni o'zbek tilidagi qolip gaplar, shablon so'z-gaplarni qanday vaziyatlarda qay tarzda ishlatish kerakligi haqidagi ma'lumotlar dan xabardor qilish metodikasi ustida izlandik.

“Til – dil kaliti”, – deydilar allomalarimiz. Odamlar qalbidagi fikrlarning talayginasi til vositasida boshqalarga ma'lum qilinadi. Bu hodisa nutqiy muloqot jarayoni tufayli doimo yangilanib, takomillashib, o'zgartirilib boriladi. Boshqa cha aytganda, qolip gaplar ham, muomala odobi qoidalari ham tadrijiy ravishda murakkablashib, yangidan-yangi nutqiy vaziyatlarda yuz beradigan kombinatsiyalarga kiritib turiladi. Ushbu jarayonda o'quvchilar o'rganilayotgan dialogik birliklar boyligiga ega bo'lishdan tashqari, ulardan nutqda foydalanib, turli nutqiy vaziyatlar munosabati bilan mustaqil fikrlash layoqatini oshirib boradilar. Metodist olimi G.X.Jumasheva ta'kidlaganidek, ayni mustaqil fikrlashga da'vat bolalarning “nutqiy faoliyatlari asosidagi mashqlar uchun zarur barcha shart-sharoitlarni vujudga keltirish yo'li bilan ularning til sezgirligini o'stirishni taqozo qiladi” [20; 10-b.].

Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktab o'quvchilari davlat tilida bimalol fikr almasha olishi uchun o'z xotirasida ma'lum miqdorda qolip gaplarni ham saqlashlari kerak. Bunday gaplarni zarur paytlarda nutqiy muloqotga chaqirganda “Labbay” deb javob bera oladigan darajada o'zlashtirishlari darkor. O'quvchilarning yoshi qanchalik kichik bo'lsa, mazkur qolip gaplar shunchalik mustahkam esda olib qolinadi. Ular nutqda qanchalik ko'p qo'llansa, amalda foydalana olish tezligi ham shunchalik orta boradi.

O'quvchilar birinchi navbatda o'zbek tilidagi qolip gaplar, shablon so'z va iboralarning ma'no-mazmunini bilishlari kerak. Buning uchun mazkur til hodisalari keltirilgan mashq materiallari rus tilidagi ekvivalent tarjimalari bilan ta'minlangan bo'lishi zarur. Chunki, tadqiqot ishimizning ikkinchi bobida ta'kidlaganimizdek, muqobil tarjimalarni aniqlash o'ta qiyin ish. Kuzatishlardan ma'lumki, agar o'quvchilarga: “

Quyidagi replikalarni eslab qoling va nutqingizda foydalaning” degan topshiriq berilsa, bu bilan ta’limiy maqsad to’la ro’yobga chiqmaydi, mavjud muammolar hal bo’lib qolmaydi. Bolalar o’zlari ma’no-mazmunini tushunmagan, rus tilidagi ekvivalenti orqali anglamagan holda qolip gapni ko’r-ko’rona o’zlashtirishlari (yod olishlari) mumkin, xolos.

Qolip gaplar ustida yangi leksik birliklar bilan ishlagan kabi ham ma’no-mazmunini ochish va qaysi vaziyatlarda ishlatilishi haqida izoh berish, ham talaffuzini (ohangini) o’rgatish, shundan keyingina nutqiy namunalar orqali qo’llanish sohalarini ko’rsatish tariqasida ish olib borishni ma’qul topdik. Bu usulni amaliyotda keng tarqalgan “Dialog (yoki suhbat) namunalarini (murojaat replikalarini) o’qing” deb boshlash usuliga qarshi qo’ydik: ma’no-mazmunini bilmasdan, qaysi nutqiy vaziyatda ishlatilishini tasavvur qilmasdan, talaffuzini o’rganmasdan turib namunalarni o’qish tegishli ifodaning bo’lmasligiga, xato talaffuzga sabab bo’ladi. Ilk bor noto’g’ri o’qilgan gap yoki so’z esa keyingi bosqich ish turlariga ham o’zining salbiy ta’sirini o’tkazmay qolmaydi.

Tadqiqotimiz davomida ta’lim rus va boshqa tillarda olib boriladigan ta’lim muassasalari talabalariga o’zbek etiketlarini singdirishning bir necha usulini taklif etdik:

1) tarkiban anglash mumkin bo’lganlarini so’zma-so’z tarjima qilish: ***Demak, masala hal.*** –

Значит все решено. Yana kimda takliflar bor?–

У кого есть еще предложения? Albatta kelaman. – Обязательно приду.

2) leksik asnoda o’rganish mumkin bo’lganlarini ma’no-mazmun jihatdan variantlarini keltirish: ***Qoyil! Zo’rsan-ku!*** –

Браво! Какой ты молодец! (Какой ты классный.) Хо’sh, qulog’im sizda. – Я Вас слушаю.

3) grammatik asnoda o’rgatish mumkin bo’lganlari: *Yo’q, asloni* нет вообще, никогда. *Axirni* наконец, в конце концов, *же, ведь, разве* deb o’girish mumkin.

Ikkinchi turdagi qolip gaplarni ta'lim oluvchi 8–9-sinflarda yoki litsey va kasb-hunar kollejida o'rganishi maqsadga muvofiq. Bu davrda yoshlarning mantiqiy t afakkuri birmuncha rivojlangan bo'lib, ularni o'zlashtirishga osonlik bilan erisha dilar.

Navbatdagi ish turi – ayrim qolip gaplarning, muloqotda ishlatiladigan so'z va iboralarning qaysi nutqiy vaziyatda qo'llanishini izohlashdir. Boshlang' ich sinflarda (2- va 3-, qisman 4-sinfda) izoh dastlab rus tilida, so'ng imkoniyatga qarab o'zbek tilida beriladi. Yuqori sinflarda rus tilidagi tushuntiri shlarga kamroq murojaat etish lozim bo'ladi. Shunday yo'l tutish mumkinligini o'tkazilgan tajriba darslari ham to'la tasdiqlab berdi.

Umuman, izohlarni uch xil yo'l bilan taqdim etish mumkin:

1) mashqda uch ustun ajratib, birinchisida o'zbekcha qolip gap, ikkinchisid a uning ruscha muqobili, uchinchisida qaysi nutqiy vaziyatda ishlatilishiga doir izoh berish;

2) mashqda qolip gapdan keyin tegishli qolip gapni tilga olgan holda qo'll anishiga doir izoh keltirish;

3) izohni og'zaki ravishda bayon qilish.

Yangi til materiali darslikda bo'ladimi yoki slayd orqali namoyish etiladi mi, o'qituvchi ularni, xususan, qolip gaplarni yoki dialog namunasi replikalarin i o'qib beradi, o'quvchilar unga taqlidan takrorlaydilar. Masalan, **“Qoyilman!”** replikasi xitob o'rnida ishlatilganda his-

bo'g'inga tushirib, “Durust” replikasi darak ohangida o'qiladi. Har bir replika t urining o'z qo'llanish vaziyati bo'lganidek, o'z talaffuz ohangi ham mavjud. “ Qoyilman” replikasi “Qoyilmi-

san?” so'roq gapiga javob bo'lib kelsa, u ham darak ohangi bilan aytiladi.

Slaydda yuqorida ko'rsatilgan mazmunda keltirilgan yangi til hodisalarini tinglab tushunish va ularning o'qilishi hamda yozilishini bilib olish, dialog mat nini yaratayotganda yozma ravishda ifodalash ko'nikmalarini mustahkamlashga

e'tibor qaratish zarur bo'ladi. Shuningdek, ma'lum bosqichda taqdimot texnologiyasi havola qilingan qolip gaplar bo'yicha ishni samarali tashkil etish, vaqti-vaqti bilan takrorlab borish imkonini beradi.

O'qish paytida oson bo'lsin uchun faqat o'zbekcha qolip gaplar, shablon so'z va iboralar bilan ishlanadi, ya'ni replikalarning ruscha tarjimalari o'qilmaydi, bu shart ham emas. O'quvchi tarjimani ko'z yugurtirib ovoz chiqarmay o'qir ekan, o'zbekcha qolip gapning ma'no-mazmunini tarjimasidan bilib boradi.

O'zbek tili darslarida o'quvchilarni yangi til materiallari (ayniqsa, shablon so'z va iboralar, qolip gaplar) bilan tanishtirishda olim N.Z.Umarova tavsiya etgan "Taqdimot texnologiyasi"dan foydalanish yaxshi samaralar beradi. Bunda kelajakda yaratilajak elektron darslik materiali sifatida ushbu til hodisalarini rus tiliga qiyoslab tushuntirish, ishlatiladigan o'rinlar, vaziyat va holatlarni anglatish, muomala odobi bilan bog'lash mazmunidagi mashqlar havola qilinishi o'qituvchining mehnatini ancha yengillashtiradi, o'quvchilarning yangi bilimlarni anglash uchun yetarli darajada fikr doirasini kengaytiradi. Ushbu mashqlarning taqdim etishda esa slaydlar alohida ahamiyatga ega.

O'qish uchun ba'zan dialog matni namunasi ham taqdim etiladi. Yoshlar matndagi replikani bir necha marta takrorlaydilar, ya'ni talaffuzni mashq qiladilar. Dastlabki talaffuz ko'nikmalari hosil bo'la boshlagandan keyingina qolip gaplar, replikalar ustidagi boshqa ish turlariga o'tish mumkin.

Dialog namunasini o'qish ustidagi ishlar yakunlangandan so'ng davomini nima bo'lishi kerak, degan savol tug'iladi. Albatta, og'zaki nutqda qo'llash mashqiga o'tish lozim. Ta'kidlash zarurki, amaliyotda ko'p bajariladigan mashq turi – nuqtalar o'rniga tegishli qolip gapni qo'yib o'qish ushbu qolip gapni mustahkamlashga yordam berishi mumkin. Lekin, e'tirof etish kerakki, qolip gapni eslash, nuqtalar o'rniga qo'yib matnni o'qish og'zaki nutq emas. Mashqning og'zaki bajariladigan turi, ya'ni so'zlashuv bilan kechadigan turi ko'proq asosiy maqsadga mos keladi. U holda mashq qanday bo'lishi kerak? Yuqorida aytganimizdek, og'zaki nutq o'stirish tarzidagi mashq o'tkazilishi darkor. Namuna

asosida o‘z dialogini yaratish, o‘zaro so‘zlashish ana shunday mashq turi sanaladi.

A.Rafiyev, G.Muhammadjonova, G.Ziyomuhamedovalar muallifligida yozilgan “O‘zbek tili” darsligida [119] ba’zi namunalardagi replikalar bir mavzuni davom ettirmaydi. Masalan, 122-betdagi 3-topshiriqda “Dialogni rollarga bo‘lib o‘qing va davom ettiring” degan topshiriq berilgan:

- *Qizim, pochta qayerda?*
- *Narigi tomonda, buvijon...*
- *Aziz, yo‘l qoidalarini bilasanmi?*
- *Albatta.*

Birinchidan, bu yerda qolip gaplar yo‘q. Ikkinchidan, bunday dialogni davom ettirish qiyin, chunki nutqiy vaziyat ma’lum qilinmagan.

“O‘zbek tili” darsliklarida rollarga bo‘lib o‘qish uchun tavsiya etilgan dialog namunalari har bir ijrochidan ikki, nari borsa uch replika aytish uchungina imkon beradi. Bunday kichik hajmli matnlar bilan dastlabki nutqiy muloqot ko‘nikmalarini hosil qilish amri mahol. Bizningcha, namunalarni, replikalar miqdorini ko‘paytirish orqali bo‘yitish maqsadga muvofiqdir.

X.Muxiddinova, M.Yusupova, N.Ikromova, G.Akromovalar hammuallifligida 8-sinf uchun yaratilgan “O‘zbek tili” darsligining [93] 122-mashqida dialogdagi bo‘sh o‘rinlarni to‘ldiring, rollarga bo‘lib o‘qing, degan va zifa berilgan:

- ***Kechirasiz, siz shu reys bilan Nukusga uchasizmi?***
- ***Ha, bir iltimosim bor edi: shu xatni bir do‘stimga berib qo‘ying.***
- ***Yaxshi, ammo uni tanimayman-ku.***

Dialogda qolip gaplar va strukturasi o‘rganiladigan gaplar aralash ishlatilgan. Bu yerdagi “kechirasiz”, “yaxshi” so‘zlari qolip gap, shablon so‘z-gaplar sirasiga kiradi.

Qolip gaplarni o‘rgatishda quyidagi kabi mashq turlari va topshiriqlar bajarilmog‘i maqsadga muvofiqdir:

- 1) qolip gaplarni o‘zbek tilidan rus tiliga tarjima qilish;
- 2) aksincha, ularni rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish;
- 3) berilgan nutqiy vaziyatga mos qolip gapni aytish, nuqtalar o‘rniga qo‘yish, ko‘chirish;
- 4) berilgan izohlar asosida mos qolip gaplarni aytish;
- 5) qolip gap asosida tegishli nutqiy vaziyatni aytish;
- 6) o‘rganilgan qolip gaplarni qatnashtirgan holda dialog tuzish yoki o‘zaro so‘zlashish;
- 7) **“Qolip gaplar bilimdoni”** o‘yinini (musobaqasini) o‘tkazish;
- 8) qolip gaplar asosida diktant yozish;
- 9) berilgan qolip gaplarni to‘g‘ri talaffuz qilish (nazorat mashqi);
- 10) berilgan mavzuda dialogik shaklda o‘zaro so‘zlashish, zarur o‘rinlarda qolip gaplar, shablon so‘z-gaplardan foydalanish.

Quyida ana shu mashq turlarining har biriga alohida-alohida to‘xtalamiz.

I. Qolip gaplarni o‘zbek tilidan rus tiliga tarjima qilish talab etiladigan mashqlarning ahamiyati shundaki, ular o‘quvchilarda shunday replikalar mazmunini tushunishga doir bilimlarni mustahkamlash, o‘zbekcha qolip gaplarni, shablon so‘z-gaplarni rus tilida ifodalashda so‘zma-so‘z qilinadigan tarjima (o‘girmalar)dan farqli holatlarda leksik va grammatik qiyinchiliklarni bartaraf etish, ikki-uch xil tarjimalardan rus xalqi madaniyatiga mosini tanlash, ba‘zan butunlay tafovutlanadigan ekvivalent o‘girmalarni amalga oshirish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

II. Qolip gaplarni rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish mazmunidagi mashqlarni bajarishdan avval kichik bir nazorat ishi o‘tkazdik. Shu maqsadda quyidagi gaplardan foydalanildi: ***Разрешите вас приветствовать. Как идет (ваша) жизнь? Как вам (тебе) сказать? Как на работе? Какая приятная встреча?!*** Bu vazifa quyidagi tartibda bajarildi:

1-

gap “Sizni qutlashga ruxsat bering” deb tarjima qilindi, og‘zaki so‘zlashuv vaziri

yatida “Salomlashishga ruxsat bering” deb ishlatiladi, tarjima qilishlarida asosiy e’tiborni shunga jalb etdik.

1-gapni to‘g‘ri tarjima qilganlar 47, 2-gapda 36 ta, 3-gapda 38 ta, 4-gapda 53 ta, 5-gapda 27 ta bo‘ldi. Noto‘g‘ri tarjimalar 1-gapda 49 ta, 2-gapda 48 ta, 3-gapda 60 ta, 4-gapda 49, 5-gapda 58 tadan iborat bo‘ldi. Stilistikaga oid kamchiliklar 1-gapda 14 ta, 2-gapda 18 ta, 3-gapda 15 ta, 4-gapda 18 ta, 5-gapda 16 ta; so‘z tartibini noto‘g‘ri qo‘llaganlar 1-gapda 13 ta, 2-gapda 23, 3-gapda 7 ta, 4-gapda 6 ta va 5-gapda 22 ta, tarjima qilmaganlar 1-gapda 7 ta, 2-gapda 5 ta, 3-gapda 10 ta, 4-gapda 4 ta, 5-gapda 7 ta.

Qolip gaplarni rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish talab etiladigan mashqlarni bajarish chog‘ida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan bunday qiyinchiliklarni hisobga olish zarurligi o‘z-

o‘zidan ayon. Birinchi navbatda mashq materiali puxta o‘ylangan holda tanlanishi lozim: beriladigan mashq materiali sifatida dastlab yaqin 5-6 dars mobaynida o‘rganilgan replikalarni tavsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday o‘girma chog‘ida o‘quvchilar qolip gaplarning ikki tillik lug‘atini yodga keltirish yo‘lini tanlaydilar.

Uzoq o‘tilgan qolip gaplarni tarjima mashqlari orqali takrorlashda avval rus tiliga so‘zma-

so‘z tarjima qilish mumkin bo‘lgan jumlar tanlangani ma’qul. Bunda o‘quvchilar o‘zbekcha so‘zlarni, so‘z shakllarini rus tilida ifodalash amallarini bajarish bilan ilangina mashg‘ul bo‘lishlari kutiladi, ya’ni qiyinchilik chegaralangan darajada bo‘ladi.

Qolip gaplarni rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish katta ta’lim va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ayni paytda ushbu mashq turi o‘quvchilarning bilim saviyasini vaqti-

vaqti bilan nazoratdan o‘tkazib turish imkonini ham beradi. Gaplarni rus tilidan o‘rganilayotgan tilga o‘girish jarayonida uchraydigan leksik va grammatik xato

larning oldini olish uchun o'zbek madaniyati, o'zbek xalqiga xos jihatlar eslatib borilishi mumkin. Mazkur usulda mashqning tarbiyaviy tomoni yuzaga chiqadi.

Bu xildagi mashqlarni tashkil etishda didaktikaning osondan qiyinga, ikki tilda o'xshashdan farqlanishga qarab borish kabi tamoyillarga amal qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Ikkala tilda qolip gaplar leksik jihatdan ham, grammatik jihatdan ham mos keladigan holatlarda so'zma-so'z tarjima qilish usuli tanlanishi mumkin. O'zbek tilidagi qolip gaplarni rus tiliga, ruscha o'girmalarni yana o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilish imkoniyati mavjud bo'lgan holatlar mashqda osonlik tug'diradi. Masalan: *Sog' bo'ling. – Будьте здоровы. Ishlar qanday (qalay)? –*

Как дела? Sizga omad tilayman! – Желаю вам удачи!

O'quvchi aks tarjimada (ruschadan o'zbekchaga) gapda so'z tartibi bilan bog'liq qiyinchilikka duch keladi, xolos. U o'zbek tilida fe'l-kesim gapning oxirida kelishini yaxshi biladi. Shuning uchun bu masalada to'g'ri yo'l tuta oladi.

O'zbek tilidagi qolip gapni tashkil etgan ikki so'zdan biri rus tilida o'z lug'aviy ma'nosiga mos ifodasi bilan berilmay, butunlay boshqa so'z orqali o'girilsa, o'quvchi leksik qiyinchilikka ro'para keladi. Masalan: *Sog'liqlaring yaxshimi? – Как твое здоровье? Оq yo'l! –*

Доброго вам пути. (Светлого пути).

O'quvchi aks tarjimada *как* so'zini *yaxshi*, *светлый* so'zini *oq* deb o'zbek tilida ifodalashi kerak. Buning uchun u ba'zi qolip gaplarda o'zbekcha so'z rus tilida butunlay boshqa so'z bilan berilishi mumkinligi haqida ma'lumot olib, shu kabi gaplarni ruscha ifodasi bilan eslab qolishga harakat qilmog'i lozim.

Qolip gapdagi so'zlarning ikkalasi rus tilida boshqa-boshqa so'zlar bilan ifodalanadigan holatlarda o'quvchilar yana ham qiyinroq vaziyatga tushadilar. Masalan: *Yaxshi yuribsanmi? – Как поживаешь? Oting nima? –*

Как тебя зовут? Yaxshi yotib turing. Доброй ночи. Спокойной ночи.

Leksik yoki grammatik jihatdan farqli holatlarda tafovutlanish bilan bog'liq bilimlar, o'zbek xalqiga xos milliy jihatlarni o'zlashtirgan bo'lish talab etiladi. Ham leksik, ham grammatik tomondan farqlangan o'zbekcha qolip gaplarning rus tilidagi muqobil ifodasini yod oldirish chorasini ko'rgan ma'qul.

III. Nuqtalar o'rniga qo'yish, ko'chirish talab etiladigan mashqlar o'quvchilarda biror so'zi esga tushgan qolip gapning boshqa so'zlarini ham yodga keltirish ko'nikmalarini hosil qilishga yordam beradi. Masalan: ... *boring!* ... *kelibsiz!* ... *yuribsanmi?* Gaplarida *“boring”* so'zi *“yaxshi kelibsiz”* so'zi *“xush”* so'zini, *“yuribsanmi”* so'zi *“yaxshi”* so'zini eslash uchun turtki, tayanch vazifasini o'taydi. Bu o'rinda so'zlar, tushunchalar o'rtasidagi doimiy aloqa, assotsiativ bog'lanish hal qiluvchi rol o'ynaydi

Mashq uchun 10 tadan qolip gap tavsiya etilgani ma'qul. Bu narsa shuncha gapli kartochkalar tuzish uchun imkon berib, qat'iy nazorat olib borish imkonini beradi.

IV. Berilgan nutqiy vaziyatga mos qolip gapni aytish:

O'rtog'ing kasal bo'lib, sog'aygach maktabga keldi. Unga nima deysan?
(*Tuzukmisan?*)

Transportda kekxa odamga joy beryapsiz, nima deb o'ringizdan turasiz?
(*Keling, mana bu joyga o'tiring*).

Uyingizga mehmon kelsa, uni nima deb kutib olasiz? (*Keling, uyga kiring*)

V. Berilgan izohlar asosida mos qolip gaplarni aytish so'raladigan mashqlar ham nutqiy vaziyatlar yaratishning bir usuli sanaladi. Masalan: **“Tuzukmisan?”**, **“Xormang!”** Bunday mashqlar uning funksional mohiyatini to'liq anglab yetish uchun xizmat qiladi. Masalan, *“Yaxshi qoling”* replikasi qachon aytiladi? Bu savolga o'quvchi kimdir uzoq yo'lga otlansa, uyda qolayotgan yaqin kishisi ga shu gap aytiladi, deb javob beradi.

“Oting nima?” savoli qachon beriladi?

O'quvchi "ikki suhbatdosh bir-biri bilan tanishmoqchi bo'lsa aytiladi", – deydi.

Albatta, rus tilida so'zlovchi o'quvchi birdaniga o'zbek tilida nutqiy vaziyatni ta'riflashi qiyin. So'zlarni o'zlashtirgan holda dialog tuzish yoki o'zaro so'zlashishi nutqiy mashqlarning pirovard natijalari hisoblanadi.

VI. O'rganilgan qolip gaplarni qatnashtirib matnlar tuzish, chunki qolip gaplar, shablon so'z-gaplar, iboralar yolg'iz holda emas, aksariyat holatlarda dialogik shakldagi matn tarkibida, so'zlashuvda ishlatiladi.

VII. Darsda tashkil etiladigan o'yinlar dialogik birliklarni nutqiy vaziyatlar bilan bog'lab o'zlashtirishda, tegishli ko'nikma va malakalarning rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

O'zbek tilidagi qolip gaplarni faollashtirishda quyidagi ish turlari bajariladi :

- ***"Tez yurar"*** o'yini;
- ***"Qolip gaplarni kim ko'p biladi?"*** intellektual ring o'yini;

–

dialogik matnda qavs ichida ruscha berilgan gaplarni o'zbek tiliga tarjima qilib o'qish;

- o'qituvchi aytgan ruscha gaplarni o'zbek tiliga jo'rlikda o'g'irish.

Metodist olimasi X.Muxitdinova E.I.Passovning fikrlariga tayangan holda shunday yozadi: "Mashg'ulotlar paytida shartli muloqot vaziyatini yuzaga keltirish uchun, masalan, rasm yoki videolavhalarni ko'rsatish va o'zbek tilida uning og'zaki yoki yozma bayonini so'rash, o'yin mashqlaridan, ish o'yinlaridan foydalanish, taqdimot darslarini tashkil etish, ya'ni kasbiy muloqot vaziyatini hosil qilish yo'li bilan haqiqiy muloqot sharoitiga anchagina yaqinlashadigan shartli muloqot sharoitini hosil qilishi mumkin" [97; 70-b.].

G.N.Soltovskaya o'yinni quyidagi kabi 7 bosqichdan iborat etib o'tkazishni ma'qul ko'radi:

I. O‘yinga tayyorgarlik: til muhitiga xos psixologik komfort vujudga keltirish (musiqiy hamrohlik, krossvord), vazifani va baholash mezonlarini ma’lum qilish.

II. Talaffuz mashqi (razminka).

III. ... bilimdonlari tanlovi.

IV. ... sardorlari tanlovi.

V. ... auksion.

VI. ... loyihasini himoya qilish.

VII. O‘quvchilar nuqtai nazaridan yakun yasash (eng yoqqan o‘rinlarning blits-

so‘rovi, kamchiliklarini tahlil qilish, o‘yinli darslarni bundan keyin ijodiy tashkil etish rejalarini muhokama qilish) [131; 66-b.].

O‘yin xarakteridagi ish usullari ko‘p: sahnalashtirish, rolli va ish o‘yinlari, viktorinalar, musobaqalar va turli tanlovlar.

O‘yinlar rollar asosida ham o‘tkazilgani ma’qul. N.A.Ippolitova rolli o‘yinlarning ahamiyati haqida shunday deydi: “Rolli o‘yinni chet tilda sahnalashtirish bolalarga zarur so‘zlarni va iboralarni o‘zlashtirish, ohangni mashq qilish imkonini beradi, bola nutqining obrazli ifodaliligini rivojlantiradi. Bolalar o‘ynar ekanlar, o‘z fantaziyalarini namoyon eta oladilar, ularning shaxsi kamol topadi, ijodiy imkoniyatlari rivojlanadi. Bola odamlar orasidagi o‘zaro munosabatlarni chuqur anglay boshlaydi. Stansiyalar bo‘yicha o‘rgatish – muxtor ta’lim shakllaridan biri, shaxsiyatli-

faoliyatli metodikadagi motivatsiyani oshirish metodi. Bu o‘quvchilarning erkin ishlash shakli, uning jarayonida chet til materiali mustahkamlanadi, chuqurlashadi va takomillashadi [55; 7-b.]. Ushbu metodning asosiy sharti –

o‘quv o‘yinli faoliyat natijalari bo‘lib, bola har bir bajarilgan topshiriqdan so‘ng o‘zini o‘zi tekshiradi va begunokka ballarni, baholarni kiritadi (har bir topshiriq yuzasidan kalitlar mavjud bo‘ladi) [55; 7-b.].

“Qolip gaplar bilimdoni” o‘yinini (musobaqasini) o‘tkazish. **“Yo‘l-yo‘lakay suhbat”** o‘yinida boshlovchining qo‘liga bir necha mavzu ro‘yxati (masalan, “Mehmon kutish”, “Mehmonga borish” va b.) berib qo‘yiladi; u mavzulardan birini ma’lum qilib, navbatma-navbat har bir qatnashchiga yuzlanadi, bu qatnashchi mavzu bo‘yicha o‘zi bilgan qolip gaplarni aytadi: *“Xush kelibsiz”, “Xush ko‘rdik”, “Omon bo‘ling”, “Qulog‘im sizda”*. Tilga olinmagan qolip gaplarni eslash keyingi o‘quvchidan so‘raladi. Javob qolip gapini aytolmagan o‘quvchi o‘yindan chiqadi. Boshqalardan ko‘ra ko‘proq etiket so‘zlarni aytib o‘lganiga g‘olib bo‘ladi.

“Sergak bo‘l” usulida o‘yin shartlari turlicha bo‘ladi. Masalan, boshqaruvchi xat taxta yonida turgan o‘quvchilarga dialog matnini diqqat bilan ko‘rib chiqishni va qaysi o‘rinda qanday qolip gap borligini eslab qolishni taklif qiladi. So‘ngra sinf o‘quvchilari tomon o‘girilishni aytgach, qolip gaplarning o‘rnini almashtirib qo‘yadi. O‘quvchilar ularni o‘z joyiga tiklab qo‘yishlari kerak bo‘ladi. Xat taxta yonida turgan ikki (uch yoki to‘rt) o‘quvchilardan qay biri vazifani to‘g‘ri bajarsa, u g‘olib sanaladi. O‘yin qolip gaplarning o‘rnini eslab qolib yoki matndagi replikalarga tayanib tiklash orqali (*“Aylanay”, “Barakalla”, “Yaxshi qoling”*) matnni o‘zlashtirish imkonini beradi.

VIII. Qolip gaplar asosida turli xil ta’limiy va nazorat tipidagi diktantlar yozdiriladi.

IX. Berilgan qolip gaplar asosida to‘g‘ri talaffuz qilish, rus tiliga o‘girish, biror nutqiy vaziyatga mosini tanlash va boshqa shu kabi nazorat mashqlari o‘tkaziladi.

N.V.Ladijenskaya o‘quvchilarga yubiley, bitiruv kechasi, maktab bayrami va h.k. munosabati bilan maqtov so‘zlarini o‘rgatishda, bolalar maktab bo‘yicha, maktab muzeyiga, shaharning e’tiborli joylariga va h.k.larga sayohat qilganda sayohat bilan bog‘liq nutqni o‘stirishda ekskursiyadan foydalanish yo‘llari haqida o‘z tavsiyalarini bayon qiladi:

“Kelinglar, xitob qilaylik, bir-birimizga qoyil qolaylik. Balandparvoz so‘zlardan qo‘rqmaylik. Kelinglar, bir-birimizga yaxshi so‘zlar bilan gap tashlaylik. Axir bularning hammasi baxtiyor onlarni ifoda etadi-ku! Kelinglar, qayg‘uga cho‘maylik va ochiqchasiga yig‘alaylik” [76; 29-33-b.].

U quyidagi savollarni havola qiladi:

- Qaysi nutqiy janrda balandparvoz so‘zlardan qo‘rqish kerak emas?
- Maqtov so‘zi bir-biriga gap otishdan nimasi bilan farq qiladi?
- Siz qaysi vaziyatlarda maqtov so‘zini ayta oldingiz? [76; 31-b.].

Pedagogika fanlari doktori professor S.V.Yurtayev “Содержания языкового образования и речевого развития” nomli ilmiy maqolasida “...qabul qilingan ma’lumotlarni xotirada ushlab qolish qobiliyati, ularni saqlash, javob refleksiya bolalarning murojaat nutqini o‘zlashtirish bazasi sifatida vujudga keladi”, – degan fikrni ilgari suradi [166; 22-b.].

Muallifning fikricha, eslab qolish ustidagi ishlar quyidagi turdagi faoliyat usullarini o‘zlashtirishni ko‘zda tutadi: so‘zlarning leksik ma’nosini tushunish, qabul qilinayotgan axborotni hayot tajribasida mavjud bo‘lgan axborot bilan moslash; umumlashtiruvchi xarakterdagi ma’lumotlarni yangi axborot ma’lumotlariga aylantirish, diqqatni to‘plash, javob bera bilishga tayyorgarlik ko‘rish [166; 22-b.].

Gapirganda kishi ongida nutqni ifodalashga doir reja ishga tushadi.

Fikrni ifodalash u kimga mo‘ljallanganligi, qaysi nutqiy vaziyatda o‘rinli bo‘lishini hisobga oladi. Bunday so‘zlarni tanlash ular ma’nosining emotsional-ekspressiv bo‘yog‘iga bog‘liq bo‘ladi. Maktabda jumlar mazmuni, turlari, tiplari o‘qituvchi tomonidan buyuriladi. O‘qituvchi nutqiy harakatlarga chaqiradi. U bolalarni dialogda qatnashishlariga, axborot berishga, xabar tuzishga, tavsiflash, muhokama elementlarini ishlatishlariga erishish uchun harakat qiladi. Ularni orfoepik me’yorlarga rioya etish, adresatga xushmuomalalik bilan murojaat qilishga o‘rgatadi. So‘zlar, nutqiy etiket, matn haqidagi bilimlarni to‘g‘ri talaffuz qilish asosan bu haqidagi tasavvurlar orqali olib boriladi.

Muloqotda uning qaysi vositalari ishlatilishiga qarab madaniyatli shaxsning sifatlari ko'zga tashlanadi: to'g'rilik, ifodalilik, nutqning aniqligi, xushmuomalligi belgilanadi.

M.A.Xegay “К вопросу обучения русскому языку по речевым моделям в узбекской школе” mavzusidagi metodik qo'llanmasida: “Atrofdagi sharoit haqidagi suhbat, rasm asosidagi suhbat va boshqalar dialogik nutq vaziyatliligini ko'rgazmali bo'lish shakli hisoblanadi. Nutqiy vaziyat o'rganilayotgan adabiy asarlardan sun'iy o'ynalgan vaziyatlar, o'quvchilar hayotidagi dalillar imitatsiyasi asosida yaratilishi mumkin” [158; 8-b.].

Yu.N.Abdullayev, A.M.Bushuy “Краткая история развития методики обучения иностранным языкам: от постановки чтения к речевому общению” qo'llanmasida [17] ta'kidlashlaricha, “Psixologlar tilshunoslikdagi o'quvchilarning qiziqishlari va intilishlariga qarshi borgan holda tilni o'rgatib bo'lmaydi, degan fikrga muvofiq shunday xulosaga keldilarki, ularda mavjud bo'lgan persepsiya va tahlil tajribasi yangi vaziyatlarga o'tadi. Nutqiy muloqotga o'rgatish onatilining predmetli interferensiyasi bilan bog'liq. Magazinda, pochtada, vokzal va boshqa joydagi nutqiy xulqqa o'rgatayotganda ta'lim oluvchilar bu vaziyatlar ga muvofiq xorijiy til hodisalarini ham o'zlashtirishlari zarur. Ular shular bilan bog'liq holda ta'kidlaydilarki: “Til – madaniyat belgisi, u alohida madaniyat doirasida amal qiladi. Biz bu madaniyatning o'ziga xosliklari bilan, bu madaniyat tilining vazifalari bilan tanish bo'lishimiz kerak” [17; 43-b].

Qolip gaplar ustida tashkil etiladigan talaffuzdan tortib qo'llashgacha bo'lgan ish turlarining deyarli barchasida muomala odobi qoidalari ta'kidlab boriladi.

Bunday bilimlar muloqotni jonlantiribgina qolmay, ushbu jarayonda suhbatdoshlarning dialog shaklida so'zlashuv chog'ida o'zini tutishi, bir-biriga tavoze ko'rsatishi, odob-

axloq doirasida o'zaro munosabatlaridagi murojaat shakllarini o'z ichiga qamrab olib, real hayotdagi muloqotga yaqinlashadi. Uni egallagan o'quvchilarning sha-rqona nutqiy muloqot madaniyati rivoj topadi, yoshlar turmushda o'zbek tilidagi

dialogik shakldagi so‘zlashuvda yuzaga keladigan nutqiy vaziyatlarga yetarli tayyorgarlik ko‘rgan bo‘ladilar. Zero, jamiyatda suhbatdoshlar bir-birlarining ijtimoiy mavqelarini, bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini hurmat qilgan holda murojaat etishlari, ularni nutqiy va nutqiy bo‘lmagan muloqot un-surlari orqali ifoda qilishlari darkor. Shaxsning jamiyatda tutgan o‘rni, mavqeyi ning so‘zlashuvga ta’sirini A.Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasidan yaqqol ko‘rish mumkin.

Darsliklar tahlilidan ma’lum bo‘lgan ediki, nutqiy muloqot odobiga oid bilimlar 7-

sinfda uchta o‘quv matnida o‘z aksini topgan. Lekin muomala odobiga doir qoidalarini quyi sinflardan boshlab o‘rgatmaslikning sira iloji yo‘q. Masalan, nutqiy muloqot bilimlaridan bo‘lmish *sen* va *siz* so‘zlarini 2–4-

sinf o‘quvchilari o‘zbek bolalarining o‘zidan kattalarga (akalari, opalari, otasiga) “sizlab” murojaat qilishlarini har kuni ko‘rishadi va eshitishadi va bu holdan ajablanishlari tabiiy. Ularning ko‘nglida tug‘iladigan savollarga o‘zbek tili o‘qituvchisi izoh berib o‘tsa, ko‘pincha shuning o‘zi kifoya qiladi. Amaliyotda ham u shunday yo‘l tutadi: 2-sinfdanoq buni bolalarga ma’lum qiladi.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, nutqiy va nutqiy bo‘lmagan muloqot odobini o‘quvchilarga tushuntirib, ularning xulq-atvoriga singdirish yuzasidan olib boriladigan ishlar ba’zan oson kechadi, ba’zan esa birmuncha murakkab jarayonlarni ifoda etadi. Masalan, 2-sinf o‘quvchilari *sen* va *siz* haqidagi tushuntirishlarni oson qabul qiladilar. O‘qituvchi har safar nutqiy muloqot odobiga doir biror yangi bilim berishga kirishar ekan, ishni puxta loyihalashtirib olishdan boshlashi kerak.

Dastlabki darsda tanishtirish-

ko‘rsatish metodidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodni yolg‘iz emas, qiyoslash usuli bilan baqamti qo‘llash kerak. Shu maqsadda o‘qituvchi “O‘zbek tili” darsliklarida keng ishlatiladigan namuna variantiga murojaat etadi. Chunonchi:

–*Ada, siz bugun ishga borasizmi?*

–*Ha, boraman.*

–*Valya, sen koptokni topdingmi?*

–*Xa, topdim.*

Namuna o‘quvchilarga dabdurustdan o‘qitilmaydi. (Biz shu o‘rinda darslikl ardagi bu kabi mashqlarni bajarish ishlarini tashkil etishni farqlantirdik.) O‘qitu vchi o‘quvchilarga: “Uydagilar bilan qanday so‘zlashgan bo‘lardingiz? Masalan, adangiz ishga borish-bormasligi, ukangiz yoki singlingiz koptokni topgan-topmaganligini nima deb so‘raysiz?”, –

deb rus tilida nutqiy vaziyatni ma’lum qilib, shu suhbatni yuzaga keltirishni to pshiradi. Bolalar:

–*Папа, ты пойдешь сегодня на работу?*

–*Да, пойду.*

–*Валя, ты нашла мяч?*

–*Да, нашла.*

Ana shundan keyin o‘zbek tilidagi namuna o‘qitiladi va *sen* hamda *siz* so‘zlarining ishlatilishi rus tilidagidan nimasi bilan farq qilayotgani so‘raladi. B unday savollar o‘quvchilarni fikrlashga, ikki til hodisasini taqqoslash va tadqiq etishga undaydi.

Shunday bilimlar borki, ular tezda uqib olinadi. *Sen* va *siz* haqidagi bilim shular jumlasidandir. Lekin nutqiy muloqot odobiga doir ayrim bilimlarni bu tar zda o‘rgatish yetarli emas: ularni vaqti-vaqti bilan mustahkamlash va takrorlab borish zarur bo‘ladi.

Qiyinroq o‘zlashadigan bilimlarni mustahkamlashda leksik va grammatik mashqlar, masalan, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z yoki iborani qo‘yib o‘qish ham da ko‘chirish, namuna asosida dialogik matn tuzish kabi mashq turlari o‘quvchi larni real hayotiy muloqotga yetarlicha tayyorlay olmaydi. Chunki turmushda replikalar shunchaki buyruq-istak, so‘roq va darak gaplar ohangida emas, balki alohida ohang jilolari bilan aytiladi, tavoze harakatlari bilan qo‘shi

bado etiladi. Yuqoridagi mashq turlarida ana shu jihatlar e'tibordan chetda qoladi. Bu o'rinda rollarni ijro etish bilan bog'liq mashqlarning ahamiyatini alohida ta'kidlagan bo'lardik.

“Intellectual ring” o'qituvchi tomonidan muomala odobiga doir berilgan savollarga o'quvchilarning ketma-ket, tartibli javob berishlaridan iborat rolli o'yin metodi.

Xullas, o'zbek tili darslarida rusiyzabon o'quvchilarga qolip gaplarni, muloqot mashqlari bilan bog'liq ravishda ayrim muomala odobi qoidalarini o'rgatish ishlari tizimlilik asosida amalga oshirilishi, bunda samaradorlik asosiy o'lchov vazifasini bajarishi maqsadga muvofiqdir.

3.2-§. O'zbek tili darslarida rusiyzabon o'quvchilarga nutqiy muloqot madaniyatini o'rgatishga doir mashqlar tizimi

Dissertatsiyamizning ushbu paragrafida darsda dialogik mashqni tashkil etish shart-sharoitlari, o'quvchilarga, shuningdek, o'qituvchiga qo'yiladigan talablar, o'quvchilarning bevosita dialogik nutqini o'stirish, o'zaro so'zlashuvlarini uyushtirish jarayoni va bunda bajarilishi lozim bo'lgan mashqlar haqida so'z yuritamiz. Bunday mashqlar nutqiy ko'nikma va malakalarning rivojlanish bosqichini ifoda etib, yoshlarni hayotga, unda yuz beradigan nutqiy muloqotga tayyorlash vazifasini bajarib, ma'lum til birliklarini faollashtirish bilan tavsiflanuvchi ta'lim-tarbiya ishlarining yakuniy natijasi va samarasini namoyon qiladi.

G.V.Rogova, I.N.Vereshchaginalarning ta'kidlashlaricha, ikkinchi tilni o'rganishda uch xil faollikni o'zaro farqlash kerak: intellektual, emotsional va nutqiy faollik [123; 66-b.]. O'zaro so'zlashuv jarayonidagi faollik ko'proq nutqiy sanalib, u shu jarayonning qanday tashkil etilishiga bog'liq.

Bizningcha, har bir replika va ularga javoblarni alohida mashg'ulotda o'rganish mumkin, lekin qadamlarning hammasini bitta darsda va bir sinfda o'zlashtirishga vaqt yetishmaydi. Bunday tarzdagi mashg'ulotlar bog'chada va har bir

sinfda (2-sinf dan 9-sinf gacha) asta-sekinlik bilan modellashtirish asosida izchil olib borilsa, ularni o'zlashtirish samaradorlik kasb etadi.

Dialogik mashqqa tayyorgarlik ko'rish, uni uyushtirish jarayonida hisobga olish zarur bo'lgan masalalar sirasiga, birinchi navbatda, **so'zlashuv o'tadigan shart-sharoitni belgilab olish** kiradi. Ayni o'zaro so'zlashuv tashkil qilinadigan shart-sharoitlar ta'lim samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi.

O'zbek tilini o'qitish samaradorligini oshirishda darslarda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish ishlarini pedagogik texnologiyalar darajasiga yetkazib tashkil etishning ahamiyati katta. Bu ishlar ta'lim maqsadi asosida loyihalanadi. Maqsad esa nimani qancha, qanday saviyada, qanday qilib o'qitish kerakligini belgilab beradi.

Darsda o'quvchilarning dialogik shakldagi muloqotini uyushtirish eng murakkab jarayonlar jumlasiga kiradi. Bunda yoshlarning ushbu ish turiga qizi qish bilan munosabatda bo'lishlarini ta'minlash muhim o'rin tutadi. Bu esa o'qituvchining darsga ko'radigan tayyorgarligi, bunda hal qilib olishi lozim bo'lgan vazifalariga bog'liq. Chunonchi:

- 1) sinf o'quvchilarining o'zbek tilida mustaqil ravishda gap tuzish malakalarining qay saviyada ekanligiga e'tibor berishi;
- 2) o'zaro suhbatlashadigan juftlarni tanlashi;
- 3) xato qilishim mumkin deb o'zbek tilida gapirishdan iymnadigan o'quvchilarni alohida hisobga olishi;
- 4) suhbatdoshlarning muloqotdan ko'zlagan maqsadlari, qiziqish va faolliklarini nazarda tutishi;
- 5) dialogning borishini chamalab, loyihalashi;
- 6) dialog sodir bo'ladigan shart-sharoitlarni hisobga olishi;
- 7) uyushtiriladigan dialogning uni o'stirishga doir mashqlar tizimidagi tutgan o'rnini ko'zda tutish;
- 8) ko'rsatmalilikni ta'minlash;

9) innovatsion ish usullarini jalb etish.

Ma'lumki, hayotda suhbatdoshlarning qiziqishlari har xil bo'ladi. Birini undan- bundan gapirib, muloqotga tortish oson bo'lsa, boshqasini gapga solish qiyinroq, biriga o'zingiz yaxshi ko'rgan narsalar haqida gapirgan gaplaringiz ma'qul kel sa, ikkinchisi bunday gaplarni yoqtirmaydi. Biri suhbatingizdan mamnun bo'lsa, ikkinchisiga har qanday gap malol keladi. Demak, muloqot jarayoni ta'lim va tarbiya nuqtai nazaridan samarador bo'lishi uchun o'zbek tilining qonun-qoidalarini bilishdan tashqari, suhbatdoshining gaplashishga moyil yoki moyil emasligi, munosabatini hisobga olish lozim. Umuman aytganda, axloqiy jihatlarini, til egalarining milliy an'analari, qadriyatlari, qiziqishlari, muammolari, o'ziga xosliklarini ham tushunish, his-tuyg'ularini imkon qadar anglash talab qilinadi. Alohida ta'kidlash joizki, to'g'ri uyushtirilgan suhbatlar mazmunli va qiziqarli bo'lishi tabiiy.

Ba'zi o'quvchilar o'zlarini suhbatdoshlaridan aqlli roq, gapga chechanroq deb bilib, muloqot chog'ida ko'proq faollashib ketadilar. O'zaro so'zlashuvni tashkil etish chog'ida o'qituvchi bundaylarni ogohlantirib, suhbatdoshini hurmat qilib, uning replikasini sabr bilan kutishi kerakligini ta'kidlab turadi. Shu tariq a u muloqotning o'zaro tenglikda o'tishi kerakligiga e'tibor beradi. Boshqacha aytganda, sinfdoshlarning bir-birlarining shaxsini teng ko'rishlarini talab qilishi joiz. Chunki har biri o'z dialogik nutqini o'stirishga haqlidir. Ayni paytd a suhbatdoshlar o'z tuyg'ularini jilovlashga, bir-birlarini qo'llab-quvvatlashga intilishlari ham lozim.

Metodist olim a E.A.A'zamxo'jayeva suhbatdoshlarning o'zaro muloqotga kirishishlaridagi qiyinchiliklar bevosita quyidagi amaliy va hayotiy vaziyatlar tufayli vujudga keladi, deb hisoblaydi:

- 1) u yoki bu narsani ta'qiqlash;
- 2) qiziqishlardagi qarama-qarshilik;
- 3) kattalarning tarbiyalanuvchilarga bildirgan e'tirozlari;

- 4) o'z atrofidagi odamlarni aybdor qilishga intilish;
- 5) tengdoshlarining uni yomonlashlari;
- 6) o'z aybiga iqror bo'lishni xohlamaslik va boshqalar [29; 10-b.].

O'quvchilar ko'pincha xato talaffuz qilishdan, so'zlarni noto'g'ri ishlatishdan, biror replikani eslay olmaslikdan, noto'g'ri so'rab qo'yishdan, suhbatdoshi aytgan gaplarni tushunmay qolishdan, ayrim replikalarni yod olib ulgurmaganlik tufayli fikrni chala aytishdan hadikda bo'ladilar. O'zbek tili darslarida ta'qiqlar asosan suhbatdoshiga qo'rslik qilmaslik, qo'lini paxsa qilib gapirmaslik, suhbatdoshini unutib chetga qarayvermaslik kabilar bilan ifodalanadi.

Suhbatdoshlarni tanlashda ularning o'zaro muloqotdan ko'zlagan maqsadlaridan kelib chiqadigan qiziqishlarini nazarda tutish lozim. O'zbek tilini yaxshi o'zlashtiradigan, ozmi-ko'pmi mustaqil ravishda gap tuzib, fikr bildiradigan o'quvchi suhbatdoshining shaxsini bilib olishga qiziqadi. Dialog namunasini yod olib muloqotga kirishgan o'quvchi esa replikalarni ayta olishga, o'qituvchidan unga beradigan bahosini eshitishga qiziqadi.

Shuningdek, bu qiyinchiliklar, avvalo, o'quvchilarning o'zbek tilida mustaqil ravishda gap tuza olish-olmasligida namoyon bo'lsa, qolaversa, dialogik replikalarni muomala odobi qoidalariga rioya qilib qanday aytilayotganini anglash yoki aytishda ko'rinadi, nihoyat, suhbatdoshining talaffuzidan u aytayotgan gaplar, qolip gaplar mazmunini to'g'ri tushunishda o'z ifodasini topadi. Ayniqsa, turli his-tuyg'ular bilan berilgan savol yoki qaytarilgan javobdan, o'zaro almashilayotgan turli ma'no-mazmundagi replikalardan shu tuyg'ularni to'g'ri qabul qilish ham muayyan qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

I.V.Lisikova ta'kidlaganidek, dialogik nutq nutqiy faoliyatning murakkabroq ko'rinishlaridan biri sifatida quyidagi tavsifga ega:

- dialogning borishi bexosdan, oldindan aytib bo'lmaydigan tarzda yuz berishi;

- nutqning sub'yektiv-baho beruvchi bo'yog'i orqali namoyon bo'ladigan emotsionallik va ekspressivlik;

- ikki bo‘lakli birliklarning (savol – javob, savol – aks savol, xabar);
- suhbatni ilib ketish replikasi, taklif –

rozilik yoki rozi bo‘lmaslik, ajablanish va shu kabilar) mavjudligi [78; 27-b.].

Muloqotga kirishgina emas, balki replikalarni aytish ohangi ham muayyan qiyinchilik tug‘dirib, dialogik nutq o‘stirish vazifalari ko‘lamini yana ham kengaytiradi. N.B.Sheshkoning “Риторика” kitobida nutqiy etiketning (muomala odobining) quyidagi funksiyalari ajratiladi:

1. Aloqa (kontakt) o‘rnatish funksiyasi –

bunda suhbatdosh bilan muloqotga kirishish uchun munosabatlarni yaxshilash lozim.

2. Xushmuomalalik funksiyasi – “sen” yoki “siz” shakllarini tanlash, ismi va familiyasi bilan chaqirish, murojaat qilish.

3. Tartibga solish (regulyativ) funksiyasi – muayyan formulani tanlashning boshqarilishi.

4. Ta’sir ko‘rsatish funksiyasi–iltimos qilish, kechirim so‘rash formulalarida namoyon bo‘ladi.

5. Undash funksiyasi – bu, ayniqsa, murojaat vaziyatida yaqqol ko‘rinadi.

6. Emotsional-ekspressiv funksiya–murojaat qilish ohangini to‘g‘ri qo‘llash, ta’qiqlash bo‘yoqlaridan holi qilish [163; 97-b.].

Muallifning fikricha, nutqiy etiket uchun agressiya butunlay yotdir. Agressiya suhbatdoshda qo‘rquv hissini paydo qiladi. Agar aytilayotgan gaplar bolaga yoqmasa, qo‘rqsa, unda salbiy emotsional kechinmalar uyg‘onadi.

Bu o‘rinda o‘quvchini qo‘pollik, qo‘rslik qilmaslikka, xushmuomalalik va samimiylikka undash muhim rol o‘ynaydi. Muomala odobi qoidalari so‘z shaklini tanlashda asosiy dasturilamal bo‘lib hisoblanadi. Ijtimoiy munosabatlarni hisobga olish ham shu qoidalar asosida ro‘yobga chiqariladi.

N.A.Ippolitovanning ta’kidlashicha, har qanday muloqot axloqiy (etik) me’yorlarga asoslanadi. U tarbiya topganlikda o‘z ifodasini topadi.

Muallif quyidagi odob-
axloq tamoyillariga rioya qilishi lozim deb hisoblaydi:

- 1) odamlar o'zing bilan qanday munosabatda bo'lishlarini istasang, ular bilan shunday munosabatda bo'l;
- 2) xushmuomala bo'l, o'zgalarning manfaatlariga rioya qil, boshqalarni yomonlama, kamtar bo'l, olijanoblik ko'rsat;
- 3) so'z bilan ehtiyot bo'lib muomala qil (suhbatdoshni xafa qiladigan so'zlarni chetlab o't);
- 4) aytadigan gapingni puxta o'ylab ol, aniq, rostgo'y bo'l;
- 5) aytganlaringni (yozganlaringni) muomala odobiga rioya qilganlik nuqtai nazaridan tahlil qilib bor [55; 7-b.].

N.A.Ippolitovanning aniqlashicha, maqto'v vaziyati kam standartlashgan bo'ladi [55; 9-b.].

E.A.Isakovichning fikricha, birgalikdagi faoliyat sharoitlarida dialogik o'zaro ta'sirni tashkil etish jarayonlari shaxsninggina emas, balki odamning individligi va shaxsiyatli podstrukturalar ijtimoiylashuvi yuz beradi. Taxmin qilish mumkinki, dialogik o'zaro ta'sirni tashkil etish jarayoni birgalikdagi faoliyat sharoitlarida sodir bo'ladi, buni L.I.Umanskiyning tasnifiga ko'ra *birgalikdagi o'zaro ta'sirdagi faoliyat* deb belgilash mumkin. Uni amalga oshirishda umumiy vazifa guruhning har bir a'zosi guruhning barcha a'zolari bilan bevosita (va bir vaqtdagi) o'zaro ta'sirda bajariladi [56; 9-b.].

Dialogik o'zaro ta'sir jarayonini tashkil etish birgalikdagi o'quv faoliyatida gina emas, balki quyidagilar xos bo'lgan faoliyat shart-sharoitlarida sodir bo'ladi:

- 1) sheriklar o'rtasida ularda o'zaro ta'sirning har bir onida tug'iladigan sub'yektiv his-tuyg'ular va sezimlarni ifodalashdagi *tabiiylik va erkinlik*;
- 2) boshqa odamlarga va o'z-o'ziga nisbatan shaksiz *pozitiv (ijobiy) munosabat*, o'zgalarga g'amxo'rlik qilish va ularni muloqotda teng huquqli sherik deb qabul qilish;

3) impatik tushunish, boshqa odam bilan shaxslararo aloqa davomida uning his-tuygʻulari, kayfiyati, fikr-oʻylariga nozik va mos tarzda hamdardlik koʻrsata bilish. [56; 10-b.].

T.I.Vostrikovning taʼkidlashicha, pedagogik dialog savol berish va javob qaytarishni, maʼqullash va maqtab qoʻyishni, tanbeh berishni va boshqa shu ka bilarni oʻz ichiga oladi; oʻqituvchi tushuntiradi, uy vazifasini soʻraydi va h.k. tadbirlarni amalga oshirib, oʻquvchilar bilan dars davomida muloqotda boʻladi [39; 6-

]Muallimning nutqi bolalarga ibrat boʻla oladigan darajada boʻlishi kerak.

O.M.Orlov mehnat faoliyati (ish) yuzasidan olib boriladigan muloqot (suhbat) haqida gapirib, uning ishga qabul qilish chogʻidagi suhbat, ishdan boʻshash paytidagi suhbat, intizom bilan bogʻliq suhbat, kasbiy faoliyat bilan bogʻliq ayrim muammolarni muhokama qilish kabilarni ajratadi [106]. Shubhasiz, oʻzbek tili darslarida ham dars jarayoni oʻziga xos muloqot shakllaridan foydalanish imkonini beradi.

Qolip gaplarga oid BKMLar ham, muomala odobiga doir BKMLar ham dialogik matn namunalari orqali nutqda reallashadi, oʻzaro soʻzlashuv mashqlari yordamida nutqqa olib kiriladi, faollashtiriladi. Muomala odobiga oid qoidalar oʻqituvchining bayoni, tushuntirishlari, darslikdagi oʻquv matnlari asosida anglatilsa-da, dialog namunalari orqali oʻzlashtiriladi. Shunga koʻra dastlab dialogik nutq oʻstirish metod va usullarini tanlashda ana shular bilan bogʻliq muammolarni koʻrib chiqishga zaruriyati tugʻiladi.

Eslatish joizki, lisoniy BKMLar, odatda, amaliyotda mavjud qiyinchiliklarni bartaraf etish asnosida oʻquvchilarning muloqot olib borish uchun leksik taʼminot boʻla oladigan soʻz boyligini hosil qilish, ularga mustaqil ravishda gap tuzishni oʻrgatish, qolip gaplarni yod oldirish, muomala odobi qoidalari bilan tanishtirish yoʻli bilan rivojlantiriladi. Metodik adabiyotlarda lugʻat ishini tashkil etish masalalari keng yoritilgan. Shuni nazarda tutib biz oʻquvchilarga replikalar tuzishni oʻrgatish masalasiga maxsus toʻxtalishni lozim topmadik. Asosiy muammo

o'quvchilarni o'zbek tilida replikalar tuzib, nutq sharoiti va nutqiy vaziyatdan kelib chiqib o'zaro so'zlashishlarini ta'minlashda namoyon bo'ladi. R.Yo'ldosh evning fikricha, "O'zbek tili" darslarida rusiyzabon o'quvchilarga dialogik shakl da o'zaro so'zlashishni o'rgatish ishlari tayyor savol-javoblarni yod oldirishdan iborat bo'lmasligi kerak. Chunki turg'un iboraday bo'lib qolgan qolip gaplarni mustasno etganda aksariyat luqmalar mustaqil ravishda gap tuzib aytish imkonini beradi" [66; 64-b.].

R.Yo'ldoshev o'zining 2015-yili chop etilgan monografiyasida qolip gaplarni rus tiliga tarjima qilib tushuntirish, qaysi nutqiy vaziyatlarda ishlatilishini izohlash, ularni mustahkamlash (dialog namunasi asosida unga ayrim o'zgartishlar kiritgan holda o'zaro so'zlashish) bilan cheklanmaydigan ish ko'lamini belgilab beradi, chunonchi, u o'quvchilarga o'zaro dialogik shaklda so'zlashishni o'rgatishda o'qituvchining oldida turgan ta'limiy vazifalarni shunday sanab ko'rsatadi:


1. O'quvchilarga o'zaro so'zlashish tartibini o'rgatish.
2. Quyi sinflarda o'quvchilarni dialog namunasi bilan tanishtirgach, uni o'z hayoti bilan bog'lab, ayrim o'zgarishlar kiritgan holda ijro etish.
3. Qolip gaplar bilan izchil tanishtira borish, ularning qay vaziyatlarda qo'llanishiga izoh bergan holda nutqiga singdirish.
4. Loyiha sifatida tayyorlab kelingan dialogni darsda yuzaga keltirish.
5. Nutqiy vaziyatlar yaratish yo'li bilan o'quvchilarning tipik muloqot mavzularida erkin so'zlashuvlarini tashkil etish [64; 71-b.].

Muallif *dialogik luqmalarning ishlatilish tartibini o'rganish* muhimligini ta'kidlab, shunday deydi: o'quvchilar savol-javob tartibida o'zaro "suhbatlashish"da tartib bilan bog'liq qiyinchilikni his etmasalar, savol - javob, aks savol tartibida so'zlashishda tartibni unutishdan iborat qiyinchilikka duch keladilar: ba'zan javobdan so'ng o'zlari savol berishlari kerakligini esdan chiqaradilar [64;71-b]. Muallif maslahatlarini davom ettirib, buni "Endi sen so'ra", deb eslatib turish, shu yo'l bilan *muloqotning jonliligini ta'minlash*

zarurligini, buning uchun o'quvchilardan o'z suhbatdoshiga qaragan holda (ba'zan ismini aytib) savol berish va javob qaytarishni talab etish ma'qulligini uqtiradi [64; 72-b.]. Uning fikricha, dialog paytida savol bilan javob o'rtasida, umuman, luqmalar oralig'ida uzoq to'xtamlar, katta-katta uzilishlar bo'lmasligi lozim. O'qituvchi suhbat jarayonida javobni iloji boricha tez aytishni talab qiladi, tez javob qaytarganlarni rag'batlantirib turadi [64; 72-b.]. Bu endi suhbatdoshlar faolligi masalasi bilan bog'lanadi. Lekin asosiy muammo qolip gaplarni, shuningdek, muomala odobi qoidalarini o'rgatish, dialogik matn namunalari asosida yoki ularsiz o'zaro so'zlashuv mashqlarini tashkil etish, umumlashtirib aytganda, yoshlarning nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirishdan iborat bo'lib qolaveradi.

Ma'lum bo'ladiki, o'quvchilarning dalolik shaklda o'zaro so'zlashuvini tashkil etish jarayoni murakkab bo'lib, o'qituvchidan alohida mahorat talab etadi. Savol-javobning tashkiliy jihatlarigina emas, hatto namunani tushunishning o'zi jiddiy e'tiborni talab qiladi. R.X.Abubakirovaning ta'kidlashicha, dialogik nutq o'stirish suhbatdoshlarning biri gapirishi, ikkinchisi nutqni tinglab tushunishi bilan bog'liq nutqiy faoliyat ko'rsatgani uchun psixologik jihatdan muayyan qiyinchiliklar tug'diradi [18; 3]. Bu qiyinchiliklarning bir jihati so'zlashuv uchun suhbatdoshlardan biri gapirganda, ikkinchisi u aytgan so'zlarni xotirasida ushlab turishi va javob qaytarish haqida o'ylashi kerakligida, yana bir jihatni tinglovchi suhbatdoshi bergan axborotni o'zidagi axborot bilan solishtirish asosida yangiliklarni ajratishi lozim bo'ladi [166; 22-b.]. Tinglovchi o'zida muloqotga tayyorlik his qilishi kerak. Shunda uning diqqati to'liq nutqni tinglab tushunish va gapirishga safarbar qilinadi. So'zlovchi kimga nima deyishni, vaziyatni o'ylaydi.

Matn namunasi asosida dialogik nutq o'stirishga qaratilgan mashqlar tizimi ham o'ziga xos bo'lishi, muayyan izchillik ta'minlanishi kerak. Ushbu izchillikni quyidagi chizma orqali yaqqol ifodalash mumkin:



3.1-rasm. Dialogik nutq o'qirish mashqlari dinamikasining gipotetik modeli.

Mashqlar tizimi (dialogik nutq o'qirish mashqlari dinamikasining gipotetik modeli) quyidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish uchun tavsiya etilmog'i lozim:

— o'tilgan so'zlashuv mavzulari doirasida muloqot odobiga rioya qilgan, bir-birini tushungan holda tartib bilan o'zaro so'zlashish;

— tuzilishi o'rganilgan gap qurilmalari doirasida to'la mustaqil ravishda gap tuzib aytgan holda nutqiy muloqotda erkin ishtirok etish;

- dialogik shakldagi nutqda qolip gaplar boyligidan o'rinli foydalanish;
- suhbatdoshni turli savollar berib suhbatga torta olish;
- savol yoki javobda kommunikativ muddaoni ohang yordamida ifodalash;
- suhbatning jonli chiqishini ta'minlash;

— dialogik shakldagi nutqda har xil mazmundagi replika turlaridan foydalana bilish.

Yuqorida sanab o'tilgan ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda o'zbek tili darsliklarining mashq materiallarining yetarli yoki yetarli emasligi haqida gapiradigan bo'lsak, bu mashqlarni o'quvchilarga o'zbek tilida erkin so'zlasha olish imkonini beradigan, shuni o'rgatadigan mashq turlariga e'tiborni qaratishi miz to'g'ri bo'ladi. Eng muhimi, dialogda ishlatilishi kutilgan leksik materiallar o'zlashgan, ya'ni darslik sahifalarida o'rganilib, mustahkamlanayotgan bo'lishi kerak. Biz bu mashqlarni berilgan mavzuda mustaqil ravishda dialoglar yaratish (so'zlasha olishni), suhbatni vaziyatga qarab mustaqil davom ettira bilishni talab etadigan topshiriq turlari sifatida tasavvur qilamiz. Bunday ta'limiy tadbirlarni amalga oshirish, shubhasiz, o'qituvchining mahoratiga bog'liq bo'lib qoladi.

Boshlang'ich sinflarda dialog namunasini o'qishda o'qituvchining talaffuziga taqlid qilish yetakchi mavqeda bo'ladi. O'qishga, ayniqsa, ifodali o'qishga ko'proq vaqt ajratiladi. Qisman 4-, asosan 5-sinfdan bu ishga sarflanadigan vaqt qisqarib boradi.

Dialogik nutq o'stirish ishlari odatda matn namunalari asosida boshlanadi. Bunda ***yangi materialni tushuntirish va o'zaro so'zlashishni mashq qilish*** metodlari qo'l keladi. Matn namunasi quyidagi ikki xil usulda taqdim etiladi:

- 1) matn namunasini o'qish;
- 2) so'zlashuv namunasini eshitib idrok etish.

Dialogik matn (suhbat) namunasi dastlab o'qituvchi va biror yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchi yoki yaxshi o'zlashtiradigan ikki o'quvchi tomonidan rollar bo'yicha ifodali o'qiladi. So'ng boshqa bolalar ham dialog replikalari talaffuzini mashq qiladilar. Replikalarni o'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilish, qiyoslash, izohlash – bular ham usullar sanaladi. Lekin ushbu usullar notanish (yangi) qolip gapga nisbatan qo'llanadi. Tarkibi anglanadigan replikalar sidirg'asiga emas, balki o'quvchilar mazmunini tushunmagan gaplarni aniqlash, avval bir-ikki notanish so'zni tushuntirish, bu ish yordam bermagan holatdagina replikani rus tiliga o'girish tavsiya qilinadi.

So‘zlashuv namunasining og‘zaki ravishda taqdim etilishi uni dialogni nutq orqali idrok etish imkonini beradi. Bunda intonatsiya ham, muloqot tarz i ham, bevosita til materiallari ham jonli muomala yo‘sinida qabul qilinadi va shunga suyangon holda bevosita talaffuz mashqiga o‘tish uchun andoza bo‘lib xizmat qiladi.

Matn namunasini o‘zgarishsiz aynan ijro etish o‘quvchilarning dialogik nutqini o‘stirmaydi, balki shunga ko‘riladigan tayyorgarlikni ifoda etadi. Binobari, bu mashq turiga ko‘p vaqt ajratilmaydi. O‘quvchilarni baholashda til materialining o‘zlashtirilishi, talaffuz va imlo jihatlari, replikalar intonatsiyasi hisobga olinadi.

Boshlanishi keltirilgan dialog namunalarini mazmuniga o‘zgartishlar kiritgan holda ijro etish mumkin. Bunda reys (uchiladigan tomon) nomi va uchmoqchi bo‘lib turgan kishidan qilinadigan iltimos va ushbu iltimosga qaytariladigan javob, dialogning biror replika bilan davom etishi ko‘zda tutilishi mumkin. Darslikda bo‘lmagan holatlarda ana shunday dialogik matn namunalarini tuzib chiqish o‘qituvchining zimmasiga yuklanadi.

Bir dialog namunasini asos qilib olib, undagi so‘zlarni va replikalarni almashtirish yo‘li bilan variantlar yuzaga keltira borish ishi sinfdan sinfga izchil bajarilishi mumkin. Bunday ta’limiy tadbir mundarijasi R.Yo‘ldoshevning “O‘zbek tili darslarida...” nomli metodik qo‘llanmasida, qisqargan holatda uning 2015-yilda nashr qilingan monografiyasida bayon qilingan.

Ushbu turdagi mashqlarning ahamiyati shundaki, ular o‘quvchilarning dialogik nutqini o‘stirish bilan bog‘liq dastlabki ko‘nikmalarni egallash imkonini beradi.

Boshlanishi berilgan dialogni davom ettirish talab etiladigan mashqlar o‘quvchilarni berilgan bir-ikki replikaga tayangan holda davomini o‘ylab topish vaziyatiga soladi. Masalan:

BOZORDA

– Qovunning kilosi necha so‘m turadi?

– ... so‘m.

– Mana bu qovun necha kilo chiqadi? ...

BEKATDA

– Shimoliy vokzalga nechanchi avtobus boradi?

– 55–avtobus.

– ...

SHIFOKOR HUZURIDA

– Mumkinmi?

– Kiring. Mana bu yerga o‘tiring. Xo‘sh, qayeringiz og‘riyapti?

–...

O‘quvchilar bu kabi mavzularda ona tilida ko‘p so‘zlashib turganlari uchun mashqni uncha qiynalmay bajaradilar. Replika va qolip gaplarni o‘ylab topishda ona tilidan muloqot ko‘nikmalariga tayanadilar. Lekin ayrim mavzulardagi dialoglar odatdagidan farqli bo‘lishi mumkin. Masalan, “Bozorda” mavzusi shular jumlasiga kiradi. Qovun yoki tarvuz sotib oladigan kishi avval bir kilosining narxini so‘raydi, keyin “Bitta qovun (tarzvuz) bering”,–

deb so‘rash o‘rniga “Mana bu qovun necha kilo chiqadi?”, “Kichikrog‘i-chi?” kabi savollarga javob olgach: “Mana bu qovunni torting”,–

deb murojaat qiladi. Mashq ta‘limiy bo‘lgani uchun o‘qituvchi yo‘naltiruvchi savol va topshiriqlar yordamida suhbatlashayotgan o‘quvchilarga yo‘l ko‘rsatib turadi. Ba‘zi ilg‘or ish tajribali o‘qituvchilar mulyajlardan foydalanib, qovun xarid qilish vaziyatini yuzaga keltiradilar. Ba‘zi mavzularda ...dialogga sahna elementlari ham kiritiladi: eshikni taqillatish, ruxsat so‘rash, salomlashish, xayrlashish va boshqalar. Bunda quyidagi kabi replikalarni ham ishlatish lozim bo‘ladi: “Kim u? – Bu – men, Sashaman, kirish mumkinmi? Kiring. Kechirasiz. Unda nima ishing bor?”.

Bunday ko‘rsatmalilik o‘quvchilarni faollashtirib yuboradi. Darsda besholti juft o‘quvchi o‘zaro suhbatlashgach, dialog ravonlashadi.

Berilgan mavzuda dialog tuzish talab etiladigan mashqlar muayyan leksik va grammatik tayyorgarlikdan so'ng, o'quvchilar o'zaro so'zlashishning dastlabki ko'nikmalarini egallay boshlaganlaridan keyin tashkil etiladi. Shunday yo'l tutilmasa, darsliklarda berilganidek, bu kabi topshiriqlar katta qiyinchiliklar, muvaffaqiyatsizliklar bilan ado etiladi.

Mashq turining ahamiyati shundaki, jiddiy hozirlik asosida uyushtiriladigan so'zlashuv samarali bo'lib, yoshlarni ruhlantiradi, ulardagi dastlabki ko'nikmalarni yanada mustahkamlash imkonini beradi, Davlat ta'lim standartida belgilangan miqdoriy va sifat ko'rsatkichlariga erishishni ta'minlaydi.

Bir necha ishtirokchi bo'lib suhbatda qatnashish muomala odobini egallash, suhbat diapozonini kengaytirish, kutilmagan replika variantlarini o'rta tashlash imkonini beradi, o'quvchilarning mas'uliyati ortadi, ular yetarli darajada faollashadilar.

Xullas, dastlabki mashq sifatida namuna aslicha ijro etiladi, so'ng variativ o'zgarishlar qilishga o'tiladi, yondosh mavzulardan, o'xshash nutqiy vaziyatlardan birida namunadan foydalanib (so'zlari, gaplari, qolip gaplarini o'zgartirib) o'zaro so'zlashish mashqlari uyushtiriladi, nihoyat, to'lig'icha mustaqil ravishda o'zaro so'zlashish mashqlariga o'tiladi.

Yangi leksik va grammatik materiallarni o'rganish mazmunidagi tayyorgarlik ishlari bevosita o'zaro so'zlashuvni tashkil etish darsidan bir dars avval yoki ular ko'p bo'lsa, 3-4 dars oldin amalga oshiriladi. Yangi mavzuda dialog yaratish, dialogik shaklda muloqotni uyushtirish ana shu hozirlik sifatiga bog'liq bo'ladi. To'g'ri, muloqotni ikki xil amalga oshirish mumkin:

1) dialogik matndagi replikalarga qarab, esda olib qolgan holda o'zaro so'zlashish;

2) yangi so'zlarini o'zlashtirgan, grammatik vositalarni erkin ravishda gap tuzish darajasida egallagan holda o'zaro muloqotga kirishish.

Bu jarayon puxta o'ylab chiqilgach, loyihalangan tizimdagi mashqlar izchilligini ado etishga kirishiladi.

“O‘zbek tili” darsliklarida berilgan mashqlar tahlilida retseptiv, reproduktiv va mahsuldor mashqlar nisbati haqida so‘z yuritgan edik. Ushbu mashq turlari ni quyidagicha guruhlab taqdim etish maqsadga muvofiqdir:

- 1) retseptiv dialogik mashqlar;
- 2) retseptiv-reproduktiv mashqlar;
- 3) reproduktiv mashqlar;
- 4) reproduktiv-mahsuldor mashqlar;
- 5) mahsuldor mashqlar.

Quyida ushbu ish turlariga ayrim-ayrim to‘xtalamiz.

I. *Retseptiv nutqiy faoliyatni ifoda etuvchi dialogik mashqlarga* quyidagilar kiradi:

- dialogik matn namunasini o‘qish, yangi lingvistik birliklar ustida ishlash;
 - dialogik matnni o‘qish, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning shakliga e’tibor berish;
 - dialogik matnni o‘qish, nima uchun u yoki bu so‘zlar (obbo, ehe kabi) qo‘llanganini izohlash
 - tasdiqlash va inkor ma’nosini ifodalovchi so‘z birikmalarni bir ustunga, 2-ustunga zid ma’noli so‘zlardan narvoncha hosil qilish;
 - dialogik matnni o‘qish, inkor ma’nosini ifodalovchi gaplarni topish;
 - dialog namunasini rollarga bo‘lib o‘qish, muomala odobi bilan bog‘liq ohangga e’tibor berish;
 - dialogni o‘qib, talab etilgan til hodisasini, masalan, qarindoshlikni bildiradigan so‘zlarni ko‘rsatish;
 - dialogik matnni o‘qish, undan muomala odobiga doir so‘zlashuv replikalarini yoki qolip gaplarni topib, ko‘chirib yozish, ularni eslab qolish.
 - dialogik shakldagi matnni ifodali o‘qish
- Retseptiv nutqiy faoliyatni ifoda etuvchi dialogik mashqlarning asosini ikki xil vazifa tashkil etadi:

- dialogik matnni o‘qish va o‘quvchilarning replikalarni to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmalarini mustahkamlash;
- replikalar mazmunini tushunish, ulardagi lisoniy birliklarni esga olish va mustahkamlash.

Ma’lum dialogik matn namunalari suhbat doirasini kengaytirish xarakterida bo‘lib, ularda ishlatiladigan replikalar, qolip gaplarning bir qismi takror kiritilgan bo‘ladi. Bunday paytlarda o‘qishga oz vaqt sarflanadi.

Dastlabki dialogga xos mashqlar nutqiy vaziyatdan ajralgan holda o‘tkaziladi. [25; 49-b.]. Bunday mashqlarning maqsadi – o‘quvchilar xotirasida replikalar bilan dialogik birlik o‘rtasida mustahkam bog‘lanish hosil qilish. Replikalar (gaplar) tuzish jarayoni ham nutqiy vaziyatdan tashqari o‘tadi (hozirgi darsliklar sharoitida). Dialogni ijro etish (talaffuz qilish va eshitish) avval og‘zaki, keyin matnni o‘qish (ko‘ruv tayanchi) asosida ham tashkil etilishi mumkin.

II. Retseptiv-

reproduktiv nutqiy faoliyatni ifoda etuvchi dialogik mashqlar quyidagilar:

- o‘qilgan dialogik matn asosida o‘zaro so‘zlashish;
- dialogni rollarga bo‘lib o‘qish va uni ijro etish;
- berilgan savol va javoblar asosida o‘zaro suhbatlashish.

–

dialog tarzida keltirilgan savollarga og‘zaki javob qaytarish yoki o‘zaro suhbatlashish;

- savollarga inkor ma’nosini bildiruvchi so‘zlar bilan javob berish

Retseptiv-reproduktiv nutqiy faoliyatni ifoda etuvchi dialogik mashqlar sirasida dialog namunasini ijro etish ustuvorlik qiladi. Ushbu ustuvorlik namuna ning yangiligiga ko‘ra belgilanadi. R.Yo‘ldoshev bir namunani mavzu jihatdan yangilab borish usulini tavsiya etadi. Bu usul dastlabki namunaning o‘zlashganligiga qarab keyingi variantlarda to‘liq reproduksiya va produksiyaga o‘tish tezla

shadi. Demak, retseptiv-reproduktiv nutqiy faoliyat dastlabki dialog namunasiga nisbatan tatbiq etiladi.

Ayrim metodist olimlar (R.Yo‘ldoshev) o‘zlari olib borgan kuzatishlarda o‘quvchilar ko‘pincha suhbatdoshini unutib, unga qaramasdan muallaq tarzda dialog replikalarini shunchaki aytishlarini ko‘rsatgan. Lekin sahnalashtirish asosidagi ijrolar paytida bunday holatlar kamdan-kam ro‘y beradi. Bunga darsga olib kiriladigan didaktik ashyolar (masalan, tarozi, mulyajlar va h.k.) omillik ko‘rsatadi. Metodist olimi X.Muxitdinovanning ta’kidlashicha, “Inssenirovka tipidagi dialoglar keyingi paytlarda rol o‘yinlar deb atalmoqda va ular ko‘proq mutaxassislik yo‘nalishlariga bog‘langan holda o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim bosqichlarida tashkil etilmoqda” [97; 71–b.].

III. Reproductiv nutqiy faoliyatga xos dialogik mashqlarga quyidagilar kiradi:

- Воспроизведите диалог, покупая стакан молока, два коржика, стакан кампота, кофе, лимонада;
- dialogning ayrim so‘zlarini (masalan, xarid qilinadigan narsalarning nomini) o‘zgartirgan, so‘z qo‘shgan holda qayta ifoda etish;
- dialog namunasidan foydalanib, unga ma’lum o‘zgartishlar kiritgan holda biror mavzuda (“Oziq-ovqat do‘konida” va b.) o‘zaro suhbatlashish;
- nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan replikani qo‘yib dialogni to‘ldirish;
- “Kitob do‘konida” va boshqa shu kabi mavzuda, ba’zan tayanch so‘zlar yoki rasm asosida boshlanishi berilgan dialogni davom ettirish;
- berilgan (yoki matndan ajratib ko‘rsatilgan) so‘zlarga so‘roq qo‘yish asosida o‘zaro so‘zlashish;
- matn asosida biror tushuncha haqida mushohada yuritish, bahslashib, muhokama qilish.

Reproduktiv nutqiy faoliyat nima haqida qanday tartibda suhbatlashish kerakligini o‘rganish, mashq qilish bosqichi sanaladi. Bu jarayonda suhbatning statik strukturasi o‘zlashadi.

Dialog namunalarining ayrimlari o'quv (ta'limiy) dialoglarga yaqin tursa, ayrimlari odatdagi so'zlashuvga xosdir. O'quv dialogida ta'limiy jihat oldindan rejalashtirilgani bilan ajralib turadi. O'qituvchi dialogning nima bilan boshlanib, nima bilan tugashini oldindan ko'zlab qo'ygan bo'ladi. Shularni nazarda tutgan holda ba'zan namunalarni soddalashtirish, ba'zida esa murakkablashtirishga to'g'ri keladi.

Dialogik nutq o'stirish ustidagi asosiy ishlar matn o'qilgandan keyin boshlanadi. O'quvchilarning o'tilayotgan mavzuda o'zaro so'zlashuvlarini tashkil etish, bunda o'rganilayotgan so'z va iboralarni, gap turlarining, qolip gaplarning ularning nutqida qo'llanishini boshqarish maqsadida dastlabki bosqichda dialogik matn namunalari ustida ishlanadi. Bundan maqsad o'quvchilarda so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, dialogik replikalarni to'g'ri ovozlantirish (intonatsiyasini o'zlashtirish) yuzasidan dastlabki zaruriy ko'nikmalarni hosil qilishdan iborat.

IV. Reproduktiv-

mahsulдор nutqiy faoliyatni ifoda etuvchi dialogik mashqlar quyidagilar:

– berilgan fe'llarning ma'nosini eslash va o'zaro savol-javob qilish;

–

bir so'zga turli shakllarda (masalan, kim? kimning? kimni? va boshqa) so'roqlar berib, savol-javoblar tuzish va o'zaro so'zlashish;

– rasmlar (tasvirlar) asosida namunadagidek dialog tuzish;

– “Suhbat” matni namunasida oila a'zolarini do'stlari bilan tanishtirish;

Bu bosqich ikki xil tashkil etiladi:

1) retseptiv yoki retseptiv-reproduktiv mashqlar davomida;

2) matn namunasi asosida o'z namunalarini yaratish bosqichiga o'tilganda.

Ikkinchi holatda o'quvchilar avvalgi mashqlar orqali o'zlashgan strukturaning qurilmasini tanishga aylangan replikalar tuzib yangi mazmun ifodalay olgan ko'nikmalarga tayanadi. Bunda mavzuviy yaqin suhbatlarni yuzaga keltirish asosiy mavqeda bo'ladi.

Dialogik nutq o‘stirish uchun muayyan o‘zgarishlar bilan ko‘p marotaba ijro etishda namuna bo‘la oladigan matnlar tanlash kerak bo‘ladi. Shuni ham eslatish joizki, ayrim darsliklarda keltirilgan ba’zi namunalar bir martadan ijro etish uchun yaraydi, xolos. Masalan, 6-sinf “O‘zbek tili” darsligidagi [138; 118–b.] 4-mashq materialini ko‘rib chiqaylik:

- *Kechirasiz, sizda ishim bor edi.*
- *Keling, xizmat?*
- *Sizdan maslahat so‘ramoqchiman.*
- *Uzr, men ketmoqchiman. Ertaga keling.*
- *Mayli. Xayr.*
- *Yaxshi boring.*

Ushbu namunada “*Sizdan maslahat so‘ramoqchiman*” gapini o‘zgartirish mumkin. Lekin bu o‘zgarish dialogning borishiga jiddiy ta’sir ko‘rsata olmaydi, chunki ushbu replikalar aslida dialogik matnning informativ qismiga dahldor emas: ular muloqotning tashkiliy jihatlari sanaladi.

Matnni o‘qituvchi yoki o‘zbek tilini yaxshi o‘zlashtirayotgan o‘quvchilarda n biri o‘qib beradi, yoki rollar bo‘yicha o‘qiladi. So‘ngra o‘quvchilardan qaysi so‘zlar ma’nosini yoki gaplar mazmunini tushunmaganliklari so‘rab aniqlanadi. (Bu so‘zlar matnga doir lug‘atda berilgan bo‘lishi ham mumkin.) Nihoyat, matn sinfdagi o‘quvchilarga o‘qitiladi. Shundan keyin dalog tartibini eslab qolish top shirig‘i berilib, bir necha o‘quvchi uni juft-juft bo‘lib ijro etadi. Shu bilan dastlabki bosqich yakunlanadi. Ayrim dialogik matn namunalarida ba’zi so‘zlari ni yoki replikalarini almashtirish imkoniyati mavjud bo‘lsa, u holda mashq turi ikkinchi bosqich tartibida ham bajariladi.

V. Mahsuldor nutqiy faoliyatni ifoda etuvchi dialogik mashqlar quyidagilar:

- rasmlarga qarab yoki narsa-buyumlar, odamlar haqida o‘zaro so‘zlashish;
- istak bildirish, e’tiroz bildirish, tasdiqlash, olqishlash, tabriklash, ruxsat so‘rash, murojaat qilish, tanishish, rozilik bildirish, rad etish, va h.k.;

– o‘qituvchi aytgan nutqiy vaziyatlarda (masalan, uzoq vaqt uchrashmagan do‘stini uchratganda va h.k.) o‘zaro so‘zlashish (so‘rashib hol-ahvol so‘rash va b.);

– narsa-buyumlarga, odamlarga ularning faoliyatiga baho berish;

– do‘stiga ba’zi shartlarni qo‘yish va suhbatlashish, suhbatni dialog tarzida yozish;

– o‘z oila a‘zolarini do‘stlari bilan tanishtirish;

– partadosh do‘sti bilan berilgan mavzuda dialog tuzish;

– bir-biri bilan telefonda u yoki bu narsa haqida gaplashish;

– rasm asosida unda tasvirlangan narsa-buyumlar, kasb egalari haqida bahslashish.

O‘zaro nutqiy muloqot jarayoni suhbatdoshlarni ma’naviy-estetik boyitishdan tashqari, intellektual jihatdan rivojlantirishi ham zarur. Bu narsa fikr almashuv jarayonini yangi axborot almashinuvi tariqasida tashkil etish orqali ta’minlanadi. Hayotiy tajribasi to‘planib borayotgan, bugungi kun yangiliklaridan, ayniqsa, internet ma’lumotlaridan ozmi-ko‘pmi xabardor bo‘lib turgan suhbatdosh doim hurmat qozonadi. Shunda muloqot suhbatdoshlarida qanoat va rag‘bat hosil qiladi, o‘zaro hurmat tuyg‘usini uyg‘otadi, hayotiy tajribani boyitadi.

Metodika ilmida dialogik nutq o‘stirishga qaratilgan mashqlarga nisbatan muayyan talablar ilgari surilgan. Chunonchi, I.V.Lisikova dialogik nutq shaklida so‘zlashuvchilar quyidagi talablarga javob berishlari kerakligini ta’kidlaydi:

“Turli vaziyatlarda mo‘ljallanib olinib, muloqot shart-sharoitlariga mos keladigan qolip gaplardan (речевые клише) foydalanish, nutqiy etiket me‘yorlariga amal qilish” [78; 27-b.]. Demak, dialogni o‘rgatish mashqlarida shular nazarda tutilishi lozim.

“Improvizatsiya” – muloqot jarayonini tayyorgarliksiz uyushtirish (o‘quvchilarga nutqiy vaziyat tushuntirilib, sahna ko‘rinishini yuzaga keltirish topshiriladi).

O.V.Kosheyevaning fikricha, kichik yoshdagi o'quvchilar o'zlarining kunda lik muloqotida *dildan gaplashish* janridan foydalanadilar [75; 28-b.].

L.S.Frolovaning ta'riflashicha, individual (ichda aytiladigan) dialog, ya'ni kishining o'z-

o'zi bilan, xuddi boshqa odam bilan gaplashganday gaplashishi sub'ekt o'quv faoliyatining rivojlanganligidan dalolat beruvchi o'quv dialogini tashkil etishning oliy shakli deb atalishi mumkin [154; 12-b.]. Uning fikricha, o'quvchi shunday qila olganda, "o'z faoliyatini loyihalay oladi, o'zini o'zi o'zgartira biladi, boshqa odamlar bilan sub'yekt-sub'yekt munosabatlari paradigmasida o'zaro muloqotni amalga oshira oladi, hozirda dolzarb va kelgusida pozitiv "Men-konsepsiya"ni ro'yobga chiqara biladi deb aytish mumkin. Boshqacha aytganda, u faoliyat sub'yekti sifatida shakllanib bo'lgan bo'ladi" [154; 12-b.].

